

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

S.N.XASHIMOVA

YASHIL IQTISODIYOT

DARSLIK

TOSHKENT 2024

UDK 331.312.442

Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. –T.: ToshDTU, 2024. 226 b.

Darslikda “Yashil” iqtisodiyot fanining nazariy asoslari, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va konsepsiyasi yoritilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirish mexanizmlari, O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari va xorij tajribasi bayon etilgan.

Darslik Oliy o‘quv yurtlarining 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 60411200-Menejment (sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruv), 60411600- Korporativ boshqaruv ta’lim yonalishlari talabalariga mo‘ljallangan.

В учебнике раскрыты теоретические основы “Зеленой” экономики, необходимость, факторы, принципы и концепция перехода к “зеленой” экономике. Описаны финансирование перехода к “зеленой экономике”, устойчивое развитие “зеленой энергетики”, экологическая политика и механизмы ее реализации, приоритеты перехода к “зеленой” экономике в Узбекистане и зарубежный опыт.

Учебник предназначено для студентов обучающихся по направлениям 60310100-“Экономика” (по отраслям и сферам), 60411200-“Менеджмент” (управления инновационным проектам на промышленных предприятий), 60411600-“Корпоративное управление”.

This textbook examines the theoretical foundations of "Green" economy, the necessity, factors, principles and concept of transition to "green" economy. This textbook is intended financing of transition to "green" economy, sustainable development of "green energy", environmental policy and mechanisms of its implementation, priorities of transition to "green economy" in Uzbekistan and foreign experience.

The textbook is intended for students of higher educational institutions of 60310100-Economics (by networks and sectors), 60411200-Management (management of innovative projects in industrial enterprises), 60411600-Corporate management.

Darslik Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy kengashining 7-son majlis qaroridan 2024 –yil 29-martdagi 01/9-05-198 –sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Salimov B. T.- i. f. d., professor (ToshDIU)

Yakubova D. M.- i. f. n., dotsent (ToshDTU)

KIRISH

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda koronavirus pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish hamda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta’minlash maqsadida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o‘tish xalqaro miqyosda, O‘zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof-muhit imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish orqali erishish mumkin.

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ”yashil“ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PK-436-son qarori bilan O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadlari belgilandi. Mazkur Qarorga “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘tishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning maqsadi, tabiiy resurslarni asrash, zaharlanuvchi moddalar emissiyalarini kamaytirish va kelgusi avlodlarning hayotini ta’minlashga yordam beradigan barqaror va ekologik to‘g‘ri rivojlanish modelini yaratishdir.

Darslikda “Yashil iqtisodiyot” fanining nazariy asoslari, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar natijasida tabiiy resurslarga antropogen ta’siri, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida atrof-muhitni

ifloslantiruvchi asosiy manbalar, atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan tadbirlar va uning huquqiy asoslari, ilmiy amaliy jihatlari berilgan.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va konsepsiyasi yoritilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirishning mexanizmlari, O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari va xorij tajribasi bayon etilgan.

Ushbu darslikda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyotni ta’minlash, inklyuziv o‘sishga bag‘ishlangan ilmiy asarlari, BMTning Ixtisoslashgan tashkilotlari, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi materiallari o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroridan foydalanildi.

1 BOB. “YASHIL IQTISODIYOT” KURSINING PREDMETI VA METODI

1.1.”Yashil” iqtisodiyot kursining predmeti va vazifalari

Hozirda ko‘pchilik dunyo mamlakatlari mamlakat barqaror rivojlanishining taraqqiyot kafolati ya'ni "yashil" iqtisodiyot yo‘lidan bormoqda. XXI asr dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolar, aholining doimiy o‘sishi - ijtimoiy muammolar, ishsizlikning o‘sishi, iqtisodiy muammolar muntazam ravishda iqtisodiyotning turli sohalarida yuzaga kelayotgan inqirozlar tufayli "yashil" iqtisodiyotga o‘tish zarurati yuzaga kelmoqda.

Dunyo iqlimning keskin o‘zgarishi, anomal tabiat hodisalari insoniyatni yangi ekologik tahdidlar jamiyat va atrof-muhitga beqaror va oldindan aytib bo‘lmaydigan xavotir olib keladi. Barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo manfaatlarini ifodalovchi barqaror rivojlanishga erishish uchun qabul qilingan chora-tadbirlar va konsepsiyada “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa barqaror o‘shishga erishishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi.

Dastlab, fiziokratlar ta'limotida "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish uchun yagona boylik tabiatdir, degan fikrni da'vo qilgan. Bu ta'limotning asosiy mafkurasi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishda daromadning xarajatlardan ortiqqligini ifodalab beradi.

Ayrim manbalarda “Yashil” iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “Yashil” iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “Yashil” iqtisodiyot- bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga

yoʻnaltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga oʻtish, uning asosini sof yoki “Yashil” texnologiyalar tashkil etadi, deyiladi.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan toʻliq taʼrifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, **“Yashil” iqtisodiyot**, bu odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir. Mazkur tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “Yashil” iqtisodiyot nazariyasi, tamoyillari yoki “Yashil” iqtisodiyot siyosatiga nisbatan ham qoʻllanilishi mumkin.

“Yashil” iqtisodiyot koʻp jihatdan ekologik iqtisod bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ekologik iqtisodiyotda tabiiy resurslarni oʻlchovga yaroqli, iqtisodiy qiymatga ega resurs sifatida hisoblaydi. Ammo ushbu gʻoyalarni qoʻllash haqida gap ketganda, “yashil” iqtisodiyot tarafdorlari koʻproq siyosiy jihatdan eʼtibor qaratadi.

“Yashil” iqtisodiyotning bir necha xil taʼriflari mavjud.

2012-yilda Xalqaro savdo palatasi (XSP) “Yashil” iqtisodiyot uchun qoʻllanmasida: “Yashil” iqtisodiyot, bu "iqtisodiy oʻsish va atrof-muhitga masʼuliyat bilan birgalikda taraqqiyot va ijtimoiy taraqqiyotni qoʻllab-quvvatlagan holda oʻzaro mustahkamlangan birgalikda ishlaydigan" iqtisodiyotdir, deb taʼrif berganlar. “Yashil” iqtisodiyotning asosiy mohiyatiga kirib borish usullaridan biri mahsulot yoki biznesning barqarorlik darajasini koʻrsatuvchi isteʼmolchilarga qaratilgan yoʻnalishdir.

“Yashil” iqtisodiyot, bu ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bogʻliq iqtisodiyot.

"Yashil" iqtisodiyot - iqtisodiyot fanining tabiiy muhitga bogʻliq tarkibiy qismining yoʻnalishi boʻlib, unda oʻzi mavjud boʻlgan

tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini saqlashga qaratilgan iqtisodiyot.

“Yashil” iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning oxirida paydo bo‘ldi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir yo‘nalishi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog‘liq iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi.

“Yashil” iqtisodiyot fani nazariy jihatdan xo‘jalik yuritish tizimini “yashillashtirish”ning umumiy strategiyasini ishlab chiqish va ustuvor

yo‘nalishlarini belgilab berish bilan shug‘ullanadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga “yashil” iqtisodiyotga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish, ularda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati, rivojlanish omillari va ustuvor yo‘nalishlarini tahlil etish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, “yashil” iqtisodiyotga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish orqali insonning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish.

1.2.Barqaror rivojlanishni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotning o‘rni

XX asr oxiri va so‘nggi paytlarda yuz bergan turli xil inqirozlar butun dunyoda, O‘zbekistonda ham yuzaga kelgan iqtisodiy rivojlanish modelining beqarorligini ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Insoniyat iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi usullarini izlashga intilmoqda. 80-yillarning o'rtalarida - 90-yillarning boshlarida BMT tuzilmalari doirasida jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi konseptual yondashuvlari yuzaga keldi, xususan, yangi modellarni muhokama qilishga katta ta'sir ko'rsatgan ikkita yangi nazariya paydo bo'ldi: barqaror rivojlanish (sustainable development) va inson salohiyatini rivojlantirish (human development).

Iqtisodiy nazariyaning ijtimoiy va ekologik muammolariga yetarlicha e'tibor bermasligi iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy turi saqlanib qolishi sabablaridan biri bo'ldi.

“Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi jamiyat barqarorligini ta'minlash va inson yashash tarzini sifat jihatdan yaxshilash uchun ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof-muhit imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Butun dunyo hamjamiyati va BMT Bosh assambleyasi tomonidan

2015-yilning 25-sentyabrida “Barqaror rivojlanish” bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi : dunyo transformatsiyasi“ deb nomlangan rezolyutsiya Yer yuzi aholisi ravnaqi uchun dasturi bo'lgan harakat rejasi hisoblanib, uni barcha davlatlar o'zaro hamkorlikda amalga oshirishi ta'kidlandi. Buni amalga oshirish uchun dastlab, “barqaror rivojlanish“ tushunchasining nazariy-metodologik masalalarini chuqur o'rganish zarur bo'ladi.

“Barqaror rivojlanish” tushunchasini kengroq tadqiq qilish uni mintaqaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik tizimlarda joriy etishning oqilona mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Ma'lumki, “barqarorlik”, “barqaror rivojlanish” tushunchalarining nazariy asoslari texnika fanlarida (A. Lyapunov, 1892), so'ngra ekologiya, tabiatshunoslik fanlari doirasida (A. Tensli, Yu. Odum, F. Ouen) shakllangan.

“Barqaror rivojlanish” to'g'risidagi dastlabki paradigma 1915-yilda Kanada Atrof- muhit muhofazasi komissiyasi tomonidan

berilgan: “Har qaysi avlod tabiiy kapitalning ma’lum bir qismidan, ya’ni foizlaridan foydalanish huquqiga ega, shuning uchun tabiiy kapitalning asosiy qismi zarar yetkazilmagan holda keyingi avlodga yetkazilishi shart”. Bunga ko‘ra insoniyat tabiat boyliklarining foizlari hisobiga hayot kechirishi zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy fanlar tizimida “barqaror rivojlanish” konsepsiyasiga oid tadqiqotlarga 1962-yilda BMT Bosh assambleyasining “Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi” rezolyutsiyasi va Rim klubining 1972-yildagi “Predel rosta” (D.N. Medouz, D. L. Medouz, Yurgen Randers, Villiyam Berens) nomli ma’ruzasida tom ma’noda sabab bo‘lganligi manbalarda qayd etilgan. Aynan shu yili Stokgolm shahrida atrof- muhit muhofazasi bo‘yicha birinchi konferensiya bo‘lib o‘tgan edi. Ushbu anjumanda jahon iqtisodiyotida tabiiy resurslarning ayovsiz o‘zlashtirilishi va sanoatlashuvning jadal o‘sishi natijasida atrof-muhit halokatli holatga kelganligi va jahon taraqqiyotining yangi “barqaror rivojlanish” konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Natijada, ko‘pgina mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunlar qabul qilina boshlandi.

“Barqaror rivojlanish” ekologiyaga oid tushuncha, degan ilmiy gipotezalar aynan shu davrda shakllangan bo‘lib, bunday tor ma’nodagi tushuncha hamon saqlanib qolmoqda. Vaholanki, “barqaror rivojlanish” tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy va mintaqaviy tizimlarni rivojlantirishda atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, kelajak avlod ehtiyojlarini hisobga olgan hamda doimiy, bir tekis va muvozanatli iqtisodiy o‘shni ta’minlashni aks ettiradi.

“Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi jamiyat barqarorligini ta’minlash va inson yashash tarzini sifat jihatdan yaxshilash uchun ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof- muhit imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashni ko‘zda tutadi”. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy fanlar tizimining bugungi kundagi bosh masalasi “barqaror rivojlanish” g‘oyalarini o‘ziga singdiradi va shu asosda xo‘jalik yuritish mexanizmlarini joriy etishning nazariy yo‘nalishlarini ishlab chiqishdir.

“Barqaror rivojlanish” g‘oyalarining ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda dolzarblashuviga insoniyat va uning kelajak avlodlariga ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar turtki bo‘lganini qayd etish joiz.

Jumladan:

- atrof-muhit degradatsiyasi (o‘rmonlarning qisqarishi, cho‘llar va botqoqliklarning kengayishi, mahsulotlarning kimyoviylashuvi, hayvonot va o‘simlik olami turlarining yo‘qolib ketishi, turli kasalliklarning avj olishi, insonning umr ko‘rish davrining qisqarib borishi, kislotali yomg‘irlar, azon qatlamining yemirilishi, global iqlim o‘zgarishlari);

- tabiiy resurslardan foydalanishda samarali bo‘lmagan, tabiatga zarar yetkazuvchi texnologiyalarning qo‘llanilishi;

- rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida iqtisodiy tafovutning kengayib borishi;

- dunyo bo‘ylab qashshoqlik miqyosining kengayishi, boylar va kambag‘allar o‘rtasida tabaqalanishning ortib borishi;

- suv va oziq-ovqat yetishmovchiligi muammolarining avj olishi;

- dunyoda sodir bo‘layotgan turli nizolar.

Qayd etilgan muammolar global yekologik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda quyidagi beqarorlikni keltirib chiqarmoqda:

1.Ekologik tizimda atrof- muhitga antropogen ta’sirlar eng chekka halokatli nuqtaga yetib keldi.

Iqtisodiy o‘sish ↔ aholi soni ortib borishi ↔ resurslarni o‘zlashtirishning ortib borishi ↔ atrof-muhitning buzilishi inson genomi inqirozi ketma-ketligidagi o‘zaro aloqador ta’sirlar natijasida biosferada buzilishi kuzatilmoqda.

2.Ijtimoiy tizimda antropotsentrizm falsafasining ustuvorligi saqlanib turibdi, atrof-muhitni himoya qilish g‘oyalari to‘liq shakllangan va singdirilgan deb bo‘lmaydi, guruhlar manfaati umuminsoniyat manfaatlaridan ustuvor bo‘lmoqda, rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda aholi o‘sishi davom etishi

yashash sharoitlari o'rtasidagi farqni kengaytirmoqda, qashshoqlik va turli kasalliklarning ko'payib borishi kuzatilmoqda.

3.Iqtisodiy tizimda boylik orttirish g'oyalari ustuvorlik qilmoqda, iqtisodiy o'sish hamon ekstensiv shaklda qolmoqda, atrof-muhitga ta'sirlarning eng chekka me'yorlarini aks ettiruvchi iqtisodiy kriteriylar ishlab chiqilmagan.

Yuqorida qayd etilgan "Barqaror rivojlanish" g'oyalarining shakllanish bosqichlaridagi ilgari siljishlar 1983-yilda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiyasining tuzilishi bilan rivojlana bordi. Aynan shu davrda "barqaror rivojlanish"ning mezonlari ishlab chiqildi va nazariy-uslubiy asoslari boyitila boshladi. Masalan, 1987-yilda Norvegiya Bosh vaziri Gru Xarlem Brundland boshchiligida Xalqaro komissiyasining "Our Common Future" nomli hisoboti e'lon qilindi. Bu ma'ruzada "barqaror rivojlanish" kelajakka intilishning maqbul modeli ekanligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Xalqaro komissiyaning asosiy nazariy konsepsiyasi "tabiiy muhit-jamiyat-insoniyat" shaklidagi "barqaror rivojlanish" tamoyiliga asoslangani qayd etildi. Shuningdek, "barqaror rivojlanish" jarayonining ommaviylashuviga komissiya tomonidan berilgan ta'rifda inson ehtiyojlarining qondirilishi vazifasining amalga oshirilishi munozarali bo'lib qolmoqda. Ya'ni mazkur komissiya "Barqaror rivojlanish" shunday rivojlanish shakli, unga ko'ra inson ehtiyojlarini qondirish jarayonida keyingi avlod ehtiyojlarining qondirilish imkoniyatlari yo'qolishi xavfi kelib chiqmasligi kerak", deya ta'riflaydi. Aslida, inson ehtiyojlari cheksizligi, unga erk bermaslik kerakligi va uni ongli ravishda minimal darajada qondirish g'oyalari uzoq davrlardan beri ilmiy va diniy adabiyotlarda bayon etilgan.

Biroq bu g'oyalarning ishlab chiqarish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi, bozor iqtisodiy tizimi ma'lum bir ma'noda ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan iqtisodiy tizim va bu tizim faoliyat mexanizmiga yuqoridagi paradigma qanday ta'sir ko'rsatishi va uning oqibatlari qanday bo'lishiga oid savollar munozarali bo'lib qolmoqda.

D.S.Mill o'zining "Principals of Political Economy" nomli asarida iqtisodiyot va Yer sayyorasi imkoniyatlarining o'zaro bir-biriga moslashuvi masalasiga oid g'oyalarni ilgari surgan. U fanga inson va kapitalning "statsionar holati" tushunchasini kiritgan. Bunga ko'ra, inson ma'naviy va diniy barkamollikka erishishi uchun Yer sayyorasi imkoniyatlarini cheklab qo'ymaslik g'oyalari ilgari surilgan.

Tadqiqotchi G.Deyli barqaror jamiyatda energiya va xomashyolar iste'moli quyidagi uchta shart asosida amalga oshirilishini aytib o'tgan:

1. Qayta tiklanuvchi resurslar iste'moli tezligi darajasi ularning tiklanish tezligi darajasidan oshib ketmasligi shart;

2. Qayta tiklanmaydigan resurslar iste'moli tezligi darajasi ularning o'rni bosuvchi muqobilini tadqiq etish tezligi darajasidan o'tib ketmasligi zarur;

3. Turli chiqindilarni tashlash intensivligi darajasi tabiat tomonidan ularning yutilishi darajasidan oshib darajasidan oshib ketmasligi kerak.

Tadqiqotchi D.X.Medouz fikrliga ko'ra, barqaror jamiyat moddiy va miqdoriy o'sish bilan emas, rivojlanishning sifat jihatlari bilan tavsiflanadi. Muallif o'z asarida iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi farq mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Unga ko'ra, rivojlanish o'z holatini yaxshilash, ilm-fan yutuqlari yordamida imkoniyatlarini kengaytirish.

Miqdoriy o'sish va sifatli rivojlanish turli qonuniyatlarga bo'ysunadi. Joriy iqtisodiy tizim Yer sayyorasining bir bo'lagi va bu tizim yer qonuniyatlariga moslashmog'i zarur, deya fikr bildirdi. Shuningdek, tadqiqotchining fikricha, iqtisodiy o'sishga oid qaror qabul qilishga o'sish zaruriyati, kimlar yutuqqa erishishi va uning davomiyligi, ijobiy, salbiy oqibatlariga oid savollarini o'rtada muhokama qilish zarur. Hattoki, qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanishni to'xtatish kerakligini va uning o'rniga Yer sayyorasi in'om qilayotgan tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish hamda

kelajak avlodga resurs turlarini ko‘proq saqlab qolish zarurligini aytib o‘tgan.

Demak, **“barqaror rivojlanish”** - jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli. Butun dunyo hamjamiyatining Yoxannesburg shahrida 2002-yilda bo‘lib o‘tgan “Barqaror rivojlanish” sammitidagi kelishuviga ko‘ra, 2005-yildan boshlab dunyo mamlakatlari “barqaror rivojlanish” bosqichiga o‘ta boshlaydi. Har bir mamlakat sammitda kelishilgan reja asosida barqaror rivojlanishga erishish uchun aniq normativ va qonunlar yuzasidan o‘zaro hamjihat harakatlarni va institutsional bazani shakllantirish hamda mustahkamlashga oid tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini olgan.

Shuningdek, dunyoning 193 davlati 2015-yilda BMT doirasida “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development” (Barqaror rivojlanish 2030 kun tartibi: Dunyo transformatsiyasi) deb nomlangan kelishuvga erishishdi. Ushbu hujjat barqaror rivojlanishga erishishning 17 ta maqsadi va undan kelib chiqib, 169 ta vazifasi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida “Barqaror rivojlanish” bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining “Barqaror rivojlanish” maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qaroriga asosan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar belgilandi.

1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta‘minlanganlik darajasini pasaytirish.

2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish.

3-maqсад. Sogʻlom turmush tarzini taʼminlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga koʻmaklashish

4-maqсад. Umumqamrovli va adolatli sifatli taʼlimni taʼminlash hamda barchaga butun umri davomida taʼlim olish imkoniyatini ragʻbatlantirish.

5-maqсад. Gender tenglikni taʼminlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.

6-maqсад. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni taʼminlash.

7-maqсад. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini taʼminlash.

Dunyo mamlakatlari 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab ularni amalga oshirishi uchun milliy uslubiyot va dasturlar ishlab chiqilishi koʻzda tutilgan.

“Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi jamiyat barqarorligini taʼminlash va inson yashash tarzini sifat jihatdan yaxshilash uchun ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof-muhit imkoniyatlari oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashni koʻzda tutadi.

“Barqaror rivojlanish” gʻoyalarining dolzarblashuviga insoniyat va uning kelajak avlodlariga tahdid qiluvchi ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar turtki boʻlganini qayd etish joiz.

Jumladan:

tabiiy resurslardan foydalanishda tabiatga zarar yetkazuvchi texnologiyalarning qoʻllanilishi;

Yer sayyorasida oʻrmon maydonlarining qisqarib borayotganligi; dunyo mamlakatlarida iqlimning keskin oʻzgarib borishi;

dunyo mamlakatlarining rivojlanish darajasida iqtisodiy tafovutning kengayib borishi;

suv va oziq-ovqat yetishmovchiligi muammolarining avj olishi; dunyoda sodir boʻlayotgan ekologik, siyosiy va boshqa nizolar;

tabiiy resurslardan foydalanishda tabiatga zarar yetkazuvchi texnologiyalarning qoʻllanilishi;

Yer sayyorasida oʻrmon maydonlarining qisqarib borayotganligi; dunyo mamlakatlarida iqlimning keskin oʻzgarib borishi; dunyo mamlakatlarining rivojlanish darajasida iqtisodiy tafovutning kengayib borishi.

Qayd etilgan muammolar global ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda beqarorlikni keltirib chiqarmoqda va dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qoʻyayotganligi, eng avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvini kuzatyapmiz. Ekspertlar vaziyatni oʻnglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy etish zarurligini taʼkidlamoqda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham oʻz ifodasini topgan.

Anʼanaviy rivojlanish modelining beqarorligi iqtisodiyotni transformatsiya qilishning yangi rivojlanish konsepsiyasini izlab topishga yoʻl ochmoqda. Iqtisodiy oʻsishning anʼanaviy modelidan “yashil” iqtisodiyotga oʻtish koʻplab davlatlarning maqsadi, global ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Demak **“Yashil” iqtisodiyot** – sayyoramiz ekologiyasini saqlagan holda, yangi bilim va resurstejamkor texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirishga asoslangan yangi modeldagi kelajak iqtisodiyoti hisoblanadi.

Barqaror rivojlanish gʻoyalarining dolzarblashuviga insoniyat va uning kelajak avlodlariga tahdid qiluvchi ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar turtki boʻlganini qayd etish joiz.

Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi yaqin oʻn yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish koʻzda tutilgan.

1.3.”Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Odatda iqtisodiy va ekologik inqirozlar bir xil manbadan kelib chiqadi va bir-biriga katta ta'sir o'tkazadi. Chunki hozirgi iqtisodiy model ekotizimlarni hisobga olmagan holda, atrof-muhit va jamiyatga olib keladigan oqibatlarni o'ylamasdan qisqa muddatli foyda olishga intilmoqda.

Globallashuv sharoitida bozor iqtisodiyotidagi muvaffaqiyatsizliklari tufayli iqtisodiyotda duch kelayotgan muammolarga javoban xavflar oldini olishga qaratilgan yangi - "yashil" iqtisodiyot tendensiyasi paydo bo'ldi. Ushbu yangi iqtisodiy tafakkur so'nggi yillarda jahon jamiyati rivojlanishiga to'sqinlik qilgan turli inqirozlarni hal qilish strategiyalarini izlashga qaratilgan iqtisodiyot hisoblanadi.

Masalan, iqlim o'zgarishining oqibatlari, oziq-ovqat taqchilligi, pandemiya tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va moliyaviy inqiroz va qashshoqlikka qarshi kurashning sustligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhitni muhofaza qilish dasturida(YUNESEF) "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini belgilashda muhim omillardan hisoblanadi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi - bu shunday modelki, u aholining sog'lig'i va ijtimoiy tengligini yaxshilashga, shuningdek atrof-muhitga zararli ta'sirlarning sezilarli darajada kamayishi va ekologik taqchilikning pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, "yashil" iqtisodiyot o'zining eng sodda ko'rinishida kam uglerod sarflaydigan, resurslarni tejaydigan va iqtisodiyotning ijtimoiy inklyuziv modeli sifatida qaralishi mumkin.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining maqsadi -barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof- muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasini vazifalalini butunlay bajarmaydi, biroq barqarorlikka erishishda iqtisodiy olishga asoslangan model nisoblanadi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda barqarorlikka erishish uchun "jigarrang" iqtisodiyot modelini o'zgartirish zarurligi e'tirof etilmoqda. Bunda barqaror rivojlanish nazariyasi uzoq muddatli maqsad bo'lib qolmoqda va unga erishishda iqtisodiyotni yashillashtirishni talab qiladi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi 1984-yilda Pirs, Markandya va Barbiyer kabi olimlarning "Yashil iqtisodiyot uchun loyiha" kitobida tadqiq qilingan. Ular yashil iqtisodiyotni "Tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishda "Kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavflar va inqirozga olib kelmaydigan va inson farovonligini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat tizimi", deb ta'riflaydilar. Biroq, bu konsepsiyaga Rio+20 gacha global e'tibor berilmadi.

1992-yilda BMTning Rio-de-Janeyrodagi konferensiyasida xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori darajada barqaror rivojlanishni ta'minlash manfaatlari yo'lida global hamkorlikni belgilab beruvchi "XXI asr kun tartibi" qabul qilindi.

"Yashil" iqtisodiyotning bosh vazifasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarini ekologik standartlarga mos tarzda o'zgartirishdan iborat.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi quyidagi besh tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Inson farovonligini yaratish va undan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
2. Insonlar orasida iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlash.
3. Tabiatni muhofaza qilish va qayta tiklash;

4. Iste'mol va ishlab chiqarishning kam uglerodli, resurslarni tejaydigan, xilma-xil va barqaror shakllariga o'tishni qo'llab-quvvatlash;

5. Inson farovonligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida jamiyat manfaatlariga mos keladigan moliyaviy tizimni shakllantirish.

ESLATMA

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini shakllantirish asoslari o'tgan asrning 80-yillari oxirida barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yaratilgan. Barqaror rivojlanishning ko'plab ta'riflari mavjud, BMT komissiyasi tomonidan 1987-yilda taklif etilgan eng keng tarqalgan va umumqabul qilingan ta'rif hisoblanadi: "Barqaror rivojlanish - bu shunday rivojlanishki, u bo'lajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlariga tahdid solmay, hozirgi avlod ehtiyojlarini ta'minlaydi".

“Barqaror rivojlanish” quyidagi uchta mezonni o'z ichiga oladi - iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik. Ushbu mezonlarning har biriga nisbatan barqarorlik talablariga amal qilingan taqdirdagina, umuman, barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda tabiiy muhitga ishlab chiqarish faoliyatining yetkazadigan zarari iqtisodiyot va atrof-muhit o'zaro ta'siri asosida o'rganila boshlandi. Ishlab chiqarish faoliyati natijasida suv, havo, tuproq va biologik xilma-xillik resurslarida ifloslanish jarayonlarini keltirib chiqaradi va ijtimoiy dinamikaga ta'sir qiladi. Iqtisodiy faoliyatning zararli ta'sirini nazorat qilish, minimallashtirish va oldini olish bo'yicha davlat va ijtimoiy tashabbuslar tomonidan bir qator harakatlar va qoidalarga erishishda yanada barqaror va ekologik mas'uliyatli alternativalar sifatida, yashil iqtisodiyot sifatida tanilgan.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi “ekologik iqtisodiyot” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu atama “yashil iqtisodiyot”ning ispancha tarjimasidan kelib chiqadi.

2008-yil oxirida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi – UNEP tomonidan “yashil sektorlar”ni rag‘batlantirish va loqaydlikni o‘zgartirish uchun investitsiya siyosati qabul qilingan. Bu dastur iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhit bilan uyg‘unlashtirilgan yashil sektorlarni tahlil qilish, qo‘llab-quvvatlashga asoslangan keng qamrovli amaliy ish mexanizmi sifatida taqdim etildi.

Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) sifatida “yashil” iqtisodiyot g‘oyasi 2008-yilda butun dunyo iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi ("issiqxona effekti" chiqindilarining ko‘payishi va atrof-muhit muvozanatining yo‘qolishi), yoqilg‘i inqirozi (2007-2008 yillarda yoqilg‘i narxining zarbasi), oziq - ovqat (oziq - ovqat narxlari va nafaqalarning oshishi, ma'lum hududlarda oziq - ovqat tanqisligi), suv inqirozi (suv tanqisligi) va 2008-2009 yillardagi eng og‘ir moliyaviy inqiroz va global iqtisodiy tanazzul kabi bir qator inqirozlarga duch kelganida qabul qilingan. Bu tushuncha aniq ta’rifga ega emas.

Ispaniyada “Fundacio Forum Ambiental de Catalunya” kabi ta’riflar mavjud bo‘lib, bu yerda yashil iqtisodiyot muammolarining oldini olish, ularni yumshatish yoki to‘g‘rilash vaqtida antropik faoliyat natijasida tabiiy tizimlarda hosil bo‘ladigan yoki tuzatishga qaratilgan kampaniyalar va iqtisodiy faoliyatlar to‘plami sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi” xalqaro tashkilotlar tashabbusidan kelib chiqqanini hisobga olish kerak.

“Yashil” iqtisodiyot uchta asosiy strategiyaga tayanadi:

- uglerod chiqindilarini kamaytirish;
- energiya samaradorligini oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarini yo‘qotishning oldini olish, ushbu strategiyalarni amalga oshirish

uchun davlat va xususiy darajadagi investitsiyalar orqali qo'llab-quvvatlash lozim. Bu borada siyosiy va me'yoriy-huquqiy islohotlar zarur. Shuning uchun jamiyatning ayrim tarmoqlari rivojlanishiga bog'liq bo'lgan iqtisodiy va jamoat manfaatlari sifatida tabiiy kapitalni saqlab qolish, mustahkamlash va kerak bo'lganda, qayta qurish muhim ahamiyatga ega.

"Yashil" iqtisodiyotning aksariyat talqinlarida ekotizimlar, iqtisodiyot, inson farovonligi va unga tegishli kapital turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi tan olinadi. BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) "yashil" iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshiruvchi, atrof-muhitga salbiy ta'sirini va ekologik tanazzul xavfini sezilarli darajada kamaytiruvchi vosita sifatida ta'riflaydi.

IHTT tabiiy boyliklarning miqdori va sifatiga ta'sir qilmasdan va "yashil" iqtisodiyotga o'tganda paydo bo'ladigan o'sish salohiyatidan foydalanadigan iqtisodiy o'sish va rivojlanishni maksimal darajada ta'minlash sifatida ta'rif berib, "yashil o'sish" konsepsiyasini ishlab chiqdi va joriy qildi, ya'ni **"yashil o'sish"** - bu "yashil" sharlarga bo'ysunadigan va o'sishni yangi dvigatellari sifatida "yashil" sektorlarga urg'u beradigan YalMning o'sishidir.

"Yashil o'sish" mehnat bozori uchun ham muammoni, ham imkoniyatni o'zida ifodalaydi, bu esa o'z navbatida, "yashil o'sish"ning asosiy harakatlantiruvchisiga aylanishi mumkin. Javob choralari dinamikasi va mehnat bozorlarining yaxshi faoliyat ko'rsatishi "yashil" va resurslarni tejovchi iqtisodiyotga o'tishni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Barqaror iqtisodiyotga o'tish ishga joylashish va ishchilarning kasbiy yo'nalishlarida o'zgarishlarga olib keladi, ularning ayrimlari juda jiddiydir.

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar kabi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar barqaror rivojlanish kafolati bo'lmoqda. Albatta, bu islohotlarning huquqiy

asoslari Konstitutsiyamizda belgilab berilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 50-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlar”, deb ko‘rsatilgan. Bu esa fuqarolarning yer, suv, o‘rmon, yer osti boyliklari, hayvonot, o‘simliklar dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishni, ularni tiklash va muhofaza qilishni hamda ushbu majburiyatni o‘z vaqtida bajarishni taqozo etadi.

Ushbu holat ekologik sohaga oid barcha qonunlarda ham aniq tarzda o‘z ifodasini topgani konstitutsiyaviy talablarni yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, Asosiy qonunimizning 49- 68-moddalarida ham yuridik va jismoniy shaxslarga atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vazifasi yuklatilgan.

49-modda.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.

68-modda.

Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy me'yorlar asosida ekologiya, atrof-muhit, aholi salomatligini muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha o'ttizdan ziyod qonun va uch yuzga yaqin qonunosti hujjat qabul qilindi. Joriy yil davlat dasturida ham ekologik va ijtimoiy rivojlanish sohasida zalvorli vazifalar belgilangan. Xususan, majmuaviy, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari shular jumlasidandir. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida hukumat sanoat rivojini ekologiyaga ta'sirining oldini olish bo'yicha 2025-yilgacha mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishini, shuningdek, nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqishi lozimligini qayd etgan edi. Shu asosda ekologiya kodeksi loyihasi ishlab chiqildi va bugungi kunda keng jamoatchilik ishtirokida muhokamalardan o'tkazilmoqda.

Bugungi kunga qadar O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi o'n bitta xalqaro konvensiya, bitim va ular doirasidagi yettita ko'p tomonlama xalqaro shartnomaga qo'shildi. Jumladan, Parij bitimini ratifikatsiya qilgan tomon sifatida 2030-yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan 10 foiz qisqartirish bo'yicha majburiyat olgan. Shundan kelib chiqib, davlat dasturining tegishli bandiga muvofiq, O'zbekistonning Parij bitimiga qo'shilishi munosabati bilan "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha davlat strategiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatimizda bu

yoʻnalishda ekologik sof, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish boʻyicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soʻnggi yillarda Orolboʻyi hududida bir nechta loyiha bajarildi. Buning natijasida Orol dengizining qurib qolgan hududida saksovul va choʻlga chidamli boshqa oʻsimliklar ekildi. Moʻynoq shahri infratuzilmasi keskin yaxshilandi.

Oʻzbekistonda 2019-2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga oʻtish konsepsiyasi qator vazifalarni oʻz ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi koʻrsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan koʻprogʻiga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan taʼminlash koʻzda tutilgan.

Bundan tashqari, sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam boʻlmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini taʼminlash moʻljallangan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va rivojlantirish nazarda tutilgan boʻlib, umumiy energiya ishlab chiqarish salmogʻida ushbu ekologik toza energiya ulushini 12 foizga yetkazish belgilangan.

Shuningdek, “aqlli” qishloq xoʻjaligi tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilatib sugʻorish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40 foizgacha koʻpaytirish koʻzda tutilgan. Oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash maqsadida yerlarning tanazzulga uchrashi boʻyicha neytral balansga hamda asosiy turdagi qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab

chiqarishning oʻrtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishish moʻljallangan.

Bugungi kunda suv va suvdan foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashtirish maqsadida Suv kodeksini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Chiqindilarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslarini taʼminlab beruvchi “Chiqindilar toʻgʻrisida”gi qonunning yangi tahriri tayyorlanmoqda. Ushbu hujjatda qayd etilgan qishloq va suv xoʻjaligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish, “yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini taʼlim va fanga integratsiya qilish muhim vazifalardan biridir.

Nazorat savollari

1. “Yashil” iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. “Yashil” iqtisodiyot fani qachon paydo boʻldi?
3. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtishning zaruriyati nimada?
4. “Yashil” iqtisodiyot bilan jigarrang iqtisodiyotning qanday farqi bor?
5. Oʻzbekiston davlatida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish uchun qanday harakatlar amalga oshirilmoqda?
6. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtishdan koʻzlangan maqsad nima?
7. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtish qanday tamoyillarga asoslanadi?

2 BOB. “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHNING ZARURIYATI, TAMOIYILLARI VA DASTAKLARI

2.1. Resurslarning cheklanganligi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish

Resurslar (fransuzcha: ressource — yordamchi vosita) - pul mablag‘lari, boylik, zaxira, imkoniyatlar; davlat byudjetida daromad manbalari, tabiiy, iqtisodiy, mehnat, valyuta va boshqa resurslar bo‘lishi mumkin. Keng ma’noda - jamiyat hayotida ishlab chiqarishni ta’minlashning vositalari, manbalarini ifodalaydigan iqtisodiy resurslar muqim o‘rinda turadi.

Iqtisodiy resurslar tabiiy (xomashyo, suv, o‘rmon), mehnat ("inson kapitali"), aylanma mablag‘lar (materiallar), axborot, moliya (pul kapitali) resurslariga bo‘linadi.

Top ma’noda — iqtisodiy resurs xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan, shu jumladan, yuqorida sanab o‘tilgan resurslarni ham qamraydigan omillar majmuini bildiradi.

Resurslar tiklanadigan, yana qayta hosil qilish mumkin bo‘lgan (ishchi kuchi, jihoz, uskunalar) va tiklanmaydigan (masalan, xomashyolar — neft, ko‘mir, gaz, rudali konlar) resurslarga hamda ishlab chiqarish va mahsulot iste’moli chiqindilari bo‘lgan ikkilamchi resurslarga (dastlabki ishlatishdan keyin ishlab chiqarishda asosiy xomashyo yoki mahsulot tarzida foydalaniladigan materiallar va buyumlar)ga bo‘linadi. Bunday resurslar qo‘shimcha moddiy-texnika resurslar manbai hisoblanadi. Valyuta resurslari, ya’ni erkin almashtiriladigan chet el valyutasi zaxiralari va uning tushum manbalari ham resurslarga kiritiladi.

Resurslar cheklanganligi — jamiyat hayotida ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan resurslarning cheklanganligi va tiklanmaydigan resurslarning tobora kamayib borishi.

Resurslarning cheklanganligi umumiy hodisa bo‘lib, inson ehtiyojlarining cheksizligi bilan resurslarining cheklanganligi

o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning azaliy muammosidir. Ekiladigan yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, mehnatga yaroqli aholi sonining cheklangan bo'lishi, energiya resurslarining yetishmasligi va boshqalarda ko'rinadi.

Masalan, keyingi 200 yil ichida Yer kurrasida iste'molchilar soni 5 marta ko'paydi, ammo yer sathi, tabiiy boyliklar ko'paygani yo'q. Yer kurrasining 72%i okeanlardan iborat, ammo quruqlikning talay qismida yashab bo'lmaydi.

Resurslar cheklanganligi hodisasi ishlab chiqarishda resurslarni tejovchi texnologiyalarni yaratishga turtki beradi, resurslar sarfining eng tejimli usullari tanlanadi, mahsulot birligini yaratish uchun ketadigan resurs sarflari qisqartiriladi, ehtiyojlarni qondirishning oqilona darajasiga amal qilinadi.

Ishlab chiqarishning pirovard maqsadi iste'mol ya'ni ehtiyojni qondirish hisoblanadi. Insonning yashashi va kamol topishi, jamiyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalar va iqtisodiy resurslarga bo'lgan zaruriyat "ehtiyoj" deb ataladi.

Jamiyat ehtiyojlari kishilar ya'ni jamiyat a'zolari, korxonalar va davlat ehtiyojlarining birligidan iborat. Ehtiyojlarning bu barcha turlari uchun umumiy bo'lgan xususiyat - ular cheksiz va chegarasizdir. Jamiyat ehtiyojlarida kishilarning ehtiyojlari asosiy va belgilovchi rol o'ynaydi.

Kishilarning barcha hayotiy ehtiyojlari (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy ehtiyojlar) orasida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlardan hamda xizmatlardan iborat bo'ladi.

Jamiyat ehtiyojlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- **jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi.** Iqtisodiyoti rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlarda ehtiyojlar doirasi tor bo'lsa, aksincha, iqtisodiyoti gurkirab rivojlangan mamlakatlarda keng va xilma-xil bo'ladi;

-jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim. Agar jamiyatdagi tizim bozor iqtisodiyoti tartiblari asosida qurilgan bo'lsa, undagi ijtimoiy guruhlar boylar va kambag'allar, mulkdor va mulksizlarga bo'linib, ularga mansub kishilar ehtiyojlari o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi. Yuqori daromad oluvchilar juda sifatli, noyob mahsulotlar va xizmatlarga ehtiyoj bildirsa, kambag'allarning ehtiyojlari o'z hayotini saqlash uchun juda zarur mahsulotlar va xizmatlar bilangina cheklanadi;

-tabiiy-geografik sharoitlar. Bu omil ham ehtiyojlarning miqdori va tarkibiga ta'sir qiladi. Masalan, nisbatan sovuq iqlim sharoitida, issiq iqlim sharoitiga qaraganda hayot kechirish uchun oqsil va yog'ga boy oziq-ovqat, issiq kiyim-kechak, uy va transport vositalariga ko'proq ehtiyoj bo'ladi;

tarixiy-milliy an'analar va urf-odatlar, tarixan shakllangan milliy va diniy marosimlar, urf-odatlar. Jumladan, Navro'z bayrami, ro'za va hayitlar o'ziga xos ehtiyojlarni yuzaga keltiradi;

aholi sonining o'sishi, uning tarkibidagi o'zgarishlar;

xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, ular o'rtasidagi mahsulot va axborot ayirboshlashning rivojlanishi.

So'nggi yillarda ekologiya buzilishi (iqlim o'zgarishi, cho'llashish, bio xilma-xillikning yo'qotilishi), tabiiy kapitalning tugab borayotganligi, kambag'allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiya yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir.

Global inqirozlarning barchasi ish o'rinlarining qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

Dunyoning bugungi qiyofasi, tiklab bo'lmas ekologik falokatlar va atrof-muhitga yetkazilayotgan ulkan zararlar "yashil" iqtisodiyotga

o'tish zarurligini taqozo etadi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, jahondagi yetakchi mamlakatlar allaqachon "yashil" iqtisodiyotga o'tish ishlarini boshlab yuborganliklarini ko'rishimiz mumkin.

“Yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanishning o'rnini bosa olmasligini, balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi yo'l ekanligini allaqachon anglab etishgan.

Resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o'z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo'lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo'lishlari lozimligida namoyon bo'ladi.

ESLATMA

Resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirishga obyektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o'z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo'lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo'lishlari lozimligida namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda inson farovonligini oshirish, resurslarni saqlash va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga duchor qilmaslikni ta'minlaydigan iqtisodiy modelga o'tish zarurati dolzarbdir. Biz iqtisodiy farovonlikka va kelajak avlodni iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga, ekologik xavflarga qo'ymaslikka faqatgina birdamlikda erishishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda turmush farovonligini oshirish, resurslarni saqlash va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlarga duchor qilmaslikni ta'minlaydigan iqtisodiy modelga o'tish zarurati nihoyatda dolzarbdir.

2.2."Yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillari

Resurslarni ko'p talab qiladigan eski model xarajatlarning oshishiga va unumdorlikning pasayishiga olib keladi. Davom etayotgan inqirozlar resurslarni ko'p talab qiladigan eski model natijasidir va nihoyat, "yashil" iqtisodiyotning yangi modeli g'oyasi shakllanmoqda. Ushbu model moddiy farovonlik, ekologik xatarlar, ekologik yetishmovchilik va ijtimoiy tengsizlik ortishi hisobiga ta'minlanmaydi.

Butun sayyoramizni qamrab olgan global ekologik muammolarni hal etishda barcha mamlakatlar kuchini birlashtirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1972-yilda UNEP (United Nations Environment Programme - BMTning Atrof-muhit Dasturi)ga asos soldi. Ushbu dastur butun tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

UNEPning asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdir. Dastur shiori -"Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun".

UNEP shtab-kvartirasi Keniyaning Nayrobi shahrida joylashgan. Shuningdek, UNEPning oltita yirik vakolatxonasi va turli mamlakatlarda mintaqaviy vakolatxonalari ham mavjud. UNEP global va mintaqaviy darajadagi barcha ekologik muammolarni hal qilish uchun javobgar tashkilotdir.

UNEP faoliyati Yer atmosferasi, dengiz va quruqlik ekosistemalari sohasidagi turli loyihalarni o'z ichiga oladi. UNEP ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro

konvensiyalarni ishlab chiqishda ham muhim rol o'ynaydi. UNEP tez-tez hukumatlar va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. UNEP ko'pincha atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalariga homiylik qiladi va ularni amalga oshirishga yordam beradi.

UNEP, shuningdek, potensial xavfli kimyoviy moddalar, transchegaraviy havo ifloslanishi va xalqaro yuk tashish yo'llarining ifloslanishi kabi masalalar bo'yicha ham tavsiyalar va xalqaro hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Dastur biologik xilma-xilligini saqlab qolish, biotexnologiyalardan ekologik xavfsiz foydalanish, xavfli chiqindi va zaharli moddalarni ekologik xavfsiz saqlash, atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashish bo'yicha turli mamlakatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

UNEP Boshqaruv Kengashi 2012-yilgacha to'rt yillik muddatga saylangan 58 shtatdan iborat bo'lgan. Kengashdagi o'rinlar geografik jihatdan taqsimlangan. Boshqaruv Kengashining roli BMTning turli xil ekologik dasturlari bo'yicha ishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va BMTga a'zo davlatlar o'rtasida atrof-muhit masalalari bo'yicha hamkorlik g'oyalarini tarqatishdir.

UNEP kotibiyati 890 nafar xodimdan iborat bo'lib, ulardan 500 ga yaqini boshqa mamlakatlardan shartnoma asosida ishlaydi. Kotibiyat UNEPning turli siyosat va dasturlarini amalga oshirishni nazorat qiladi. Kotibiyat byudjetni taqsimlash bilan ham shug'ullanadi. Byudjet miqdori qariyb 105 million AQSH dollarini tashkil etadi va bu pullar UNEPga a'zo davlatlarning a'zolik badallaridan yig'iladi.

UNEP faoliyatini quyidagi yetti yo'nalishda amalga oshiradi:

- turli konfliktlar haqida ogohlantirish va mojarolarni baholash;
- ekologik siyosatni amalga oshirish;
- texnologiya, ishlab chiqarish va iqtisodiyot;
- mintaqaviy hamkorlik;
- ekologik qonunlar va konvensiyalar;

global darajada atrof-muhitni muhofaza qilish Aloqa va ommaviy axborot.

UNEP faoliyati samarali natijalar berishi uchun maxsus usul ishlab chiqilgan.

Avval ekologik muammolar hamda ularni yechish uchun qoilanayotgan choralar to'g'risida axborot yig'iladi, yetishmovchiliklar va amalga oshirishdagi kamchiliklar aniqlanadi va shuningdek, vaziyatni tiklash uchun qanday tashkilotlar jalb qilinishi kerakligi belgilanadi. Keyin esa Dasturning maqsad va strategiyasi belgilanadi, amaliy tadbirlar ishlab chiqiladi. Ushbu dastur xalqaro, hukumat va nohukumat tashkilotlari darajasida muhokama uchun taqdim etiladi. Va nihoyat, yakunlovchi bosqichda, atrof-muhit jamg'armasi tomonidan qo'llanadigan tadbirlar tanlab olinadi.

UNEPda juda yaxshi axborot xizmati-"Infoterra" bor. U BMTning hamma a'zo davlatlarini barcha yo'nalishlar bo'yicha axborot bilan ta'minlaydi, ekologik qabul qilish uchun kerakli ma'lumotlar taqdim etadi. Bu o'z ilmiy tadqiqotlarini o'tkazish uchun yetarli mablag'i boimagan mamlakatlarga juda qoi keladi.

UNEPning bosh qarorgohi Afrika qit'asidagi Keniya davlati poytaxti-Nayrobida joylashgan.

Butunjahon meteorologiya tashkiloti UNEP bilan birgalikda 1988-yilda Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panelni (IPCC) tashkil etgan. UNEP, shuningdek, Global ekologik fondning (GEF) homiylaridan biri hisoblanadi. UNEP homiyligida har yili Butunjahon atrof-muhit kuni nishonlanadi.

Yuqorida qayd etilganidek, jahonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi 2008-yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo'lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi(2.1-jadval).

2.1-jadval

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan tamoyillar

№	UNEP "yashil" iqtisodiyotining asosiy tamoyillari
1.	Barqaror rivojlanishni ta'minlash
2.	Tenglikni ta'minlash Adolatlilik tamoyili
3.	Odamlar farovonligini oshirish Qadr-qimmat tamoyili
4.	Tabiiy muhitni yaxshilash - Yerning yaxlitligi, sayyoraviy chegaralar oldini olish Ogohlantiruvchi tamoyili
5.	Har tomonlama va jamoaviy qarorlar qabul qilish Inkluzivlik tamoyili
6.	Hisobot brrish Boshqarish tamoyili
7.	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni shakllantirish Barqarorlik tamoyili
8.	Barqaror va ishlab chiqarish va iste'molni ta'minlash Samaradorlik tamoyili
9.	Kelajakka sarmoya kiritish Avlodlararo munosabat tamoyil

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo‘lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil” iqtisodiyot tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot mavjud resurslardan tejamkorona foydalangan holda har tomonlama zararsiz ishlab chiqarish jarayonini

yo'lga qo'yish hamda ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tizimdir.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni keng joriy etish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, turli xil ekologik muammolarni bartaraf etish, aholining eko-savodxonligini oshirgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bu yunalishni shakllantirish va rivojlantirish uchun tamoyillari joriy etish lozim.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning tamoyillari quyidagilar:

- tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada rivojlantirish va havo, suv, tuproqni boshqarish va chiqindilarni boshqarish ma- salalarida ilg'or tajribalarni qo'llash;

- organik qishloq xo'jaligi sektorini kengaytirish, mamlakatda organik mahsulot uchun sertifikatlar joriy etish va organik mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish;

- yuqori tadqiqot salohiyatiga asoslangan ekologik innovatsion yechimlarni targ'ib qilish;

- iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashtirish choralarini qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilik va iqtisodiy vositalardan foydalanish;

- shaharlarda energiya samaradorligini oshirish choralarini joriy etish;

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va "yashil" ish o'rinlarini yaratish.

BMTning "Barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio+20" konferensiyasi oldidan BMT Bosh kotibining global barqarorlik bo'yicha yuqori darajadagi guruhining **"Yashash uchun kurashuvchan insonlarning barqaror sayyorasi: biz tanlaydigan kelajak"** ma'ruzasida "barqaror rivojlanishning yangi siyosiy iqtisodiyotini" rivojlantirish zarurligi qayd etilgani tasodif emas, bu

barqaror rivojlanish paradigmasini global iqtisodiy munozaralarning markaziga olib chiqadi'.

2.3.”Yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosatining dastaklari

Yashil iqtisodiyot dastaklarini yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish va yengillashtirishga qaratilgan umumiy qoidalar va siyosiy chora tadbirlarni tushunish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqida “yashil” iqtisodiyot dastaklarini va vositalari o‘rtasida aniq chegaralar mavjud emas.

Tavsiya sifatida qabul qilingan yashil iqtisodiyot dastaklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

institutsional tuzilma va boshqaruv tizimi (organlar va tashkilotlar tizimi);

qonunchilik (atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari, yangi qonun hujjatlarini jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish t);

innovatsion siyosat (yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash);

kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosatining dastaklari - bu butun ekologik siyosatni amalga oshirishga yordam beradigan majburiy va rag‘batlantirish choralari tizimi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosatining dastaklarining iqtisodiy mexanizmi quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi :

ekologik faoliyatni rejalashtirish va moliyalashtirish;

tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari chegaralarini belgilash va boshqa turdagi zararli ta'sirlar uchun to‘lov me'yorlari va miqdorlarini belgilash;

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek, fuqarolarga kam chiqindi va resurslarni tejovchi texnologiyalar hamda energiyaning noan'anaviy turlari joriy etilganda soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqa samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

atrof-muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararning o'rmini belgi

Atrof-muhitni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmining elementlariga quyidagilar kiradi:

tabiiy resurslarni rejalashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish;
ekologik moliyalashtirish;

atrof-muhitni boshqarish uchun to'lovlar;

ekologik sug'urta;

iqtisodiy rag'batlantirish choralari.

"Yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda Orxus konvensiyasi va Espo konvensiyasi kabi dastaklardan foydalaniladi.

Orxus konvensiyasi fuqarolar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining atrof-muhit masalalarini hal etishda rollarini oshirish maqsadida qabul qilinadi va partisipativ demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

Orxus konvensiyasi fuqarolar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining atrof-muhit borasidagi bir qator huquqlarini belgilaydi.

Konvensiya tomonlari davlat organlari milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda mazkur huquqlarning amalga oshirilishiga ko'mak berishlari uchun zaruriy chora-tadbirlarni ko'radi.

Orxus konvensiyasida quyidagilar nazarda tutiladi:

Ekologiya to'g'risidagi axborotni olish huquqi:

Fuqarolarning davlat organlari tasarrufida bo'lgan ekologik axborotni olish huquqi

Atrof-muhitga doir masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki:

Fuqarolarning atrof-muhit holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin

boʻlgan reja va dasturlar, strategiya va qonunchilikni ishlab chiqishda ishtirok etish huquqi.

Adolatli suddan foydalanish huquqi:

Fuqarolarning axborotdan foydalanish yoki jamoatchilik ishtiroki borasidagi huquqlari poymol etilgan holatlarda ishini koʻrib chiqish protseduralarida ishtirok etish huquqi.

Orxus konvensiyasi tamoyillari demokratik qadriyatlar va soʻz erkinligi va axborot olish huquqi bilan chambarchas bogʻliq.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) bilan yaqin hamkorlikda ishlovchi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT) transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga taʼsirni baholash toʻgʻrisidagi BMT YEIK konvensiyasi (Espo konvensiyasi) davlatlardan tijorat loyihalarining atrof-muhitga taʼsirini baholashni talab qiladigan xalqaro shartnoma boʻlib, agar bunday loyihalar boshqa davlatning atrof-muhitiga taʼsir qilishi mumkin boʻlsa. Uning toʻliq nomi 1991-yilda Espoo shahrida (Finlyandiya) imzolangan Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga taʼsirni baholash toʻgʻrisidagi konvensiyadir. Bugungi kunga qadar Espo konvensiyasi 44 davlat va Yevropa Ittifoqiga majburiyatlarni yuklaydi.

2022-2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy oʻsishni taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishga qaratilgan. Jumladan:

1. “Yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish:

texnologik ehtiyojlarni baholash, ustuvor vazifalarni belgilash va eng muhim texnologiyalarni tanlash, ularni ishlab chiqish/transferga koʻmak berish;

“yashil” texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar — texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish.

2. “Yashil” iqtisodiyot sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:

Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi normativ-huquqiy bazani inventarizatsiya qilish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

iqtisodiy choralar va vositalar ishlab chiqish, xususan, issiqxona gazlarining ajratmalarini qisqartirganlik uchun haq to‘lashni joriy etish;

energiya samaradorligiga qo‘yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqish va joriy etish.

3. Energiya samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish:

energiya tejash va energiya samaradorligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini monitoring qilish, verifikatsiyalash va hisobotini yuritish tizimini joriy etish;

energiya sarfi hajmi yuqori bo‘lgan korxonalarning energomenejmenti va auditini o‘tkazish;

barcha toifadagi iste’molchilar, shu jumladan sanoat va energetika obyektlari uchun elektr energiyasi iste’molini hisobga olishning avtomatlashtirilgan davlat tizimini rivojlantirish.

4. “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilish:

“yashil” iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, “sof” transportni rivojlantirish, energiya tejash va boshqa masalalarni e’tiborga olgan holda oliy va o‘rta maxsus ta’limning tegishli yo‘nalishlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning tegishli dasturlariga “yashil” iqtisodiyot asoslari bo‘yicha boblar kiritish;

oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o'rta ta'lim uchun tegishli o'quv adabiyotlarini (yo'nalishlar bo'yicha) tayyorlash yoki qayta nashr etish jarayonida ularga "yashil" iqtisodiyot asoslari bo'yicha boblar kiritish;

pedagog va ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga "yashil" iqtisodiyot asoslari, xususan, "Yashil texnologiyalar", "Yashil mezonlarni hisobga olgan holda ekologik me'yorlashtirish asoslari", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari texnologiyalari", "Energiya tejamligi va energiya samaradorligi muammolari" boblarini joriy etish;

"yashil" texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun salohiyatni oshirish va qulay muhit yaratish:

mamlakatimizning Parij bitimi bo'yicha miqdoriy majburiyatlari bajarilishini uzluksiz kuzatish uchun issiqxona gazlari ajratmalarini milliy sharoitlarni e'tiborga olgan holda monitoring qilish, hisobini yuritish va verifikatsiyalash tizimini (MRV) yaratish hamda issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha hisobot berishni ta'minlash;

iqlim monitoringi tizimini rivojlantirish;

"yashil" texnologiyalarni ilgari surish uchun davlat-xususiy sheriklik salohiyatini rivojlantirish;

"yashil" innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarga, jumladan kichik biznesga ko'mak ko'rsatish;

tovar (ish, xizmat)lar energiya-resurs samaradorligining turli hisoblagichlari, spetsifikatsiyalar kataloglarini yaratish, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar energiya-resurs samaradorligini sertifikatlashtirish tizimini joriy etish orqali davlat "yashil" xaridlarini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

kadrlar malakasini oshirish, energiya va resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantirish;

kasbiy ko'nikmalarga "yashil" iqtisodiyotning rivojlanishi bilan qo'yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda tarmoqlar

xodimlari, shu jumladan rahbar va muhandislar tarkibi xabardorligi va malakasini oshirish;

kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash davlat ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda "yashil" iqtisodiyot asoslarini hisobga olish;

eko innovatsion texnologiyalarni yanada samarali joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalarining kadrlar va texnik salohiyatini oshirish;

iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalari bilan bog'liq sohalarda tadqiqotlarni rivojlantirish;

milliy va xorijiy ilmiy tashkilotlarning "yashil" texnologiyalarni ilgari surish sohasidagi hamkorligini mustahkamlash.

5. "Yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash:

"yashil" kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish;

"yashil" fondlar, energiya tejamkorligi maxsus fondlari va boshqa xuddi shunday mexanizmlar yaratish;

"yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, shuningdek, "yashil" investitsiyalarga nisbatan bank tizimini rag'batlantirish;

fiskal (xazinaga oid) siyosat orqali davlat tomonidan "yashil" iqtisodiyotning barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash.

Nazorat savollari

1. Resurslarning cheklanganligi va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.

2. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishdan ko'zlangan maqsad nima?

3. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish qanday tamoyillarga asoslanadi?

4. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish siyosatida qanday dastaklardan foydalaniladi?

5. UNEP "yashil" iqtisodiyotining asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.

6. "Yashil" iqtisodiyotning axborot resurslariga nimalar kiradi?

3 BOB. “YASHIL IQTISODIYOT”NI BAHOLASH AMALIYOTI VA INDIKATORLARI

3.1.UNEPda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni baholash

Zamonaviy ilm - fanda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tushunchalari ko‘plab mamlakatlar aholisining farovonligini oshirishni ta'minladi, ammo shu bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqardi.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish o‘z navbatida samarali qarorlar qabul qilishga ko‘maklashuvchi, “yashil” iqtisodiyotni baholashning ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xalqaro amaliyotda “yashil” iqtisodiyotni baholash tizimini shakllantirishga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan biri iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar qiymatini kompleks baholash bo‘lib ushbu komponentlarining yig‘indisi sifatida baholanadigan milliy boylik hajmi shu tariqa hisoblanadi.

2008-yilda butun dunyo "issiqxona effekti" chiqindilarining ko‘payishi va atrof-muhit muvozanatining yo‘qolishi natijasida yoqilg‘i inqirozi, ma'lum hududlarda oziq-ovqat tanqisligi, suv tanqisligi va 2008-2009 yillardagi moliyaviy inqiroz va global iqtisodiy tanazzul kabi bir qator inqirozlarga duch kelganida “yashil” iqtisodiyot g‘oyasi Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) sifatida qabul qilingan.

Jahon Banki tomonidan qo‘llaniladigan “yashil” iqtisodiyot ko‘rsatkichlari barqaror iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari tasnifiga kiritilgan bo‘lib, inklyuziv “yashil o‘shish” ko‘rsatkichlaridan iborat. Jahon Banki Instituti ilmiy izlanishlariga ko‘ra barqaror iqtisodiy o‘shishning inklyuzivligini ta'minlovchi yo‘nalish bu “yashil o‘shish”dir. Shu bois Jahon Banki tomonidan qo‘llanilayotgan “yashil” iqtisodiyot ko‘rsatkichlari “yashil o‘shishning” atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar jamiyat,

iqtisodiyot va atrof-muhit uchun natijaviy samaradorlikni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar "yashil o'sish" natijasida erishish mumkin bo'lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholashga xizmat qiladi.

2012-yilda Braziliyada bo'lib o'tgan barqaror rivojlanish konferentsiyasida (Rio +20) Birlashgan Millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) "yashil" iqtisodiyotni insonlar hayotini yaxshilaydigan, ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, shuningdek ekologik xavflarni kamaytiradigan va ekologiyani muvozanatlashtiradigan iqtisodiy model sifatida ko'rib chiqdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi yoki UNEP (inglizcha: UNEP, United Nations Environment Programme) BMT tizimida yaratilgan dastur bo'lib, butun tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Dastur BMT Bosh Assambleyasining 1972-yil 15-dekabrdagi 2997-sonli rezolyutsiyasi (A/RES/2997(XXVI)) asosida tashkil etilgan. UNEPning asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdir.

Dastur shiori - "Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun".

UNEP shtab-kvartirasi Keniyaning Nayrobi shahrida joylashgan. Shuningdek, UNEPning oltita yirik vakolatxonasi va turli mamlakatlarda mintaqaviy vakolatxonalari ham mavjud. UNEP global va mintaqaviy darajadagi barcha ekologik muammolarni hal qilish uchun javobgar tashkilotdir.

UNEP faoliyati Yer atmosferasi, dengiz va quruqlik ekotizimlari sohasidagi turli loyihalarni o'z ichiga oladi. UNEP ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro konvensiyalarni ishlab chiqishda ham muhim rol o'ynaydi.

UNEP, shuningdek, potensial xavfli kimyoviy moddalar, transchegaraviy havo ifloslanishi va xalqaro yuk tashish yo'llarining ifloslanishi kabi masalalar bo'yicha ham tavsiyalar va xalqaro hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Butunjahon meteorologiya tashkiloti UNEP bilan birgalikda 1988-yilda Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panelni (IPCC) tashkil etgan.

UNEP, shuningdek, Global ekologik fondning (GEF) homiylaridan biri hisoblanadi. UNEP homiyligida har yili Butunjahon atrof-muhit kuni nishonlanadi.

3.2. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonini baholashning IHTT yondashuvi

“Yashil o'sish” an'anaviy iqtisodiy o'sish tushunchasiga nisbatan yangi, keng qamrovli tushuncha bo'lib, iqtisodiy o'sish bilan bir vaqtda yuz beradigan zararlarni (implicit cost) ham hisobga oladi. Jumladan, iqtisodiy o'sish natijasida tabiatga keltiriladigan zararlar va milliy boylikning kamayishi shular jumlasiga kiradi. Iqtisodiy o'sishning “yashil modeli” agar mukammal ishlab chiqilib, samarali amalga oshirilsa, resurslar sarfi jihatdan barqaror ishlab chiqarish, iste'mol tanloviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

Iqtisodiy sohada: yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi va uning aholi o'rtasida nisbatan teng taqsimlanishi; ekotizim xizmatlarini ko'rsatish hajmining oshishi yoki ularning kamayishining oldini olish; iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, ya'ni iqtisodiy risklarni boshqarishning takomillashuvi.

Quyidagi 3.1.-jadvalda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHPT) tomonidan o'lchash metodologiyasiga ko'ra “yashil o'sish”ning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar keltirilgan.

3.1.-jadval

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHPT) tomonidan “yashil” o‘shining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar

№	“Yashil” o‘shining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar
1.	Ekologik va resurslar samaradorligi: bu toifa tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish zaruriyati va ishlab chiqarish jihatlarini aks ettiradi
2.	Tabiiy aktivlar bazasi: bu toifa barqaror rivojlanish uchun iqtisodiy va tabiiy aktivlar bazasi saqlab qolish zarurligini keltirib chiqarishi sababli bu aktivlarning kamayishi kelajakdagi iqtisodiy o‘shni xavf ostiga qo‘yadi. Bu guruhda asosiy e’tibor tabiiy aktivlarga qaratilgan.
3.	Hayot sifatining ekologik jihatlar: bu toifa afro-muhit holatiga ta’sirini ifodalovchi va odamlar hayoti ekologik farovonligini ifodalaydi.
4.	Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy vositalar: , “yashil o‘sh” siyosati samaradorligini rag‘batlantirishni baholashga yordam beruvchi ko‘rsatkichlar.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar “yashil o‘sh”ning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va xususiyatlarini aks ettiradi. (3.2-jadval). Taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar tizimi tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, mamlakatlar o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ko‘rsatkichlar kiritishlari mumkin.

3.2-jadval

Ko‘rsatkichlar guruhlar va ular qamrab oladigan masalalar

1.Ekologik va resurslar samaradorligi	Uglerod va energetika samaradorligi Rcsurslar samaradorligi Ko‘p omilli unumdorlik
2.Tabiiy aktivlar bazasi	Qayta tiklanadigan resurslar: suv, o‘rmonlar, baliq resurslari Qayta tiklanmaydigan resurslar: foydali qazilmalar Bioxilma-xillik va ekotizimlar
3.Hayot sifatining ekologik jihatlari	Atrof-muhit holati va xavflar Ekotizim xizmatlari va ekologik manfaatlar Texnologiya va innovatsiyalar Ekologik tovarlar va xizmatlar
4.Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy vositalar	Xalqaro moliyaviy oqimlar Narxlar va transferlar Ko‘nikmalar va treninglar Normativ aktlar va boshqaruv yondashuvlar
O‘sishhig ijtimoiy - iqtisodiy sharoiti va xususiyatlari	Iqtisodiy o‘shish va iqtisodiy tuzilma Unumdorlik va savdo Mehnat bozori, ta'lim va daromad Ijtimoiy-demografik taraqqiyot yo‘nalishi

“Yashil” iqtisodiyotni baholashdagi muhim yo‘nalish IHTT doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar hisoblanadi. Ushbu tashkilot tavsiyalariga ko‘ra “yashil o‘sinh”ni baholash uchun besh guruhga ajratilgan quyidagi 25-30 ta ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1.Ekologik va resurslar samaradorligi ko‘rsatkichlari

Bu tabiiy kapital bilan bog‘liq ishlab chiqarish va iste'molni o‘z ichiga oladigan, iqtisodiy faoliyat jarayonida energiya, tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydigan ko‘rsatkichlar. Ushbu guruhga kiritilgan ko‘rsatkichlar past uglerodli, resurs tejamkor iqtisodiyotni xarakterlaydi.

Past uglerodli, resurslardan tejamkor iqtisodiyotga o‘tishning asosiy jihatlari:

Energiya samaradorligi deganda energiyadan samarali foydalanish tushuniladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, qurilma ishlashi yoki o‘rnatilishi energiya kam bo‘lganida, faoliyatni amalga oshirish uchun o‘rtacha energiya miqdoridan kam sarflaganida samarali bo‘ladi. Energiya samaradorligining asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilishdir.

Energiya samaradorligi quyidagi afzalliklarga ega:

Bu bizga uylarda va kompaniyalarda yoki jamoat joylarida energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan pastroq va kompaniyalarning raqobatbardoshligini yaxshilaydi.

Energiya qaramligini kamaytirishga yordam beradi. Ispaniyada energetik qaramlik 80% dan yuqori.

Energiya ta'minoti xavfsizligini oshiradi. Agar bir xil vazifa uchun kam quvvat sarflansa, ko‘proq quvvat mavjud bo‘ladi.

Tabiiy resurslar iste'molini kamaytiradi.

Issiqxona gazlari chiqindilarining ta'sirini kamaytiradi.

Resurs samaradorligi - iste'mol qilinadigan tabiiy resurslar birligiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi va materiallar

ekotizim xizmatlari va tabiiy resurslar iste'molga moslashtirilgan ko'p omili mahsuldorligi.

Aksariyat ekologik yoki resurslar samaradorligi ko'rsatkichlari ishlab chiqarishga asoslanadi.

2. Tabiiy aktivlar bazasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar

Bu ko'rsatkichlar tabiiy aktivlar bazasi tugamaganligini tasdiqlash uchun ishlatiladi va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Tabiiy aktivlar bazasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklar bazasining kamayishi yoki uning holatining yomonlashishi bilan bog'liq xavflarni aniqlashga yordam berishi kerak.

Tabiiy aktivlar bazasi guruhga kiritilgan ko'rsatkichlar asosan quyidagilarni aks ettiradi:

Ichimlik suvi, o'rmonlar va baliq resurslari kabi qayta tiklanadigan tabiiy resurslar mavjudligi va sifati;

Mineral xomashyo resurslari, shu jumladan metallar, sanoat minerallari va qazib olinadigan yoqilg'ilar kabi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati;

Yashash joylari, shuningdek, yer va tuproq resurslarining unumdorligi kabi biologik xilma-xillik va ekotizimlar.

3. Hayot sifatining ekologik jihatlarini kuzatish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar ekologik sharoit va xavflar insonlarning hayot sifati va farovonligiga ta'siri va tabiiy kapitalning nomoddiy xizmatlarga, aholi farovonligiga hissa qo'shishini ko'rsatadi. Ushbu guruhning ko'rsatkichlari asosan quyidagilarga qaratilgan:

Tabiiy ofatlar, texnologik va kimyoviy ekologik xavflarning va ifloslanishning shuningdek, sog'liqni saqlash xarajatlari va mehnat unumdorligi insonlar hayot sifati va inson kapitaliga ta'siri;

Jamiyat aholisining turli guruhlari suv, kanalizatsiya, yashil maydonlar va jamoat transporti kabi ekotizim xizmatlari va tabiiy mahsulotlarga foydalanish darajasiga o'tishda ekologik xizmatlar

turlarini o‘z ichiga olgan imkoniyat. Ushbu ko‘rsatkichlarni insonlar yashash joylaridagi atrof-muhit sifatini yaxshilash haqidagi ma'lumotlar bilan to‘ldirish mumkin.

4. Iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy vositalarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar

Ushbu ko‘rsatkichlar ekologik tovarlar va xizmatlar sektorining o‘sishi va "yashil ish o‘rinlari" sonining ko‘payishi, “yashil o‘sinh”ga o‘tishga hissa qo‘shishda ekologik soliqlar va subsidiyalar vositalaridan foydalanishning iqtisodiy imkoniyatlarini aks ettiradi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlari quyidagi omillarni hisobga olishga qaratilgan:

iqtisodiyotni rivojlantirish, unumdorlikni oshirishda va ayniqsa yashil o‘sinhda texnologiya va innovatsiyalar muhim omil sifatida;

ekologik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish muhimligi. lekin bu iqtisodiy imkoniyatlarning yagona yo‘li emas. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va ekologik muammolarni hal qilishga yashil texnologiyalarning o‘zlashtirilishida investitsiyalar va moliyalashtirish manbalari yordam beradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga narxlar, soliqlar va transfertlar kabi muhim signallarni yuboradigan tashqi omillarni ichki omillarga o‘zgartirishga yordam beradi.

5.O‘sinhning ijtimoiy - iqtisodiy sharoiti va xususiyatlari

An'anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste'mol qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashuvi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, “yashil” iqtisodiy yondashuv bularning barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

“Yashil o‘sinh”ning ijtimoiy- iqtisodiy sharoiti va xususiyatlari guruhi quyidagilarni o‘z ichiga oladi :

texnologiyalar va innovatsiyalar (xarajatlar).

“yashil rivojlanish” bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari;

“yashil o‘sinh” bilan bog‘liq patentlar va barcha sohalarda innovatsiyalar atrof-muhit);

ekologik tovarlar va xizmatlar;
xalqaro moliyaviy oqimlar (ekomoliyalashtirish);
narxlar va pul o'tkazmalari (ekologik soliqqa tortish; narxlash
energiya, suvdan foydalanish va o'zini oqlash);
ko'nikmalar va o'qitish;
tartibga solish va boshqaruv yondashuvlari.

Oxirgi o'n yillikda deyarli barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan foydalanishning hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirini oshirmasdan iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan shunday "yashil" iqtisodiyotga urg'u berish tendensiyasi kuzatilmoqda.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi ko'pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. "Yashil" iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, yashil bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va "yashil o'sish"ga o'tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko'rsatkichlar to'plamlari ishlab chiqilgan bo'lib, amaliyotda qo'llanib kelinmoqda.

Xususan, bugungi kunda dunyo bo'yicha "yashil" iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan global "yashil" iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda "Yashil o'sish" indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko'rsatkichlari keng qo'llanilmoqda.

GGEI reyting ko'rsatkichi 2010-yildan boshlab e'lon qilina boshlangan bo'lsa, oxirgi marta 2018-yilda jami 130 ta mamlakatlar bo'yicha baholash natijalari taqdim qilingan.

Mazkur indeksda boshqaruv va iqlim o'zgarishi (leadership & climate change); samaradorlik sektorlari (efficiency sectors); bozor va investitsiyalar (market & investment); atrof-muhit (environment) kabi 4ta o'lchov kategoriyalari bo'yicha baholanadi.

ESLATMA

“Yashil” o‘shish indeksiga ko‘ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori “yashil” o‘shish ko‘rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o‘rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg‘iziston mazkur reyting bo‘yicha yuqori o‘rindagi ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

O‘zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o‘rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda “Ijtimoiy qamrov” (Social inclusion) hamda “Tabiiy kapital himoyasi” (Natural capital protection) ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo‘lsa, “Resurslardan samarali va barqaror foydalanish” (Efficient and sustainable resource use), “Yashil” iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.

Keng qo‘llanilib kelayotgan ko‘rsatkich “Yashil o‘shish” indeksi (GGI) hisoblanadi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatlari, Aichi bioxilma-xilligi maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), shuningdek, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, “yashil” iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy qamrov kabi “yashil o‘shish” yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatlardagi holatni baholaydi.

“Yashil o‘shish” indeksi 4 ta maqsadli yo‘nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo‘lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlandi. Ushbu strategiyada yuqorida ko‘rsatilgan “yashil o‘shish” indeksi bo‘yicha mamlakatimizning past ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlardagi ishlarni amalga oshirish belgilangan:

iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ulani yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

“yashil” iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur strategiya doirasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, “Yashil o'sish” indeksidagi mamlakatning sezilarli yaxshilanishi hamda global “yashil” ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo'shishi ta'minlanadi.

Nazorat savollari

1. “Yashil” iqtisodiyotni baholash zaruratini asoslab bering.
2. “Yashil” iqtisodiyotni tavsiflovchi ko'rsatkichlar mohiyatini tushuntirib bering.
3. UNEP doirasida ishlab chiqilgan “yashil” iqtisodiyot va “yashil o'sish” ko'rsatkichlarining guruhlanish mezonlarini tushuntiring.
4. Jahon Bankining “yashil o'sish” natijaviy naf ko'rsatkichlari qaysi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi?
5. Global “yashil” iqtisodiyot indeksi ko'rsatkichlari tizimi qaysi ko'rsatkichlardan tashkil topgan?

4 BOB. “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH

4.1.”Yashil moliyalashtirish” tushunchasi

Jahon moliya tizimidagi tub tarkibiy o‘zgarishlar makroiqtisodiy dinamikaning uzoq muddatli tendensiyalari bilan belgilanadi. Ular orasida so‘nggi o‘n yillikda ekologik iqlim muammolarining ahamiyati ortib bormoqda.

60-yillar oxiri 70-yillar boshida ekologik iqlim muammolari omili ahamiyatining ortib borishi, eng avvalo, rivojlangan mamlakatlarda xo‘jalik faoliyati oqibatlarining atrof-muhitga ta‘sirini yetarlicha baholamaslik bilan bog‘liq bo‘lgan. Bunday yondashuv ishlab chiqarishni texnologik yangilash va infratuzilmani rivojlantirish suratlariga ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada, jamiyatning turmush sifatini yaxshilashga bo‘lgan talablarini atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmasdan qondirilishi va uning ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘ziga xos tafovut shakllandi.

70-yillarning o‘rtalarida neft narxining keskin ko‘tarilishi natijasida energiya tejovchi texnologiyalarni jadal rivojlantirish zaruratining kelib chiqishiga "yashil" omil kuchli turtki oldi.

Bu holat moliya tizimi uchun davlat va korporativ xarajatlarida investitsiyalar o‘zgarishining muqarrarligini anglatar edi, ya‘ni YalM da atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq yangi muhim modda va yangi moliyaviy vositalar va vositachi institutlar paydo bo‘ldi.

Xususan, 80-90-yillarda AQShda emissiya banklari deb ataluvchi banklar, ifloslantiruvchi moddalar (birinchi navbatda, ko‘mirda ishlaydigan issiqlik energiyasi chiqaruvchi oltingugurt sulfidi - kislotali yomg‘ir manbai) uchun chiqindi chiqarish kvotalari bo‘yicha ro‘yxatga oluvchi, depozitlar va savdo qilish yuzasidan maxsus moliyaviy tashkilotlar barpo etildi. Natijada 90-yillar oxiri 2000-yillar boshida ishlab chiqarishning energiya va iqtisodiy samaradorligini oshirish va energiya resurslaridan

foydalanuvchilarning xarajatlarini kamaytirish natijasida ekologik parametrlarni yaxshilashda sezilarli siljishlarni ta'minladi.

Yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga integratsiya qilish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ugleroddan kam foydalanib, rivojlanish va resurslarni tejashga yo'naltirilgan ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni taqozo qildi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor vazifalaridan biri jahonda barqaror rivojlanishning muhim sharti bo'lgan "yashil moliya"ni rivojlantirishning umumiy yo'nalishlarini aniqlash, moliyalashtirish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlarini o'rganishdir.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiya hisoblanadi.

Asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balkim, kelgusi avlodga ham asrab-avaylagan holda yetkazishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o'sishga to'liq erishish kundan-kunga dolzarblik kasb etib boradi. Bu ishlab chiqarishning pasayib ketishi, aholining iste'mol darajasining kamayishi, muammoli hududlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq holda jamiyatning inqirozli vaziyatlarini yuzaga keltirish oqibatida barqaror rivojlanish uchun yangi g'oyalar va tamoyillarni shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni asoslarini yaratishni talab qiladi.

"Yashil" iqtisodiyotning mohiyati shundaki barqaror biznes modelga o'tishda kapitalga nisbatan o'sib borayotgan talabni qo'llab quvvatlashdir. Bunda davlat institutsional investitsion fondlarning bosimi ostida doimiy ravishda issiqxona gazlarini ishlab chiqarishni nazorat qiluvchi yangi formatlarni ishlab chiqadi, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilovchi yangi aklarni kiritib jamiyat rivoji uchun normativ bazalarni yaratadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishdagi muhim masalalardan biri ushbu jarayonni moliyalashtirish hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda “yashil” yoki “ekologik” moliya atamasining umumqabul qilingan tarifi mavjud emas. Birinchidan, “yashil” iqtisodiyotga oid aksariyat adabiyotlarda “yashil moliyalashtirish” tushunchasiga ta’rif berilmagan, ikkinchidan, mavjudi kam sonli ta’riflar mazmunan bir-biridan keskin farq qiladi.

“Yashil moliya” va “yashil” iqtisodiyot bir – biriga uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Yashil moliyaning maqsadi barqaror biznes modeliga o‘tish uchun kapitalga o‘sib borayotgan talabni qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan tizimni yaratishdir.

Global miqyosida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida asosiy e’tibor tiklanadigon energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigon texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi uzoq muddatni va katta miqdordagi investitsiyalar talab etishi bilan ajralib turadi.

Xalqaro energetika agentligi prognozlariga ko‘ra, 2050-yilgacha atmosferaga chiqarib yuboriladigon CO₂ emissiyasini ikki baravarga kamaytirish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jahon yalpi ichki mahsuloti miqdorining 1-2,5%i darajasida qo‘shimcha investitsiyalar sarflash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishdagi muhim masalalardan biri ushbu jarayonni moliyalashtirish hisoblanadi.

“Yashil moliyalashtirish” atamasi XXI asr boshida G‘arbda shakllangan. Umuman olganda, biznes loyihalari va moliyaviy sektordagi iqtisodiyot subyektlari va ishtirokchilarning ekologik mas’uliyatli xatti-harakatlarini bog‘lashga urinish juda murakkab vazifadir. Ayniqsa, jamiyatning katta qismi an’anaviy ravishda ishonqiramay qarashini hisobga olganda bu juda qiyin. Insoniyat tarixida tadbirkor o‘zini ixtiyoriy ravishda ekologiya qoidalari bilan cheklangan yoki barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida daromadlarini qurbon qilgan holatlar ko‘p bo‘lmagan.

“Yashil moliya”lar atamasi ilk bor taniqli iqtisodchi olim Richard Sandor tomonidan 1992-yilda Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universitetida ishlab chiqilgan maxsus o‘quv dasturida qo‘llanilgan. 2002-yilda Stenford universiteti professori Gletchen Deyl tomonidan nashr etilgan “Yangi tabiat iqtisodiyot” kitobida tabiiy resurslar muhofazasini moliyalashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Yashil moliya-bu “ekologik barqaror rivojlanishning kengroq kontekstida ekologik ustunlik keltiradigan investitsiyalar”(“Yashil moliyalashtirish” masalalari) bo‘yicha G20 tadqiqot guruhi). Bu mas’uliyatli investitsiya kiritish aktivlaridan biri(ESG) – qimmatli qog‘ozlarni tanlash ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (Environmental, social, governance) omillarga asoslangan yondashuv. Investor “yashil” obligatsiyalarga sarmoya kiritib, o‘zini atrof-muhitga oid tashvishdan ozod qiladi, chunki ular ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi.

Umumiy tarzda **“Yashil moliyalar” (“Green finance”)** **deyilganda** ekologik toza, enegiya samaradorligi yuqori va past uglerodli loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar va boshqa moliyaviy dastaklar yig‘indisini tushuntirish mumkin. Aksariyat holatda ekologik ma’suliyatli investitsiyalash va iqlim o‘zgarishlari bog‘liq envestitsiyalash kabi tushunchalar “yashil moliya” sinonimi sifatida foydaniladi.

Karl Burkat “yashil iqtisodiyot”ni tarmoq nuqtai nazaridan qarab chiqadi va uni quyidagi tarmoqlarga bo‘ladi.

tiklanadigon energiya manbalari (quyosh, shamol, bioyoqlig‘i va h.k.);

“yashil” binolar (qurilish va arxitekturada resurs va energiya tejovchi texnologiyalarni qo‘llash);

ekologik toza transport (muqobil yoqilg‘i turlari, jamoat transportini rivojlantirish, gibrid/elektr avtomobillari va karshering va karpuling);

suv resurslaridan foydalanishni boshqarish (suvni tozalash va qayta foydalanish, suv sarfini kamaytirish, yomg'ir suvlaridan foydalanish va h.k.) xo'jalik va ishlab chiqarish chiqindilari itilizatsiya (chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya talab etmaydigan tara va qadoqlardan foydalanish);

yer holatini yaxshilash (shahar hududlarida parklar va kichik o'rmonlar barpo etish, organik qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, o'rmonlarni va daraxtzorlarni tiklash, tuproq unumdorligini yaxshilash).

Karl Barkat fikricha, "yashil" iqtisodiyotning tegishli tarmog'i turli rivojlanish bosqichida bo'ladi va shuning uchun ularni moliyalashtirish usullari va manbalari bir-biridan farqlanadi.

Jahon mamlakatlarida "Yashil" iqtisodiyot sohasida turli tadqiqotlar olib boorish bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilishgan. Jumladan, **"Bloomberg New Energy Finance"** kompaniysai mutaxassislari "yashil moliya"lar "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llaniladi, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalariga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatiladi, deb hisoblanadi.

"Pricewaterhouse Cooper Consultants" konsalting kompaniyasi mutaxassislari tomonidan berilgan ta'rif esa "yashil moliyalashtirish"ni bank sektori nuqtai nazardan tavsiflashga asoslanadi. Ularning fikricha, bank sohasi uchun "yashil moliyalashtirish" ekologik omillarni hisobga oluvchi moliyaviy mahsulot hisoblanadi va ushbu tamoyilga kredit berish jarayonidan boshlab to kredit yopilish oralig'idagi barcha jarayonlarda amal qilinadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari esa "yashil moliyalashtirish"-barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy qo'yilmalar, loyihalar va investitsiyalarni ifodalovchi keng tushuncha bo'lib, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada

oshirishni nazarda tutadi”, deb hisoblanadi. Ularning fikricha, “yashil moliyalashtirish” atrof-muhitga sanoat chiqindilarini chiqarish hajmini qisqartirish, suv resurslari ifloslanishining oldini olish va bioxilmaxillikni saqlab qolishga qaratilgan loyhalarni moliyalashtirish bilan birgalikda iqlim oʻzgarishi taʼsirini yumshatish va unga moslashish jarayonlariga sarflanayotgan investitsiyalarni oʻz ichiga oladi.

Demak iqtisodiy adabiyotdagi taʼriflarni xos umumiy jihat shundaki, atrof -muhitni muhofaza qilish bilan bogʻliq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari “yashil moliya” ekologik tarkibiy elementga ega boʻlgan moliyaviy mahsulotlar (dastaklar) va xizmatlar (kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi.

Demak, “yashil moliyalashtirish” atrof-muhitga taʼsir koʻrsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni taʼminlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning barcha shakllarni qamrab oladi.

“Yashil” iqtisodiyotga oʻtish juda katta moliyaviy hamda inson resurslarini talab qiluvchi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Hozirda Oʻzbekiston Respublikasida yirik soliq toʻlovchi sanoat sektori oʻz aktivlarini modernizatsiya qilishga ehtiyoj sezmoqda, biroq bu juda katta kapitalni jalb qilish evaziga amalga oshadigan jarayondir. Oʻzbekistondagi bank sektori sanoat sektoridagi keng koʻlamli investitsion dasturlariga boʻlgan talabni oʻz resurslari evaziga amalga oshirishni qondira olmaydi. Yechim esa global resurslarni ishga solgan holda “yashil moliyalashtirish, “yashil obligatsiyalar”, “yashil kreditlar” tizimlari hamda ESG fondlarini tashkil etish bilan hal boʻladi.

EY dunyoning 1100 dan ortiq moliyaviy institutlardan yigʻgan maʼlumotlarga koʻra, oxirgi toʻrt yil ichida yashil moliyaviy mahsulotlarni taklif qiluvchi bank foizlari 34 dan 42 % gacha oʻsganligini koʻrsatadi. Oʻz navbatida nomoliyaviy axborotlarni fosh qilish oʻrtacha 2018 – yilda 77% dan 2021 – yilda 82 % ga, ESG esa

o‘rtacha 4.46 dan 4.93 ga oshdi. Shunday tezkor o‘rishni yaqin kelajakda O‘zbekistonda ham ko‘rish mumkin.

“Yashil moliyalashtirish” ham tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitning hozirgi holatini saqlash uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shundan kelib chiqib, “yashil” moliya hozirgi bosqichda jamiyat barqaror rivojlanishining zarur shartlaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ularga iqtisodiy barqarorlikni saqlash va mexanizmining muhim elementi sifatida qaralishi kerak. **“Yashil moliyalashtirish”** “inson – tabiat” tizimida resurslarning aylanishiga ixtisoslashgan bo‘lib, moliyaning umumiy rivojlanishi va talablari bilan belgilanadigan moliyaning o‘ziga xos qismidir.

“Yashil” iqtisodiyot va “barqaror rivojlanish” tushunchalarini bir-biri bilan almashtirib bo‘lmaydi. “Yashil” iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o‘rish yo‘nalishini to‘ldiruvchi, barqaror rivojlanishning ajralmas qismigina hisoblanadi. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanish vositasi sifatida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda ommabop bo‘lgan aylana iqtisodiyot modelini yopiq ishlab chiqarish zanjirlarini yaratishga qaratilgan yashil iqtisodiyotni amalda tatbiq etish variantlaridan biri sifatida ham ko‘rish mumkin.

Iqtisodiyotni yashil qilish va ishlab chiqarish hamda iste'molni “yashillashtirish” barqaror rivojlanishning zaruriy shartidir, chunki iqlim o‘zgarishi kabi global ekologik muammolar xarakteridagi boshqaruv va tashkiliy mexanizmlarni hal qilishni talab qiladi. Bu butun dunyo bo‘ylab korxonalarining biznes yuritish usullarini tubdan o‘zgartirish, sanoat sohasida texnologiyalarni ilgari surish va ular orasida hozirgidan kamroq moddiy va energiya talab qiladigan usullarini tanlash zarurligini anglatadi.

Ayni paytda O‘zbekiston moliya sektorida barqaror rivojlanish kun tartibi sanoatdagi kabi dolzarb emas, bu ko‘p jihatdan “yashil” moliyaviy vositalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada yetuk moliyaviy bozorni talab qilishi bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston banklari va boshqalar xalqaro moliya

institutlarining ishtiroki tufayli kun tartibini amalga oshirishga kirishmoqda. O'zbekiston bank sektori tayyorlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini bosqichma-bosqich o'z faoliyatiga joriy etmoqda va "yashil" mahsulotlarni rivojlantirmoqda. Shunday qilib "Yashil moliyalashtirish"ni rivojlantirishda barcha mumkin bo'lgan qonuniy va foydalanish mumkin bo'lgan investitsiya manbalari va tashkiliy usullardan foydalanish kerak.

Moliya bozorini isloh qilish uchun moliya bozori ishtirokchilari "yashil" moliyalashtirish vositalarini joriy etish platformasiga ega bo'lishi uchun institutsional tuzilmani ishlab chiqish zarur. Bu "yashil" standartlar, moliyaviy vositalarni baholash metodologiyalari, sertifikatlar va bozorni yanada boshqaradigan boshqa fundamental qoidalarni anglatadi. Buni qanchalik tez amalga oshirsak, shunchalik tez "yashil" moliyaviy vositalar bilan ishlashni boshlashimiz mumkin.

Xususan "yashil" iqtisodiyotga o'tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari, dastur va rejalariga kiritilgan.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. Bunga texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi

4.2."Yashil moliyalashtirish" tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari

So'nggi 15 yil ichida dunyoda sayyoramizdagi ekologik muammolarni hal etish yoki kamaytirishni ko'zda tutuvchi investitsiyalarni kiritishning yangi mexanizmlari hamda vositalari ishlab chiqildi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar

instituti (PMTI) dunyo va O'zbekistonda ana shunday "yashil" loyihalarning moliyalashtirilishini tahlil qildi.

"Yashil moliyalashtirish" manbalarini quyidagi guruhlarga ajratish

mumkin: davlat byudjeti mablag'lari;- xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari;

xususiy sektor mablag'lari (ichki va tashqi).

"Yashil bydjetlashtirish"- ekologik va iqlim maqsadlariga erishish uchun budjet siyosatini shakllantirish vositalaridan foydalanish jarayoni, bu budjet va soliq siyosatining atrof-muhitga ta'sirini baholashni va uning milliy va xalqaro majburiyatlar bajarilishiga muvofiqligini baholashni o'z ichiga oladi.

"Global Landscape of Climate Finance" e'lon qilgan so'nggi hisobotga ko'ra, 2019-2020-yillarda iqlim bilan bog'liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Buning 321 milliard dollari jamoatchilik manbalari hisobidan, 310 milliard dollari esa xususiy manbalar tomonidan moliyalashtirilgan.

"Yashil" loyihalarni moliyalashtirishning muhim vositalari:

"Yashil" kreditlar

"Yashil" obligatsiyalar

"Yashil" investitsiya fondlari

Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (ABS)

Uglerod birjalari

Yashil kreditlar - bu yashi(ekologik) loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan kredit.

O'zbekistonda aholining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu qurilmalarni sotib olish uchun "yashil" iste'mol kreditlari ajratiladi.

"Yashil" iste'mol krediti — quyosh fotoelektr stansiyasi, quyosh suv isitkichlari va shamol elektr stansiyalarini o'rnatish

maqsadlari uchun jismoniy shaxslarga milliy valyutada ajratiladigan kredit.

“Yashil obligatsiyalar” (lotincha obligatio dan) ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar va hududlarni moliyalashtirish asosda taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlardir. Bunday obligatsiyalar yashil iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

“Yashil obligatsiyalar”ini chiqarish orqali tashkilotlar bir qator muhim imtiyozlarga ega bo‘ladi: imijini yaxshilash, yangi investorlar oqimi va qulay shartlarda ekologik loyihalar uchun resurslarni jalb qilish.

Mexanika bo‘yicha “yashil obligatsiyalar” oddiy obligatsiyalardan hech ham farq qilmaydi. Bu qat’iy daromadga ega qarz qog‘ozlaridir. Investor o‘z mablag‘larini ma’lum muddatga obligatsiyalar chiqargan emitent tashkilotlarga qarzga beradi. Biroq, bu holda jalb qilingan mablag‘lar ekologik vaziyatni yaxshilash va tabiatga yetkazilgan zararni minimallashtirish, jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, biologik xilma-xillikni saqlash, yerlarni rekultivatsiyalash, chiqindilarni qayta ishlash majmualarini qurish, elektr transportini joriy etish, tozalash inshootlarini takomillashtirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va hokazolarga yo‘naltiradi.

“ Climate Bonds Initiative xalqaro tashkiloti” baholashicha, 2007-yildan 2020-yilgacha chiqarilgan “yashil” obligatsiyalarning umumiy hajmi 1,1 trln. dollarga yetdi, 2012-yilda bu summa 3,1 mlrd. dollardan oshmas edi. Ikkinchi o‘rinda Shimoliy Amerika (237,6 mlrd dollar), uchinchi o‘rinda Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi (219,3 mlrd dollar) o‘rin olgan.

Mamlakatlar bo‘yicha taqsimot boshqacha ko‘rinadi. AQSH “yashil” obligatsiyalar bozorining eng yirik o‘yinchisi bo‘lib, so‘nggi 13 yilda 211,7 mlrd dollarlik obligatsiyalar chiqardi, ikkinchi o‘rinda Xitoy (127,3 mlrd doll.) va Fransiya (115,6 mlrd. dollarlik) turadi. Kuchli

beshlikni Germaniya va Gollandiya yakunlab beradi. Qabul qilingan investitsiyalarning asosiy qismi energetika, qurulish va transport sohalariga yo'naltirilgan. Birgalikda ushbu uchta segment "yashil" obligatsiyalar bozorining taxminan 80 foizini tashkil qiladi.

Xorijiy amaliyotda "yashil obligatsiyalar"ning ayrim emitentlarini alohida imtiyozlarga ega. Masalan, ular kuponlarni (obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlarni) o'zlari to'lamasliklari mumkin. Bu funksiyani to'liq yoki qisman davlat o'z zimmasiga oladi.

O'z navbatida, investorlar "yashil obligatsiyalar" bo'yicha foizlardan daromad solig'i to'lashdan ozod etilishi mumkin. AQSHning Renewable Energy Bonds(CREB) va Qualified Energy Conservation Bond (QECB) bo'yicha harakati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Hukumat ular bo'yicha kuponning 70 foizini to'laydi, shuning uchun joylarda emitentlar uchun muqobil energiya resurslarini tejash dasturlarini takomillashtirish foydali.

Natijada, hamma naf ko'radi: davlat zarur ekologik loyihani amalga oshirish uchun kafolat oladi, emitent imtiyozli shartlarda kredit oladi va investorlar soliq olinmaydigan daromad oladi. Bu "yashil" obligatsiyalar ommabopligining yana bir sababidir.

"Yashil loyihalar" davlat siyosatining eng muhim vositasiga aylanmoqda, uning maqsadi yashil innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, "yashil energiya"ni yaratish va yoqilg'i-energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish muammolarini hal qilishdir. Loyihalarni amalga oshirish mamlakatning yetakchi ilmiy maktablari, ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik va servis kompaniyalari, asbobuskunalar ishlab chiqaruvchi korxonalar, yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini birlashtirishni nazarda tutadi.

"Yashil moliyalashtirish" vositalari xilma-xil bo'lib, korxonalarga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, "yashil"

faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish (bartaraf etish) imkonini beradi.

Iqlim o'zgarishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga va aholining farovonligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ekologik menejment va tabiiy resurslarni boshqarish jihatlari mamlakat va kompaniyani iqtisodiy rejalashtirish jarayoniga qanchalik samarali integratsiyalangani masalasi muhimligicha qolmoqda. limiy sharoitlarga moslashish zaruratini tobora yaxshiroq anglamoqdalar, bu ekologik xavfsiz xatti-harakat qabul qilinishi va ijtimoiy mas'uliyat strategiyalarini ilgarilatishga olib keldi.

Ko'plab olimlar va butun dunyodagi tadqiqotchilar tabiat va atrof-muhitni yaxshilashning maksimal muvofiq keluvchi usullarini topish bilan yaqindan shug'ullanmoqdalar. Shu munosabat bilan OAV va ilmiy adabiyotda "yashil investitsiyalar" nomi bilan tanilgan ekologik toza investitsiyalar tobora keng shuhrat qozonmoqda.

"Yashil investitsiyalar" – bu atrof-muhitni asrashga yo'naltirilgan, yangi asrovchi texnologiyalarni joriy etishni, yashil moliyaviy mahsulotlarni, muqobil energetikaning yangi bozorlarini va yashil energiya turlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalar va modellarni moliyalash manbalaridir.

Moliya bozorining segmenti sifatida "yashil moliyalashtirish" tiklanish bosqichida turganiga qaramay, "yashil kreditlar", "yashil" obligatsiyalar, "yashil investitsiyalar" fondi va "yashil" fond indeksleri kabi moliyaviy vositalar jadal rivojlanishni namoyish etmoqdalar.

Ekspertlar baholashlariga ko'ra, 2030-yilda dunyoda "yashil" loyihalarni amalga oshirishga taqriban 93 trln dollar sarflanadi, ularni ta'minlash uchun tegishli moliyaviy vositalardan keng foydalanish kerak bo'ladi.

Investitsiyalar obyekti ekologik foydali loyiha bo'ladimi-yo'qligini aniq belgilash muhim masalaligicha qolmoqda. An'anaviy "noyashil" tarmoqda ekologik ongli biznes yuritish uslublaridan

foydalanish nuqtayi nazaridan tarmoq yetakchisi bo'lgan biznesning aksiyalarini sotib olish hamma uchun ham "yashil investitsiyalar" sanalmaydi. Masalan, atrof-muhit muhofazasi sohasida yaxshi ko'rsatkichlarga ega neft kompaniyasini ko'raylik. Kompaniya o'zining neft quduqlarini burg'ulash bo'yicha kundalik amaliyotlari davomida atrof-muhitga har qanday bevosita zararning oldini olish uchun eng yaxshi chora-tadbirlarini ko'rayotgan bo'lsa ham, ko'plab investorlar "yashil investitsiyalar" sifatida uning aksiyalarini sotib olishga qarshi chiqadilar, chunki qazib olinadigan yoqilg'ini yoqish global isishning asosiy omili sanaladi. Shu munosabat bilan "yashil loyihalar"ni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

2005-yilda BMT, 12 ta mamlakatdan institutsional investorlar ishtirokida, Oltita mas'uliyatli investitsiyalar tamoyilini ishlab chiqdi, uning tamoyillaridan biri kompaniyaning ESG (environmental, social, governance) tamoyillariga muvofiqligini tekshirish sanaladi. ESG-mezonlarga muvofiq, kompaniyalar uchta yo'nalish bo'yicha baholanadi: ekologiya, ijtimoiy rivojlanish, korporativ boshqaruv.

Shuningdek, mo'ljal olish hamda ekologik do'stona investitsiyalarni aniqlash uchun 2014-yilda Xalqaro kapital bozorlari uyushmasi (ICMA) tomonidan boshqa manfaatdor moliyaviy muassasalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ixtiyoriy "yashil" obligatsiyalar tamoyillari qo'llaniladi. Bu tamoyillar yo'l xaritasi bo'lib, ularda "yashil loyihalar"ning namunaviy ro'yxati belgilangan.

Ayni chog'da O'zbekistonda "yashil moliyalashtirish" faolligining ortishi qayd etilmoqda. Agar u ilgari xalqaro moliya institutlarining alohida loyihalari va grantlari ko'rinishida taqdim etilgan bo'lsa, so'nggi yillarda moliyalashtirishning "yashil" kreditlar va obligatsiyalar kabi boshqa vositalari ham tatbiq etilmoqda. Hukumat MDH doirasida birinchi va dunyoda birinchilardan bo'lib "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ni moliyalashtirishga qaratilgan davlat obligatsiyalari - Sovereign SDG Bonds ni 2021-yil iyul oyida London fond birjasiga joylashtirdi. Hajmi 2,5 trillion so'mni (235 million AQSH dollari atrofida) tashkil qiluvchi 14 foizli ushbu

obligatsiyalar 3 yil muddatga chiqarildi. Olingan mablag'lar 9 ta aniq milliy barqaror rivojlanish maqsadiga erishishni ko'zda tutuvchi tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Ularning orasida "yashil" taraqqiyot maqsadlari ham bor.

"Yashil moliyalashtirish" vositalari xilma-xil bo'lib, korxonalarga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, "yashil" faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish (bartaraf etish) imkonini beradi. Ma'lumki, O'zbekiston tiklanuvchan manbalardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha anchayin yuqori texnik salohiyatga ega, uning 97 foizi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. Quyosh generatsiyasi salohiyati 525 mlrd.dan 760 mlrd kVt/s.gacha tashkil qiladi. Buning sababi – bir yildagi quyoshli kunlar soni 320, faol quyosh yoritishi soatlari esa, o'rtacha 3000 soatni tashkil qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston shamol energetikasi sohasidagi prognoz salohiyat 500 gVt.dan ziyod quvvatga ega, ya'ni amaldagi butun energiya tizimidan 30 barobar kuchli qurilmalar o'rnatish imkonini beradi.

"Yashil" iqtisodiyotni, jumladan "yashil investitsiyalarni" qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil investitsiyalar"ni jalb qilish ustuvor vazifalari:

butunjahon qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va rag'batlantirish uchun siyosiy hamda institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

"yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun innovatsion siyosat va milliy innovatsion tizimlarni takomillashtirish.

Ustuvor yo'nalishlar:

investitsiya siyosati va loyihalarga "yashil" investitsiyalar konsepsiyasini integratsiyalash — mamlakatda rejalashtirilgan barcha

investitsiya loyihalari uchun “yashil” mezonlarni ishlab chiqish va joriy etish;

sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash — mavjud yangi texnologiyalar va standartlarning integratsiyasi orqali sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi sanoat korxonalarining infratuzilmasi barqarorligini ta’minlash;

moliyalashtirish imkoniyati va salohiyatini kengaytirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish — salohiyat, raqobatbardoshlik va boshqaruvni oshirish uchun yuqori salohiyatga ega istiqbolli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan ayollar yuritayotgan va turli hududlardagi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash;

xususiy sektorning milliy iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish;
tarmoqlarda xususiy sektor ishtirokini oshirish uchun davlat korxonalari bilan tanlama hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash;
davlat xaridlarining shaffof va raqobatbardosh tartibini takomillashtirish;

korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlash;

shaffof va raqobatbardosh davlat xaridlari tartibini hamda DXSh va KO‘K tizimini ishlab chiqish;

hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun elektron hukumat va davlat boshqaruvi salohiyatini mustahkamlash;

elektron hukumat tizimini AKT infratuzilmasi va tegishli tizimlar bilan ta’minlash;

davlat boshqaruvi organlarining innovatsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha salohiyatini kuchaytirish hamda davlat xizmatlari va jarayonlarini raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash;

bilim va axborot almashinuvini osonlashtirish uchun AKT tuzilmasi va infratuzilmasini kengaytirish;

innovatsion tizimda siyosiy boshqaruv va mexanizmlar samaradorligini oshirish — innovatsion siyosat institutlari, tegishli subyektlar o'rtasida boshqaruv va muvofiqlashtirishni mustahkamlash;

innovatsiyalar asosidagi o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun innovatsion infratuzilmani mustahkamlash:

innovatsion ekotizimdagi qo'llab-quvvatlovchi elementlarning infratuzilmasi va salohiyatini mustahkamlash;

ESG standartlariga mos keladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirish tizimini ta'minlash;

ilm-fan va sanoat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash:

ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining salohiyatini mustahkamlash;

tadbirkorlik sohasida modernizatsiya va texnologiyalar transferini ta'minlash uchun xorijiy texnologiya yetkazib beruvchilar ishtirokini oshirishda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash.

qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlarning raqamli savodxonligini ko'tarish va onlayn platformalardan foydalanishni rivojlantirish — mavjud kreditlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, texnik maslahat xizmatlari, bozorni tahlil qilish uchun investitsiyalarni kiritish.

4.3."Yashil" iqtisodiyot. GEFf loyihasi

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB)ning "yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi (GEFF) 28 mamlakatda 170 dan ortiq mahalliy moliya muassasalari tarmog'i orqali faoliyat yuritadi, bu esa taxminan 5 milliard YeTTB kredit portfeliga teng, 218 mingdan ziyod investitsiyalar yiliga 9.5 million tonnadan ortiq CO₂ chiqindilarni kamaytirishga olib keldi.

GEFF orqali YeTTB mahalliy muassasalariga kredit liniyalarini taqdim etadi va kredit oluvchilar ko'plab foydali yashil investitsiyalarni moliyalashtirishlari mumkin.

GEFF oddiy moliyaviy yoʻnalishlarni taqdim etishdan tashqari boshqa yordamlarga ham ega; YeTTB tajribali bankirlar va texnik dastur menejerlari GEFF mahsulot va xizmatlarini yetqazib berishda izchil sifat va innovatsiyalarni taʼminlaydi. Bundan tashqari, ishtirok etadigan moliyaviy institutlarga va ularning mijozlariga bozor amaliyotlarini yaxshilashda yordam berish uchun maslahat xizmatlari mavjud. Bu GEFF ga “yashil” iqtisodiyot investitsiyalarining afzalliklarini namoyish etishga yordam beradi va yashil loyihalarning sogʻlom investitsiyalarga aylanishini namoyish etadi.

Oʻzbekistonda GEFF loyihasi xususiy kompaniyalarga yuqori samarali texnologiyalar va amaliyotlar orqali raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyalashtirish, maslahat va grantlar taqdim etadi.

“Yashil” iqtisodiyot - bu ishlab chiqarish va isteʼmol qilishda energiya va suvdan foydalanishni kamaytiradigan va shu bilan atrof-muhit va iqlimga salbiy taʼsirni kamaytiradigan iqtisodiyot.

GEFF mexanizmi ushbu oʻtish jarayonini "Yashil texnologiyalar"ga investitsiyalarni moliyalashtirish orqali qoʻllab-quvvatlaydi, yaʼni:

Energiyadan foydalanishni minimallashtiradigan texnologiyalar;

Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaradigan texnologiyalar;

Suv resurslarini himoya qiladigan texnologiyalar.

GEFF kelishuviga binoan, YETTB ishtirok etayotgan mahalliy moliyaviy institutlarga (hamkor banklarga) xususiy qarz oluvchilarni qayta moliyalashtirish uchun kreditlar taqdim etadi. Ushbu mablagʻlar YETTBning "yashil iqtisodiyot" ga oʻtish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish boʻyicha global strategiyasiga muvofiq, iqlim taʼsirini kamaytiradigan loyihalarga sarflanadi.

GEFFning Oʻzbekistondagi muhandislar, atrof-muhit, moliya va marketing boʻyicha mutaxassislaridan iborat maxsus maslahatchilar guruhi qoʻllab-quvvatlanadilar, ular sherik banklar va ularning mijozlariga eng yaxshi texnologiyalardan foydalangan holda yashil

loyihani hayot davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash va maslahatlarni taqdim etadilar. Mijozlar uchun texnik yordam paketi bepul.

ESLATMA

2023-yil 8-avgustda Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident 271-son qarori imzolandi.

Unga muvofiq, 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil o‘sinh”ni ta’minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekistonda “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” (iCRAFT) loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadda Jahon banki 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratadi.

Loyiha 2023-2028 yillar davomida respublika miqyosida amalga oshiriladi. Buning uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” loyiha ofisi Jahon banki tomonidan qo‘shimcha texnik ko‘mak sifatida ajratiladigan mablag‘lar hisobidan 7 ta shtat birligiga kengaytiriladi va loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etiladi.

“Yashil” iqtisodiyot onlayn platformasi tashkil etilib, ushbu platforma doirasida issiqxona gazlari reyestri yaratiladi. Monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimi bo‘yicha yig‘iladigan ma’lumotlar bazasi ishlab chiqiladi.

Qarorga ko‘ra 2024-yil 1-iyulga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda iqtisodiy faoliyat turlarini ekologik jihatdan tasniflash imkoniyatini beruvchi “yashil taksonomiya” tizimi joriy etiladi.

Texnik yordamni loyihani ishlab chiqish, investitsiyalarni baholash va amalga oshirishning turli bosqichlaridagi kompaniyalarga yordam beradigan mahalliy GEFF jamoasi taqdim etadi. Bu eng yaxshi yechimlarni aniqlashga va yashil iqtisodiyotning sifatli loyihalarini muvaffaqiyatli moliyalashtirishga yordam beradi.

ESG qisqartmasi (abbreviatura)ni “ekologiya, ijtimoiy siyosat va korporativ boshqaruv” deb yoyish mumkin. Keng ma’noda buni quyidagi tamoyillarga asoslangan tijoriy faoliyatning barqaror rivojlanishi deb tushunish mumkin:

atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo’lish (ingl., E— environment);

yuqori ijtimoiy mas’uliyat (ingl., S — social);

yuqori sifatli korporativ boshqaruv (ingl., G — governance).

ESG tamoyillarining zamonaviy ko‘rinishi ilk bor BMTning sobiq bosh kotibi Kofi Annan tomonidan shakllantirilgan. U dunyoning yirik kompaniyalari boshqaruvchilariga ushbu tamoyillarni, birinchi navbatda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun, o‘z strategiyalariga kiritishni taklif qilgan.

Ushbu tushunchaning asosiy mohiyati shundan iboratki, yirik kompaniyalar faqatgina pul topish, ko‘proq daromad topishni maqsad qilib qo‘ymagan. Bugun ular jamiyat rivojiga hissa qo‘shish, jumladan, xayriya ishlarini bajarish, o‘z xodimlarining haququqlarini ta’minlash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda ko‘maklashish kabi mas’uliyatlarni ham zimmalariga olishmoqda. Shu bilan birga, faoliyati davomida atrof-muhit, tabiat, ekologiyaga zarar yetkazmaslik, milliy qonunlarga rioya qilish, ta’minot tizimining sog‘lom va barqaror ishlashini ta’minlashga ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ularning barchasini bitta qilib ESG deb atash mumkin.

Mazkur atama O‘zbekistonda hali deyarli ommalashgani yo‘q, ammo xorijda allaqachon o‘z o‘rnini topib, tobora mustahkamlab bormoqda. “Tinkoff” sobiq vitse-prezidenti, Different Technologies kompaniyasi ta’sischisi va boshqaruvchisi Neri Tollardoning

soʻzlariga koʻra, yaqin kelajakda jahon investitsion fondlari barqaror rivojlanish tamoyillarini eʼtiborsiz qoldiruvchi kompaniyalarga sarmoya kiritishni toʻxtatadi.

Oʻz faoliyatiga ESG tamoyillarini joriy etgan kompaniyalar yuqori shaffoflikni taʼminlash ustida ish olib boradi. Natijada kompaniya keng omma, manfaatdor tomonlar uchun ochiq, ishonarli va prognoz qilish mumkin boʻlgan holatga keladi. Bunday kompaniyalar bilan hamkorlik qilish investorlar uchun ham, mijozlar uchun ham yoqimli. Shaffof va ochiq faoliyat koʻrsatuvchi kompaniyalar sarmoyadorlar eʼtiboriga tezroq tushadi.

ESG – etika demakdir. Yirik investitsion kompaniyalar etikaga rioya qilinmaydigan tadbirkorlik faoliyatlariga sarmoya kiritishdan xavfsirashadi. Bu narsa birinchidan sarmoyalarning yoʻqolish xavfini oshirsa, ikkinchidan, ularning obroʻsiga ham salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Bundan tashqari, ESG samarali, masʼuliyatli va ishonchli boshqaruv demakdir. Bugun moliya bozorida ijtimoiy muammolarga befarq boʻlmagan boshqaruv ishonchli boshqaruv degan qarash shakllanmoqda. Shu boisdan kompaniyaning ESG tamoyillariga qanchalik amal qilishiga oid maʼlumotlar sarmoyadorlar tomonidan sinchkovlik bilan oʻrganilmoqda.

Global iqlim oʻzgarishi sharoitida kompaniyalarning ekologiyaga taʼsiri masalasi ham dolzarb boʻlib bormoqda. Chunki iqlim isishi, qurgʻoqchilik, suv toshqinlari yoki boshqa tabiiy ofatlar jahon miqyosida insonlarning hayotiga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatib, hayot sifatini tushirayotgan boʻlsa, lokal miqyosda atrof-muhit, xususan, tuproq, suv va havoning ifloslanishi aholining noroziligini keltirib chiqarmoqda. Bu borada muayyan bir kompaniyaning ekologiyaga salbiy taʼsiri aniqlansa, bu jiddiy muammo demakdir. Bunday sharoitda kompaniyalarning samarali ekologik siyosat yuritishi juda muhim.

Xususan, Oʻzbekiston Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish

orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi farmonida ESG tamoyillariga kelajakda xalqaro savdo va moliya bozorlariga chiqishda ko'mak beruvchi omil sifatida qaralgan. Shu maqsadda tegishli vazirlik va idoralarga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) hisobdorlik tizimlarini joriy etish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'zlashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish topshirilgan.

Nazorat savollari

1. "Yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. "Yashil moliyalashtirish" tizimi tarkibini ochib bering.
3. Qanday loyihalar "yashil loyihalar" hisoblanadi?
4. "Yashil loyihalar"ni investitsiyalashda qanday moliyaviy dastaklardan foydalaniladi?
5. "Yashil obligatsiyalar" nima va uning qanday turlari mavjud?
6. Jahon "yashil obligatsiyalar" bozorining amal qilish xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini tahlil eting.

5 BOB. “YASHIL ENERGETIKA” BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

5.1.”Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda tiklanadigan energiya manbalarining o‘rni

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer shari aholisi muttasil ko‘payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa shiddat bilan qisqarmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qo‘yayotir. Shu bois dunyo bo‘yicha katta kuch bilan yashil energetika (qayta tiklanuvchi energiya manbalari) tizimiga o‘tishga urg‘u berilmoqda. Buning ikki muhim asosiy sababi bor.

Avvalo, dunyo miqyosida energiya hosil qiladigan manbalar tugab borayotgani bo‘lsa, ikkinchi sababi atmosferaga zararli chiqindi gazlar chiqarilishi hisobiga havoning keskin ifloslanishi va global iqlim muammolari vujudga kelayotganidir.

Energiya va energiya resurslari har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi va aholisi farovonligini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi. Soha mutaxassislari va olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg‘i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60-150 yil ishlatishga yetadi. Shu sababli, ko‘plab davlatlarda energiya xavfsizligini ta‘minlash va energiya samaradorligini oshirish siyosati qo‘llanmoqda.

“Yashil texnologiyalar”- ishlab chiqarish jarayonlari va ta‘minot zanjirlari ekologik toza yoki an‘anaviy ishlab chiqarish usullariga nisbatan kamroq zararli bo‘lgan texnologiyalardir. Ushbu texnologiyalar ekologik, iqtisodiy, texnologik va innovatsion sohalarda tatbiq etilib, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish va hokazo masalalarni hal qiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanish misollari sifatida suvni biologik tozalash, gidroenergetika, quyosh energiyasi, yashil AKT, har qanday turdagi chiqindilarni qayta ishlash (BMP), shu jumladan organik chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini keltirib o‘tish mumkin.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, **O'zbekiston uglevodorod energiyasi** — neft, gaz, ko'mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo'qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag'ni talab qiladi. Buning o'rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali bo'lgan “yashil energetika”ga o'tish muqarrar. Zero, butun dunyo shu yo'lni tanlayapti.

“Yashil energetika”ga o'tishda ikkita vazifani hal etish orqali iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash nazarda tutilmoqda:

Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg'i muvozanatini diversifikatsiya qilish, ya'ni an'anaviy yoqilg'i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga tabiiy yoqilg'ilar (tabiiy gaz, ko'mir)ning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish e'tiborga olingan.

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirish hamda sanoat hududlarining ekologik holatini yaxshilash vazifalari belgilab berilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo'lgan quyosh energiyasi amaliyotda yaxshi o'zlashtirilgan.

2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirishni, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yilgan. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirilgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt soatga o'sishi kutilmoqda:

Birinchidan, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplash nazarda tutilgan.

Ikkinchidan, global muammoga aylangan iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tinimsiz izlanishi kerak.

O'zbekiston 2030-yilgacha "yashil energetika" manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalardan sanoatning barcha yo'nalishlarida - shahar transport tarmog'ida, uy-joy, mehmonxona va issiqxona xo'jaligida keng foydalanish mumkin. Atrof-muhit ifloslanishining oldini olishda esa, chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash va boshqarish, atmosferaga chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish, tuproqni tiklash borasidagi loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari- atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish - ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, qidiruv, joriy etish, loyihalash, qurilish-montaj ishlari va foydalanishga doir ishlar, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, uni tashish, to'plash, realizatsiya va iste'mol qilish bilan bog'liq faoliyat;

Yashil energiya-bu quyosh nuri, shamol yoki suv kabi tabiiy resurslardan ishlab chiqariladigan har qanday energiya turi. Bu ko'pincha qayta tiklanadigan energiyadan kelib chiqadi, ammo qayta tiklanadigan va yashil energiya o'rtasida ba'zi farqlar mavjud, biz ularni quyida ko'rib chiqamiz.

Yashil energiya manbalari atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari kabi omillar bilan atrof-muhitga zarar yetkazmaydi.

"Yashil to'rtlik" to'rtta asosiy yashil energiya avlodlari: shamol, quyosh, suv va yadro.

Bugungi kunda quyosh, shamol va suv - ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishning afzalliklari haqida gapirishning hojati

yo‘q, ular haqida deyarli hamma biladi. Masalan, quyosh “xom ashyosi” (quyosh nuri) erkin va bitmas-tuganmas (ayniqsa, bizning sharoitimizda – O‘zbekistonda mintaqaga qarab quyoshli kunlar yiliga 160-200 kunni tashkil qiladi) va shamol energiyasi an'anaviy usullar yordamida elektr energiyasini yetkazib berish qiyin bo‘lgan joylar uchun eng maqbul yechimdir. Ammo quyosh energiyasi ham, shamol energiyasi ham sezilarli kamchilikka ega: ular elektr energiyasini ishonchli va barqaror ta'minlay olmaydi. Quyosh porlamaydi, shamol esa kunduzi ham, kechasi ham esmaydi. Gidroelektr stansiyalarining ishlashi simlarga va tabiatning "kayfiyatiga" ham bog‘liq. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun "yashil to‘rtlik" ning yana bir a'zosi yordamga keladi - uglerodsiz energiya - yadroviy ishlab chiqarish.

Quyosh, gidro va shamol energiyasida bo‘lgani kabi, atom elektr stansiyalari ham elektr energiyasini ishlab chiqarishda karbonat angidrid gazini ishlab chiqarmaydi. Ma'lumki, karbonat angidridning to‘planishi issiqxona effekti va iqlim o‘zgarishi kabi xavflarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, atom elektr stansiyasi sanoat korxonalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini (masalan, shifoxonalarni) ishonchli va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlashi mumkin, ular uchun uzluksiz elektr ta'minoti juda muhim hisoblanadi. Kelajakda ekologik toza “yashil energiya” hayotimizning ajralmas qismiga aylanishini kundan-kunga ko‘proq odamlar tushunmoqda. Quyosh, shamol, suv va yadro energetikasi bir-birini to‘ldiradigan va mustahkamlaydigan yashil energiyani barqaror ta'minlash uchun optimal muvozanatni yaratadi.


Yashil energiyaning eng keng tarqalgan oltita shakli:

1. Quyosh energiyasi

Ushbu keng tarqalgan qayta tiklanadigan yashil energiya manbai odatda quyosh nurini ushlab, uni elektr energiyasiga aylantiradigan fotosellar yordamida ishlab chiqariladi. Quyosh energiyasi binolarni isitish va issiq suv ta'minoti, shuningdek pishirish va yoritish uchun ishlatiladi. Quyosh energiyasi endi uy sharoitida, shu jumladan bog‘ni yoritishda foydalanish uchun yetarlicha arzon bo‘ldi, garchi u butun mahallalarni quvvatlantirish uchun katta miqyosda ishlatilsa ham.

Quyidagi 5.1.chizmada qayta tiklanuvchi energiya manbalari keltirilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari



2. Shamol energiyasi

Shamol energiyasi, ayniqsa dengiz va baland tog‘li obyektlar uchun mos, turbinalarni aylantirish uchun butun dunyo bo‘ylab havo oqimi energiyasidan foydalanadi, keyinchalik ular elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

3. Gidroenergetika

Gidroelektr stansiyasi deb ham ataladigan ushbu turdagi yashil energiya ishlab chiqarish uchun daryolar, daryolar, to‘g‘onlar yoki boshqa joylardagi suv oqimlaridan foydalanadi. Gidroenergetika uydagi quvurlar orqali suv oqimi yordamida kichik miqyosda ham ishlashi mumkin yoki bug‘lanish, yomg‘ir yoki okeanlardagi suv oqimlaridan kelib chiqishi mumkin.

4. Geotermik energiya

Ushbu turdagi yashil energiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer qobig‘i ostida saqlanadigan issiqlik energiyasidan foydalanadi. Ushbu manbaga kirish uchun burg‘ilash kerak bo‘lsa-da, bu atrof-muhitga ta'sirini shubha ostiga qo‘yadi. Geotermal energiya minglab yillar davomida issiq buloqlarda suzish uchun ishlatilgan va xuddi shu manbadan turbinalarni aylantiradigan va elektr energiyasini ishlab chiqaradigan bug ' uchun foydalanish mumkin.

Islandiya kabi ba'zi mamlakatlarda geotermal resurslarga kirish oson bo‘lsa-da, foydalanish qulayligi uchun bu resurs joylashuvga bog‘liq va to‘liq "yashil" bo‘lish uchun burg‘ilash tartib-qoidalarini diqqat bilan kuzatib borish kerak.

5. Biomassa

Ushbu qayta tiklanadigan manbani haqiqatan ham "yashil energiya"manbai deb atash uchun ehtiyotkorlik bilan boshqarish kerak. Biomassa elektr stansiyalari energiya ishlab chiqarish uchun yog‘och chiqindilari, talaş va yonuvchan organik qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan foydalanadi. Ushbu materiallar yoqilganda issiqxona gazlari chiqarilsa-da, bu chiqindilar hali ham neftga asoslangan yoqilg‘idan ancha past.

6. Bioyoqilg‘i

Yuqorida aytib o'tilganidek, biomassani yoqish o'rniga, bu organik materiallar etanol va biodizel kabi yoqilg'iga aylantirilishi mumkin. 2010-yilda dunyodagi transport yoqilg'isining atigi 2,7 foizi bioyoqilg'iga o'tkazib berildi va 2050-yilga kelib uning quvvati mutaxassislarning fikriga ko'ra 25% dan ko'proqni qondira oladi.

“Yashil energiya” juda kam ifloslanish bilan ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiiy energiya jarayonlarini o'z ichiga oladi. Quyosh energiyasi, geotermal energiya, okean energiyasi va shamol energiyasi energiya ehtiyojlarini qondirish va iqlim o'zgarishining oldini olishda yordam beradigan yashil energiyaning muhim manbalaridan biridir.

Qayta tiklanadigan energiya resurslari bugungi kunda dunyodagi elektr energiyasining 26% ni tashkil qiladi, biroq IEA ma'lumotlariga ko'ra, uning ulushi 2024-yilga borib 30% ga yetishi kutilmoqda. Tiklanish 2019-yilda texnologik xarajatlarning pasayishi va atrof-muhit muammolari tufayli global sekinlashuvdan keyin sodir bo'ldi.

Kelajakda qayta tiklanadigan energiya manbalari 2024-yilga kelib dunyoda quyosh quvvati 600 gigavattga (GVt) o'sishi, ya'ni Yaponiyaning o'rnatilgan umumiy elektr quvvatidan deyarli ikki baravar ko'p bo'lishi bashorat qilinmoqda. Umuman olganda, qayta tiklanadigan elektr energiyasi 2024-yilga kelib 1200 GVt ga o'sishi prognoz qilinmoqda, bu AQShning umumiy elektr quvvatiga teng.

2019-2030-yillar davomida mamlakatimizda yalpi ishlab chiqiladigan elektr energiyasida quyosh va shamoldan olinadigan energiya ulushini 13,8 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Ma'lumki, quyosh va shamoldan energiya olish ko'p jihatdan ob-havoga bog'liq. Shu bois, bu energiya quvvati kamayganda o'rnini to'ldirish uchun boshqa arzon va ekologik toza manbalarni yaratish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Shuningdek, ekologik muammolar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq bugungi holat vodorod energetikasini yana-da rivojlantirishni taqozo etyapti. Xalqaro ekspertlar 2050-yilda vodorod energetikasi ulushi dunyo miqyosida 18 foiz, 2100-yilda esa 40 foizdan oshishini taxmin qilmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari vodorod energetikasini rivojlantirish orqali

atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid miqdorini 95 foizgacha kamaytirishni rejalashtirgan.

Dunyoda vodorod energetikasini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo'yicha keng miqyosda ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2050-yilgacha yoqilg'iga bo'lgan umumiy ehtiyojning 25 foizini vodorod vositasida qondirishni maqsad qilgan. Yaponiya vodorod dasturida 2020-yilda 1,4 million, 2030-yilda esa 5,3 million dona vodorodli yoqilg'i elementini foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Xitoyda 2050-yilda jami ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmining 10 foizi vodorod hissasiga to'g'ri kelishi belgilangan. 2018-2019-yillar mobaynida Avstraliya, Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSHning ayrim shtatlari o'z vodorod strategiyasini tasdiqlagan.

Vodorod energetikasining hozirga qadar keng ommalashmaganiga asosiy sabablardan biri uni ishlab chiqarish tannarxi balandligidir. Mavjud texnologiyalar yordamida bir birlik vodorod energiyasi olish uchun 3-4 birlik energiya sarflanadi.

Vodorod toza yoqilg'i bo'lib, yoqilg'i hujayrasida iste'mol qilinganda faqat suv hosil qiladi. Tabiiy gaz, yadroviy energiya, biomassa va quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan energiya vodoroddan ishlab chiqarilishi mumkin.

Vodorod energiyasining afzalliklari: yuqori energiya samaradorligi; katta ekologik va ijtimoiy imtiyozlar; iqtisodiy raqobatbardoshlik.

Hozirgi vaqtda dunyo iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida vodorod energiyasi bilan tajriba o'tkazmoqda:

- energiya ishlab chiqarish, saqlash va taqsimlash;
- binolar va uy xo'jaliklari uchun elektr, issiqlik va sovitish;
- sanoat tarmoqlari;
- xomashyoni qazib olish va ishlab chiqarish;
- isitish jarayoni.

5.2. Tiklanadigan energiya iste'molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari

O'zbekistonda ham aholi soni ko'payishi hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanib, odamlarning turmush darajasi yaxshilanib borgan sari elektr energiyasiga bo'lgan talab oshib bormoqda. So'nggi besh yilda yurtimizda elektr energiyasi iste'moli 20 foizga, jumladan, aholi tomonidan sarflanishi 31 foizga ortgani fikrimiz tasdig'idir. E'tiborlisi, bu raqam bir joyda to'xtab qolayotgani yo'q, o'sish yiliga 6 foizni tashkil etyapti.

“Yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko'pni tashkil etadi. Boz ustiga, “yashil energetika” sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko'paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyotimiz uchun mislsiz foyda keltiradi.

“Yashil energiya” atrof-muhit uchun muhimdir, chunki u qazib olinadigan yoqilg'ining salbiy ta'sirini ekologik toza alternativalar bilan almashtiradi. Tabiiy resurslardan olinadigan yashil energiya ham tez-tez qayta tiklanadigan va toza bo'ladi, ya'ni ular issiqxona gazlarini chiqarmaydi yoki ularni oz miqdorda chiqaradi va ko'pincha osonlikcha mavjud bo'ladi.

“Yashil energiya” manbalarining to'liq hayot aylanishini hisobga olsak ham, ular qazib olinadigan yoqilg'iga qaraganda kamroq issiqxona gazlarini, shuningdek, havoni ifloslantiruvchi moddalarning kam yoki past darajasini chiqaradi. Bu nafaqat Sayyora uchun yaxshi, balki havodan nafas olishi kerak bo'lgan odamlar va hayvonlarning salomatligi uchun ham yaxshiroqdir.

“Yashil energiya” barqaror energiya narxlariga olib kelishi mumkin, chunki bu manbalar ko‘pincha mahalliy ishlab chiqariladi va geosiyosiy inqiroz, narxlarning ko‘tarilishi yoki ta‘minot zanjiri uzilishlariga unchalik ta‘sir qilmaydi. Iqtisodiy foyda, shuningdek, ko‘pincha ishchilar ishlaydigan jamoalarga xizmat ko‘rsatadigan obyektlarni qurishda ish o‘rinlarini yaratishni o‘z ichiga oladi. 2019-yilda qayta tiklanadigan energetika dunyosida 11 million ish o‘rni yaratildi va biz sof nol kabi maqsadlarga erishishga intilayotganimiz sababli bu raqam ko‘payadi.

Quyosh va shamol kabi manbalar orqali energiya ishlab chiqarishning mahalliy tabiati tufayli energiya infratuzilmasi yanada moslashuvchan va markazlashtirilgan manbalarga kamroq bog‘liq bo‘lib, ular muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin, shuningdek, ob-havo bilan bog‘liq iqlim o‘zgarishiga nisbatan kamroq chidamli.

“Yashil energiya” dunyoning ko‘plab qismlarining energiya ehtiyojlarini qondirish uchun arzon yechimdir. Vaziyat yanada yaxshilanadi, chunki xarajatlar yanada kamayadi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil energiya mavjudligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda yashil energiyadan foydalanishning ko‘plab misollari mavjud – energiya ishlab chiqarishdan tortib binolarni, suvlarni va transport vositalarini issiqlik bilan isitishgacha. Ko‘pgina sanoat tarmoqlari yashil yechimlarni o‘rganmoqda va bu yerda bir nechta misollar mavjud:

1. Binolarda isitish va sovutish

“Yashil energiya” yechimlari katta ofis binolaridan tortib odamlarning uylarigacha bo‘lgan binolar uchun ishlatiladi. Bularga quyosh suv isitgichlari, biomassa qozonlari va geotermal manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik va qayta tiklanadigan manbalar bilan ishlaydigan sovitish tizimlari kiradi.

2. Sanoat jarayonlari

Sanoat jarayonlari uchun qayta tiklanadigan issiqlik biomassa yoki qayta tiklanadigan elektr energiyasi yordamida ishga tushirilishi mumkin.

Vodorod hozirda sement, qora, po‘lat va kimyo sanoati uchun qayta tiklanadigan energiyaning yirik yetkazib beruvchisi hisoblanadi.

3. Transport

Barqaror bioyoqilg‘i va qayta tiklanadigan elektr energiyasi ko‘plab sohalarda transport uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Avtomobilsozlik qazib olinadigan yoqilg‘ilarni almashtirish uchun elektrlashtirishning oldinga siljishining aniq namunasidir, ammo aerokosmik va qurilish elektrlashtirishni faol ravishda o‘rganadigan boshqa sohalardir.

Kelajakda “Yashil energiya” qazib olinadigan yoqilg‘ilarni almashtirishga qodir, ammo bu maqsadga erishish uchun turli xil vositalar yordamida turli xil ishlab chiqarish talab qilinishi mumkin.

Masalan, geotermal energiya, ayniqsa, ushbu manbadan foydalanish oson bo‘lgan joylarda samarali bo‘ladi, shamol yoki quyosh energiyasi boshqa geografik joylarga yaxshiroq mos kelishi mumkin. Biroq, bizning ehtiyojlarimizni qondirish uchun ko‘plab yashil energiya manbalarini birlashtirish va ushbu resurslarni ishlab chiqarish va ishlab chiqish sohasidagi yutuqlarni hisobga olgan holda, qazib olinadigan yoqilg‘ilarni asta-sekin yo‘q qilish mumkinligiga ishonish uchun barcha asoslar mavjud.

“Yashil energiya”ning iqtisodiy hayotiyligini tushunish qazib olinadigan yoqilg‘i bilan taqqoslashni talab qiladi. Gap shundaki, osongina mavjud bo‘lgan Fotoalbom resurslari qurib keta boshlagach, bu turdagi energiya narxi faqat tanqislik tufayli oshadi.

Qazilma yoqilg‘ilar qimmatlashayotgan bir paytda, toza energiya manbalarining narxi pasaymoqda. “Yashil energiya” foydasiga boshqa omillar ham ishlaydi, masalan, quyosh fermalari kabi nisbatan arzon mahalliy energiya yechimlarini ishlab chiqarish qobiliyati. “Yashil energiya” yechimlariga qiziqish, sarmoya kiritish va rivojlantirish

xarajatlarni kamaytiradi, chunki biz o‘z bilimlarimizni oshirishda davom etamiz va o‘tgan yutuqlardan foydalanishimiz mumkin.

Natijada, “yashil energiya” nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki afzal qilingan variantga aylanishi mumkin.

“Yashil energiya”ning samaradorligi biroz joylashuvga bog‘liq, chunki tez-tez va kuchli quyosh nuri kabi mos sharoitlar mavjud bo‘lsa, tez va samarali energiya yechimini yaratish oson.

Biroq, har xil turdagi energiyani chinakam taqqoslash uchun energiya manbasining to‘liq hayot aylanishini tahlil qilish kerak. Bunga yashil energiya manbasini yaratish uchun ishlatiladigan energiyani baholash, qancha energiya elektr energiyasiga aylanishi mumkinligini aniqlash va energiya yechimini yaratish uchun zarur bo‘lgan har qanday atrof-muhitni tozalash kiradi.

Hozirgi vaqtda shamol elektr stansiyalari “yashil energiya”ning eng samarali manbai hisoblanadi, chunki ular, masalan, quyosh panellarini ishlab chiqarishga qaraganda kamroq qayta ishlash va qayta ishlashni talab qiladi.

Texnologiya va kompozit sinovlardagi yutuqlar uzoq umr ko‘rishga yordam berdi va shuning uchun shamol turbinalarining foydalari aniq. Biroq, xuddi shu narsani quyosh panellari haqida ham aytish mumkin.

ESLATMA

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi faoliyatini

muvofiglashtiradi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi texnik reglamentlarni, normalar va qoidalarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning bajarilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqariladigan energiya bozorida narx va tarif siyosatiga doir masalalar yuzasidan takliflar kiritadi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari resurslarining, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqariladigan energiyaning va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining davlat hisobini yuritadi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar joriy etilishiga ko'maklashadi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqariladigan energiya bozorida qulay raqobatbardoshlik hamda ishbilarmonlik muhiti shakllantirilishini rag'batlantiruvchi narx va tarif siyosatini takomillashtirish asosida amalga oshiradi;

iqtisodiyot tarmoqlariga va maishiy sektorga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi resurslarni va energiyani tejovchi ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Darhaqiqat, ko‘mir uchun ishlatiladigan energiyaning umumiy samaradorligi uning dastlabki energiya qiymatining atigi 29 foizini tashkil qiladi, shamol energiyasi esa dastlabki energiya xarajatlarining 1164 foizini qaytaradi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari hozirda samaradorligi bo‘yicha tasniflanadi: shamol kuchi; geotermal; gidroenergetika; yadro; quyosh energiyasi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish yashil energiya asosida qayta tiklanadigan energiya almashtirish talab qiladi

5.3. Kioto protokoli mohiyati va ahamiyati

Kioto protokoli Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Asosiy konvensiyasiga o‘zgartish kiritdi. Ushbu shartnoma global isishishni kamaytirish va 150 yillik industrializatsiya davridan keyin harorat oshishi oqibatlarini bartaraf etish uchun mamlakatlarni birgalikda birlashtirishga qaratilgan xalqaro shartnomadir. Kioto protokoli qoidalari ratifikatsiya qiluvchi davlatlar uchun majburiy bo‘lgani.

Kioto protokolining maqsadi butun dunyo bo‘yicha issiqxona gazlari emissiyasini 2008 va 2012-yillar oralig‘idagi 1990-yil darajasidan 5,2 foizgacha kamaytirish edi. Ammo 2010 yilga kelib Kioto Protokolini qabul qilmasdan chiqadigan emissiya darajalariga nisbatan bu maqsad 29 foizga qisqartirildi.

Kioto protokoli bu iqlim o‘zgarishini oldini olish bo‘yicha xalqaro kelishuv bo‘lib, uni ratifikatsiya qilgan barcha mamlakatlar o‘zlarining iqtisodiy faoliyatida global gaz chiqindilarini kamaytirish majburiyatini olganlar. U 1997-yilda tasdiqlangan va Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Asosiy Konvensiyaga a‘zo mamlakatlar gaz chiqindilarini kamaytirish uchun eng qat’iy talablar aks ettirilgan bitimni tuzish kerak degan qarorga kelishlari uchun bir yil vaqt kerak bo‘ldi.

Ba’zi uchrashuvlar, bahs-munozaralar va munozaralardan so‘ng Konvensiya 1994-yilda kuchga kirdi. Bir yil o‘tgach, hukumatlar

Orolning qurib qolgan tubidan kuchli shamollar zaharli moddalar bilan to'yingan tuzlar va chang-to'zonni havoga ko'tarishi aholi sog'ligiga jiddiy xavf solmoqda, surunkali qon kasalliklarini, nafas olish yo'llari, buyrak, oshqozon-ichak trakti, yurak-tomir tizimi, shuningdek, o'tpufakda tosh paydo bo'lishi, onkologiya va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarmoqda.

“O'zgidromet” ma'lumotlariga ko'ra, respublikaning suv oqimi asosan I va II toifalarga mansub toza va o'rtacha ifloslangan suvlar toifasiga kiradi.

Ifloslantiruvchi moddalarning suv obyektlariga tashlanishi ortib borayotganligi ochiq suv oqimlarining ifloslanishiga sabab bo'lmoqda va buning oqibatida suv flora va faunasiga o'nglab bo'lmas zarar yetkazilmoqda, shuningdek, aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Orolbo'yi hududlarida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan tub islohotlar jadal tus olgan. So'nggi 6 yil ichida Orol

dengizining qurigan tubida 1 million 800 ming gektar maydonda oʻrmonlashtirish ishlari olib borildi. Bugun dengizning qurigan tubida yashil qoplamalar paydo boʻldi.

Shuningdek, Oʻzbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida Orolboʻyi mintaqasining ekologik tizimni muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan choralar koʻrilishi alohida belgilab qoʻyildi. Bu esa soʻnggi yillarda Orolboʻyi hududida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli amaliy ishlarni izchil davom ettirishni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

2.2. Atmosfera havosining ifloslanishi

Mamlakatda metallurgiya, energetika korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, neft-gaz va konchilik sanoati korxonalari hamda avtotransport atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalardir.

Atmosfera havosining joriy ifloslanish darajasi, shuningdek, kelajakda chiqindilar chiqarish hajmlarining yanada koʻpayishi elektr va issiqlik energiyasi manbalarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etadi.

Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalari hajmi oshib borishiga transport vositalarining ekologik darajasi, foydalanilayotgan yoqilgʻi va yoʻl harakatini tashkil etish sifatiga bogʻliq boʻlib qolmoqda.

2.3. Oʻsimlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash

Oʻsimlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi ekotizimlar holatiga bevosita bogʻliqdir. Oʻzining geografik va iqlim xususiyatlariga koʻra, ayniqsa, arid va togʻ ekotizimlarining nozikligi va suv resurslarining cheklanganligi sababli Oʻzbekiston salbiy ekologik, shu jumladan transchegaraviy omillarning taʼsiriga duchor boʻlmoqda.

Sugʻorma qishloq xoʻjaligini ekstensiv rivojlantirish yoʻli, shoʻr bosish, botqoqlanish, tuproq eroziyasi, suvlarning ifloslanishi,

daryolar oqimini tez-tez o'zgartirish, mollarni bir yaylovda qayta-qayta o'tlatish, daraxtzorlar va to'qay o'simliklarini kesish hamda boshqa omillar o'simlik va hayvonot dunyosining bir qancha turlari o'sadigan va yashaydigan joylar yo'qolishiga hamda ularning soni va areallari kamayishiga olib keldi.

Ayni vaqtda hayvonot dunyosining 91 turi Xalqaro Qizil kitobga, o'simlik dunyosining 324 turi va hayvonot dunyosining 184 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan.

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyada Konvensiya tomonlariga quruqlikdagi qo'riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining o'rmon fondi 11 975,2 ming gektarni yoki mamlakat hududining 26,7 foizini, shu jumladan o'rmon bilan qoplangan maydon 3 235,7 ming gektarni tashkil etadi.

O'rmonlar asosan ekologik (tuproqni muhofaza qilish, suvni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini va boshqa tabiat resurslarini saqlash va muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish, rekreatsion) vazifalar va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi.

Aholi ko'proq zich yashaydigan va yirik sanoat obyektlari yaqinidagi hududlarda o'sadigan daraxt va butalarga eng ko'p antropogen og'irlik tushmoqda.

2.4. Chiqindilarni boshqarish

Antropogen faoliyat respublikada milliardlab tonna sanoat chiqindilari, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilar to'planib qolishiga olib keldi, ular ko'pincha talabga javob bermaydigan poligonlarda, otvallar va shlam saqlanadigan omborlarda joylashtirilgan.

Konchilik, neft-gaz qazib chiqarish, ko'mir va kimyo sanoati korxonalarida sanoat chiqindilari ayniqsa tez to'planmoqda.

Sanoat chiqindilari hosil bo'lishini kamaytirish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash yoki takroran foydalanish texnologiyalarining mavjud emasligi bunday chiqindilar to'planishiga imkoniyat yaratmoqda.

Bundan tashqari, taqiqlangan va yaroqsiz holga kelgan kimyoviy moddalarning (pestitsidlar va gerbitsidlar) qoldiq zaxiralarining mavjudligi ham jiddiy muammo hisoblanadi.

Respublikadagi mavjud qattiq maishiy chiqindilar poligonlari sanitariya va ekologiya normalariga javob bermaydi. Qattiq maishiy chiqindilarning katta qismi betartib va ruxsatsiz joylarda to'planmoqda yoki maxsus vositalarni qo'llamasdan yoqib yuborilmoqda.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilishning institutsional muammolari

3.1. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish

Respublikada barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat siyosatini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot sektorlarini rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqishda ekologiyaga oid holatlar yetarli darajada inobatga olinmayapti.

Ekologik standartlarning yo'qligi yoki eskirgan standartlardan foydalanish dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda mavjud ekologik muammolarni obyektiv baholash imkonini bermaydi.

3.2. Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish respublikada samarali ekologiya siyosatini olib borishning g'oyat muhim sharti hisoblanadi.

Ayni vaqtda atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar respublikada qo'llanilayotgan asosiy iqtisodiy vosita hisoblanadi. Biroq, atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun amaldagi kompensatsiya to'lovlari tizimi rag'batlantiruvchi funksiyaga ega emas, chunki ularning miqdori xo'jalik yurituvchi subyektlarni ifloslantiruvchi moddalarni oqizib yuborish/chiqarib tashlash hajmlarini pasaytirishga va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirmaydi.

3.3. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazorati

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi nazorat tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, respublikada, shu jumladan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarda nazorat tadbirlari o'tkazilishini cheklash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Biroq, ular tomonidan olib borilayotgan nazorat tadbirlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga daxl qilmasligini hisobga olganda, davlat organining nazorat funksiyalarini bunday cheklab qo'yish atrof-muhitni muhofaza qilish sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

7.2 O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari

Mamlakatimizda yashayotgan 37 milliondan ziyod aholining yarmidan ko'pi ekologik xavfli bo'lgan muhitda istiqomat qilmoqda.

O'zbekistonning ekologik siyosati – davlatning ekotizimlarini muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmui.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun ekotizimlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash, ya'ni jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo'llashdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Atrof-muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi.

Konsepsiya ko‘rsatib o‘tilgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlari yo‘lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta‘minlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof-muhitning qulay holatini ta‘minlash, atrof-muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta‘sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish; atrof-muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va biologik resurslar qayta tiklanishini ta‘minlash konsepsiyaning maqsadlari hisoblanadi:

Quyidagilar Konsepsiyaning vazifalari hisoblanadi:

atrof-muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa‘ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta‘minlash;

qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof-muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish;

atrof-muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta‘minlash;

ekologik xavfsizlikni e‘tiborga olgan holda, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli

kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

atrof-muhitga minimal og'irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta'minlovchi jamiyatni shakllantirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Konsepsiyani amalga oshirishda quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va takomillashtirish — xalqaro normalarni implementatsiya qilish, ekologik qonunchilikni kodlashtirish, ekologik sug'urtalash, audit va strategik ekologik baholash tizimini joriy etish, ekologik sertifikatlashtirishni muvofiqlik sertifikati tizimiga integratsiya qilish, atrof-muhit ifloslanishini hisoblab chiqishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish — tabiiy resurslardan ularning buzilishini istisno etadigan tarzda oqilona foydalanish, majburiy ekologik ekspertiza o'tkazish, ekotizimlarning o'z potensial sig'imini qayta tiklash imkoniyatlarini baholash;

tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish — tashlanmalarni tashlash uchun to'lov miqdorlarini ularning hajmiga hamda atrof-muhit va aholi sog'ligi uchun xavfliligiga bog'liqligi, atrof-muhitni muhofaza qilishni budjetdan moliyalashtirishning maqbul darajasi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish — atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining huquq hamda vakolatlarini aniq chegaralash, ekologik yo'nalishdagi barcha organlarni yagona davlat organi doirasida optimal darajada markazlashtirish va qarorlar qabul

qilish uchun unga zarur, asoslantirilgan vakolatlar berish, nazorat organlarini moddiy-texnik jihozlashning maqbul darajasi;

kompleks ekologik monitoringni olib borish — atrof tabiiy muhitning yagona davlat ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish, axborot resurslari fondini shakllantirish;

innovatsion texnologik jarayonlar va metodikalarni ishlab chiqish — ekologik toza texnologiyalar, ishlab chiqarishlar, xomashyo, materiallarining turlari, mahsulotlar va uskunalarning ilmiy ishlanmalariga, ekotizimlarning zaifligini va tabiiy muhit ifloslanish darajasining aholi salomatligiga va atrof-muhit obyektlariga ta'sirini tadqiq etishga investitsiyalar kiritish;

ekologik madaniyat va ta'limni shakllantirish — fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta'limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof-muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi;

xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — atrof-muhitning xavfsiz darajasini saqlab qolish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish ishida xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarida ishtirok etish, atrof-muhitni muhofaza qilishga va tabiatdan oqilona foydalanishga qo'shimcha tashqi investitsiyalarni jalb etish.

Atrof-muhit obyektlarining hozirgi holati

Respublikaning yer fondi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya uchun mo'ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega yerlar, o'rmon va suv fondi yerlari, shuningdek, zaxira yerlaridan iborat.

1990-yildan buyon, 692,6 ming gektar yer turli sabablarga ko'ra foydalanishdan chiqarildi. Ayrim ingrediyentlar bo'yicha fon ko'rsatkichlariga nisbatan tuproqning ifloslanishi Sirdaryo, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan.

O'zbekistonning suv resurslari qayta tiklanadigan yer usti va yer osti suvlari, shuningdek, antropogen foydalanishdan qaytadigan suvlar (drenaj va oqova suvlar)dan iborat. O'rtacha ko'p yillik jami oqar suv hajmi 114,4 km³ni tashkil etadigan Amudaryo va Sirdaryo transchegaraviy daryolar O'zbekistonda yer usti suv oqimini shakllantiradigan asosiy manbalar hisoblanadi.

O'zbekiston hududida 17 777 ta tabiiy oqar suv manbalari (Amudaryo havzasida — 9 930 ta, Sirdaryo havzasida — 4 926 ta) va 500 dan ortiq ko'l bo'lib, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ularning eng kattasi hisoblanadi, shuningdek, prognoz qilingan hajmi sutkasiga 75,5 mln m³ni tashkil etadigan chuchuk suv va biroz sho'rlangan yer osti suvlari konlarida 26 mingdan ziyod quduqlar mavjud.

Statistik axborotga ko'ra, 2018-yilda respublika bo'yicha atmosfera havosiga chiqarilgan jami ifloslantiruvchi moddalar miqdori 2,492 mln tonnani tashkil etdi, shuning qariyb 63 foizi ko'chma manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi bo'yicha "O'zgidromet" tarmog'i orqali olinadigan so'nggi yillardagi ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston shaharlarining aksariyatida atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori belgilangan normativlardan past darajadadir.

O'zbekistonda 1 800 dan ko'proq konlar va qariyb 1000 ta foydali qazilmalarning istiqbolli joylari, mineral xomashyoning 118 turi mavjud bo'lib, shularning 65 tasi o'zlashtirilmoqda.

Respublikada 400 dan ko'proq ruda konlari, shaxtalar, karyerlar, neft konlari va boshqa korxonalar, 450 ga yaqin suv olish inshootlari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh va shifobaxsh-oshxona suvlarini idishlarga quyish sexlari va zavodlari ishlab turibdi.

O'zbekistonning butun hududi yovvoyi hayvonlar yashaydigan va o'simliklar o'sadigan xilma-xil joylardan iboratdir.

Hayvonot dunyosi salkam 15,7 ming turdan iboratdir (184 turi O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan). O'simlik dunyosi 11 ming turni tashkil etadi (o'simliklarning 324 turi va

qo'ziqorinning 3 turi O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan).

Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlarida hosil bo'ladigan chiqindilar atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalari hisoblanadi.

2022-yilda O'zbekistonda sanoat korxonalaridan atmosfera havosiga yillik sanoat tashlamalari miqdori 874 ming tonnani tashkil etdi. Tashlamalarning 360,5 ming tonnasi (40%) – neft va gaz, 200 ming tonnasi (22,8%) – energetika, 185,5 ming tonnasi (21,2%) - metallurgiya, 25 ming tonnasi (2,8%) – qurilish va 103 ming tonnasi (11,7%) boshqa tarmoqlar hisobiga to'g'ri keladi.

Mamlakatda chiqindilar ko'miladigan va utilizatsiya qilinadigan 296 ta joy, shu jumladan qattiq maishiy chiqindilar uchun (221), sanoat chiqindilari (16), qurilish chiqindilari (4), shlam jamlanadigan (21), chiqindi omborlari (15), maxsus poligonlar (19), shuningdek, xavfli chiqindilar utilizatsiya qilinadigan 23 ta joy mavjud.

Atmosferaga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlar issiqlik elektr stansiyalari hamda sement ishlab chiqaruvchi korxonalar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 12 ta IESlar, shu jumladan, ko'mirga ixtisoslashgan "Angren" va "Yangi Angren" issiqlik elektr stansiyalari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, 36 ta sement ishlab chiqaruvchi korxona, 15 ta neft va gazni qayta ishlash hamda 4 ta metallurgiya sanoati mavjud.

Bugungi kunda sanoat korxonalaridan atmosferaga tashlanmalarni kamaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus dastur qabul qilingan. Uning doirasida 2023-yilga belgilangan 145 ta sanoat korxonalarida 723 ta chang-gazlarni tutib qolish uskunalarini ta'mirlash va yangilariga almashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish va iste'moldan chiqqan chiqindilarning hosil bo'lish yillik hajmi 100 mln. tonnadan ko'poqni tashkil etadi, ulardan 14% dan ko'pog'i zaharli hisoblanadi. Hozirgi kunda chiqindilarning barcha turlari hisobga olib borilmoqda. Misol uchun, sanoat

korxonalarida zaharli chiqindilarini hisobga olish Davstat qoʻmda ishlab chiqilgan koʻrsatmalar boʻyicha amalga oshirilmoqda: 3-shakl ekologik va zaharli chiqindilar (ZCh) va ikkilamchi materiallar resurslari shakllari (IMR) -ishlab chiqarish jarayonida xomashyo yoʻqotilishi va xavflilar kategoriyasiga kiritilgan chiqindilar. Bu maʼlumotlar Davstatqoʻmda umumlashtiriladi va “Zaharli moddalar hosil boʻlishi, foydalanishi va saqlanishi toʻgʻrisida hisobot” nomi bilan byulleten koʻrinishida, Oʻzbekiston Respublikasida ikkilamchi xomashyoning hosil boʻlishi, foydalanilishi va yetqazib berilishi nomi bilan statistik byulleten koʻrinishida har yilda bosib chiqariladi.

Ekologik muammolarni hal etish yoʻllari

Atrof tabiiy muhit holatining sifatini yaxshilash maqsadida 2030-yilga qadar quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

global ekologik muammolarni hal etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va respublikaning oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishi sohasida:

Ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan foydalanishni toʻxtatish boʻyicha Monreal protokoli talablarini bajarish yuzasidan yangi tahrirdagi Milliy dasturni va uni amalga oshirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi”ni tasdiqlash;

Parij bitimini amalga oshirish boʻyicha Harakatlar milliy rejasini ishlab chiqish va qabul qilish;

manfaatdor davlatlar bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

Oʻzbekiston Respublikasining Monreal protokoliga Kigayli tuzatishiga, Orxus konvensiyasi, Havoni uzoq masofalargacha transchegaraviy ifloslanishi toʻgʻrisidagi konvensiya va uning asosiy protokollariga, Sanoat avariylarining transchegaraviy taʼsiri toʻgʻrisidagi konvensiya, Simob toʻgʻrisidagi Minamat konvensiyasi, Xalqaro savdoda ayrim xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarga nisbatan oldindan asoslangan kelishuv tartib-taomili toʻgʻrisidagi Rotterdam konvensiyasi, Atrof-muhitga taʼsirni transchegaraviy

nuqtai nazardan baholash to'g'risidagi konvensiya va Strategik ekologik baholash haqidagi protokol, Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish bo'yicha konvensiyaga Suv va salomatlik muammolari bo'yicha protokol hamda boshqa xalqaro bitimlarga qo'shilishi maqsadga muvofiqligini o'rganish;

xalqaro moliya tashkilotlari, donor mamlakatlar bilan uzoq muddatli samarali strategik hamkorlikni ta'minlash, investitsiya loyihalari va xalqaro texnik yordam loyihalarini tayyorlash tizimini takomillashtirish;

chegaradosh davlatlar bilan quyidagi sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirishni ta'minlash:

kimyoviy, biologik, radiologik materiallar ta'siri xavfini kamaytirish;

transchegaraviy ekologik muammolar reyestrini va ularni monitoring qilish tizimlarini shakllantirish, transchegaraviy obyektlarning atrof-muhitga ta'sirini birgalikda baholash, barvaqt ogohlantirish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

transchegaraviy qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni tashkil etish;

atrof-muhit sifatining yagona normativlari, standartlarini birgalikda ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislarni mintaqa mamlakatlari uchun yagona metodika bo'yicha tayyorlash;

transchegaraviy daryolar havzalarini boshqarish va Markaziy Osiyo transchegaraviy yuza suv oqimlari monitoringining yagona kompleks tizimini yaratish;

yerlarning cho'llanish va degradatsiya darajasini kamaytirish, yer maydonlarining sifati va unumdorligini qayta tiklash sohasida:

yer resurslarini kompleks rejalashtirish va boshqarishni joriy etish salohiyatini yaratish;

o'rmon resurslari, yaylovlar va chorvachilikni, shuningdek, suv va yer resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash;

Orol dengizining O'zbekiston tomonidagi qurigan tubida dov-daraxtlar ekilgan maydonlarni ko'paytirish;

dalalarni ihotalovchi va qirg'oqlarni mustahkamlovchi daraxtzor polosalarni yaratish, tog' yonbag'irlarida supa olish, o'rmon va mevali daraxtlarni ekish orqali o'rmon-melioratsiya tadbirlari kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;

agrotexnik ekinlarni parvarish qilishda almashlab ekish keng joriy etilishini ta'minlash;

buzilgan yerlarni qayta tiklash va rekultivatsiya qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

erlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida kollektor-drenaj tarmog'ini rekonstruksiya qilish va tiklashni ta'minlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi suv omborlarini qurish;

mineral o'g'itlarni bosqichma-bosqich organik o'g'itlar bilan almashtirishni ta'minlash va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashishning biologik usullarini keng joriy etish;

organik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va qabul qilish;

ilg'or xalqaro amaliyotga va JST talablariga mos keladigan agroekologik standartlarni keng tatbiq qilish;

suv resurslarini qurib bitish va ifloslanishdan muhofaza qilish sohasida:

qishloq xo'jaligi va kommunal sohada suv resurslari yo'qotishlarni kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'moli salmog'ini kamaytirish;

sanoat korxonalarining tozalash inshootlari bilan jihozlanishini rag'batlantirish, shuningdek, sanoatda suv ta'minotining aylanma sikli keng joriy etilishini ta'minlash;

aholini markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimi bilan qamrab olish ko'lamini oshirish;

atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida:

ifloslantiruvchi moddalarni atmosfera havosiga chiqarish kamaytirilishini ta'minlash;

elektr energiya ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiy tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar ulushini ko'paytirish;

binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlarni, past uglerodli texnologiyalardan (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish;

temir yo'l tarmog'ini yanada rivojlantirish hamda yo'lovchi va yuklarni avtotransportda tashishdan temir yo'llar orqali tashishga o'tishda ko'maklashish;

transportni gaz ballon yoqilg'isiga, elektr quvvatiga va boshqa muqobil yoqilg'i turlariga o'tkazish, shuningdek, tegishli yo'l infratuzilmasini tashkil etish;

g'ildirakli transport vositalarining hamda motor yoqilg'isining "Yevro-6" ekologik toifadagi standartlarini qabul qilish;

elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishning solishtirma normalarini ishlab chiqish va qabul qilishni ta'minlash;

ifloslantiruvchi moddalar chiqarishning, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari bo'yicha kadastrlarini yaratish;

ekologik jihatlarni hisobga olgan holda, qattiq pech yoqilg'isi uchun davlat standartlarini qayta ko'rib chiqish;

issiqlik berish imkoniyatini oshirish va kul chiqarishini kamaytirish maqsadida respublikada qazib olinayotgan toshko'mirning boyitilishini ta'minlash;

transport va piyodalar oqimi kesishadigan joylarni kamaytirish, magistrallarning yuklama darajasini pasaytirish, transport oqimi tarkibini, harakat tezligi rejimini, tartibga solish siklini optimallashtirish, yo'lovchi transporti harakati uchun alohida polosalar tashkil etish, alohida velosiped yo'laklarini barpo etish hisobiga yo'l harakatining oqilona tashkil qilinishini ta'minlash;

yangidan foydalanishga topshirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo'llanilishini ta'minlash;

amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarida samaradorligi 95 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo'llanilishini ta'minlash;

biologik resurslarni saqlash va ko'paytirish, shuningdek, o'rmon fondi sifati va hajmlarini oshirish sohasida:

barcha tipdagi ekotizimlarni bir xilda qamrab olish va barcha qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tarmog'ining ekologik bog'lanishini ta'minlash orqali I - V toifalardagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonlarini ko'paytirish;

noyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar va yovvoyi o'simliklar turlarini genetik banklarda saqlash texnologiyasini joriy qilish;

biologik xavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan yagona chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, xususan, tabiiy turlarga va qishloq xo'jaligi ekinlariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan begona yot turlarni olib kirish va tarqatishni nazorat qilish;

hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlari, qo'riqlanadigan tabiat hududlarining davlat kadastrlari ma'lumotlari yagona axborot bazasi yaratilishini hamda ularni muhofaza qilish va oqilona foydalanish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida monitoring qilinishini ta'minlash;

shifobaxsh, ozuqabop va texnik o'simliklarning yovvoyi holda o'suvchi turlari tabiiy zaxiralarini xatlovdan o'tkazish;

pitomniklarda yetishtirilgan biologik xilma-xillik obyektlaridan foydalanish va ularni tabiiy muhitdan olish hajmlarini kamaytirishni rag'batlantiruvchi soliq va boj yig'implari tizimini yaratish;

yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan hayvonot dunyosi obyektlarini ko‘paytirish bo‘yicha mavjud pitomniklarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish;

Qizil kitobga kiritilgan, pitomniklarda yetishtirilgan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo‘yib yuborishni ko‘paytirish;

Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigida jayronlar sonini ko‘paytirish, yangi tashkil etiladigan qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda jayronlarning yangi populatsiyalarini tashkil qilish;

biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholash mexanizmini ishlab chiqish;

respublikaning viloyat markazlari va yirik shaharlari atrofida “yashil belbog‘lar” yaratish;

o‘rmon bilan qoplangan o‘rmon fondi hududini ko‘paytirish;

respublika o‘rmonlari atlasini yaratish maqsadida o‘rmon fondini xatlovdan o‘tkazish;

asosan biologik va ekologik xavfsiz usullardan foydalangan holda, o‘rmon zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashishning yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

o‘rmon fondining sifat tarkibini yaxshilash va uning o‘rmon zararkunandalari va kasalliklariga chidamliligini oshirish maqsadida ilmiy va seleksiya ishlarini takomillashtirish;

mexanizatsiyalashtirish darajasini oshirish hamda o‘rmon ekinlarini yaratishning yangi texnologiyalarini joriy etish hisobiga, shu jumladan gen-modifikatsiyalashtirilgan organizmlardan foydalangan holda, daraxtzorlarning sifatini va turlari xilma-xilligini oshirish;

sanoat chiqindilarining hosil bo‘lish hajmlarini kamaytirish hamda mavjud hajmlarini qisqartirish, shu jumladan xavfli chiqindilarning aholi salomatligiga va atrof-muhitga salbiy ta’sirining oldini olish sohasida:

chiqindilarni sanoat tarmoqlari va/yoki kimyoviy-fizik parametrlar asosida tasniflash tizimini joriy etish;

ishlab chiqarishda chiqitsiz va kam chiqitli texnologiyalar joriy etilishini, shu jumladan imtiyozli kreditlar taqdim etish orqali iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirishni ta’minlash;

konchilik va qayta ishlash korxonalarining chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni rag‘batlantirish;

Turg‘un organik ifloslantiruvchi moddalar to‘g‘risidagi Stokgolm konvensiyasi talablarini bajarish bo‘yicha Harakatlar milliy rejasini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishni ta’minlash;

qishloq xo‘jaligi ekinlariga ishlov berishda ishlatiluvchi yaroqsiz holga kelib qolgan kimyoviy vositalarni bosqichma-bosqich yo‘q qilish yoki ekologik jihatdan xavfsiz yo‘qotishni ta’minlash;

sanoat obyektlarida xavfli chiqindilarni ekologik jihatdan xavfsiz saqlanishini tashkil etishni ta’minlash;

o‘zining iste‘mol xususiyatlarini yo‘qotgan va tarkibida xavfli moddalar mavjud bo‘lgan tovarlar (simobli lampa va priborlar, batareykalar, akkumulyator va boshqalar)ni yig‘ish, foydalanish va/yoki zararsizlantirish tizimini tashkil etish;

tibbiy chiqindilarni yig‘ish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko‘mib tashlash tizimini tashkil etish;

zaharli kimyoviy moddalar va boshqa zaharli moddalarni ko‘mish uchun mo‘ljallangan maxsus poligonlarni konservatsiyalash bo‘yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash, shu jumladan “Chorkesar” va “Yangiobod” obyektlarini to‘liq rekultivatsiya qilish va ekologik qayta tiklash;

iqtisodiyotni ekologiyalashtirish sohasida:

resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, “yashil infratuzilma”ni yaratish;

milliy iqtisodiyotni suvdan tejab foydalanish, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo‘llashni rag‘batlantirishga yo‘naltirib o‘zgartirish, shuningdek, yuqori energiya samarador standartlar asosida inshootlar barpo etish;

ekologik jihatlarning davlat sektoral siyosatiga, shu jumladan rejalar, dasturlar va boshqa strategik hujjatlarni strategik ekologik baholash mexanizmini joriy etish, shuningdek, alohida loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash orqali integratsiyalashuvini ta'minlash;

ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potensial sig'imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish;

xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini ekologik sug'urtalash va ekologik auditdan o'tkazish tizimini tatbiq etish;

atrof-muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha xalqaro standartlarga (BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, YI va boshqalar) o'tishni ta'minlash;

davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik standartlarni qo'llashni kengaytirish;

tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini qo'llash sohasida:

“ifloslantiruvchi to'laydi” tamoyilini to'liq amalga oshirish, ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganlik va oqizganlik uchun to'lov miqdorlarining ular hajmiga hamda atrof-muhit va aholi salomatligi uchun xatarliligiga bog'liqligini ta'minlash;

Yevropa standartlari asosida nazorat qilinadigan ifloslantiruvchi moddalar sonini optimallashtirgan holda, ularni chiqarish va oqizishni samarali nazorat qilish mexanizmini joriy etish;

ekologik neytral texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish hamda ularni olib kirishni rag'batlantiruvchi soliq va bojlar tizimini yaratish;

xo'jalik faoliyatidan atrof-muhitga yetkaziladigan zararni hisoblashning samarali metodikalarini ishlab chiqish va ularni joriy etishni ta'minlash;

qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektr energiyasini

tarmoqqa yetkazib berishning maxsus xarid tarifi (“yashil tarif”)ni joriy etish orqali foydalanishni rag‘batlantiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

davlat ekologik nazorati funksiyalarini amalga oshirish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining Ekologik kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining funktsiya hamda vazifalarini aniq chegaralash, shuningdek, ularning harakatlari muvofiqlashtirilishini ta’minlash;

takrorlanishlarni bartaraf etgan holda, ekologiya sohasidagi barcha nazorat funksiyalari yagona davlat organi doirasida optimal ravishda markazlashtirilishini ta’minlash;

atrof-muhitni muhofaza qilishni, shu jumladan nazorat qiluvchi tuzilmalarni atrof-muhitning ifloslanish darajasini zamonaviy mobil tahliliy nazorat vositalari bilan jihozlash bo‘yicha budjetdan mutanosib ravishda moliyalashtirilishini ta’minlash;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassisliklar, o‘quv rejaları va mutaxassislar tayyorlash dasturlarini yangilashni ta’minlash, kadrlarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda tayyorlash tizimini takomillashtirish;

atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha I va II toifalarga mansub xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ekologik xizmatlar tashkil etishni amaliyotga tatbiq etish va ma’lum bir davr oralig‘ida majburiy tartibda ularning malakasini oshirib borish;

davlat ekologik ekspertizasi va ekologik sertifikatlashtirishni amalga oshirish sohasida:

davlat ekologik ekspertizasi o‘tkazilishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ekologik xavflilik toifasini aniqlash tizimini xalqaro standartlar asosida tanqidiy qayta ko‘rib chiqish;

“eng yaxshi maqbul texnologiyalardan foydalanish” prinsipiga o‘tish;

ekspertiza obyektlarining ta'sirini modellashtirishning zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash natijalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

ekologik normativlarni individual belgilash usulidan tarmoq usuliga o'tishni ta'minlash;

ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish va oqizish kvotalari, shuningdek, ekologiya-xo'jalik tumanlarining chiqindilarini joylashtirishning aniq mezonlarini belgilash;

ekspertizadan keyingi nazoratning samarali mexanizmini yaratish;

ekologik menejment tizimini yaratishning xalqaro standartlarini joriy etish, MDH, YI davlatlari hamda boshqa mamlakatlar bilan ekologik sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'zaro tan olish mexanizmini tatbiq etish;

ekologik sertifikatlar va sinov protokollari xorijda e'tirof etilishi uchun ekologik sertifikatlashtirish organi va sinov laboratoriyasining xalqaro darajada akkreditatsiya qilinishini ta'minlash;

amaldagi standartlarning xalqaro ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) va XEK (Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) standartlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

ekologik sertifikatlashtirish, shu jumladan g'ildirakli transport vositalarini sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish;

avtomobillarning ekologik toifalarini belgilash laboratoriyasini tashkil etish va uning akkreditatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash;

atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi sohasida:

aloqador vazirliklar va idoralar laboratoriyalarining moddiy-texnika va metodik ta'minotini tubdan yaxshilash;

respublika ichkarisida atmosfera havosi ifloslanishini avtomatik tarzda o'lchaydigan postlar tizimini yaratish;

atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I toifaga mansub xo'jalik yurituvchi subyektlarni atmosfera havosiga asosiy (tashkillashtirilgan)

turg'un manbalardan tashlanmalarni va suv obyektlarini ifloslantirish manbalaridan tashlanmalarni tahlil qiluvchi avtomatik tizimlar bilan jihozlash;

aloqador vazirliklar va idoralar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar monitoringi natijalari ma'lumotlarini yig'ishning zamonaviy axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

atrof-muhitning holati va yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik tahdidlar to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida respublikaning elektron ekologik xaritasini yaratish;

aerodinamik diametri 10 mikrondan oshmaydigan (PM10), shu jumladan aerodinamik diametri 2,5 mikrondan oshmaydigan (PM2,5) o'lchangan qattiq zarrachalar bilan atmosfera havosining ifloslanish darajasini monitoring bilan qamrab olinishini ta'minlash;

atrof-muhit obyektlari holatini baholash ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish;

davlat organlari, jamoat tashkilotlari va aholini atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli axborot bilan ta'minlash;

atrof-muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta'minlash sohasida:

ilmiy-texnik axborot bilan almashish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;

ilmiy g'oyalarni tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan uskunalarning aniq sanoat namunalariga aylantirilishini ta'minlovchi mexanizmni yaratish hamda ularni texnologik jarayonga tatbiq etish;

ekologik toza va resurs tejaydigan texnologiyalar, ishlab chiqarishlar, xomashyo, materiallari, mahsulot va uskunalarning turlari ishlab chiqilishini ta'minlash;

yuz berishi mumkin bo'lgan global va mintaqaviy iqlim o'zgarishlariga nisbatan tabiat tizimlari va xo'jalik faoliyati sektorlarining zaifligi tadqiq etilishini ta'minlash, ekologik xavf-xatarlarni aniqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

tirik organizmlarning yot va genetik o'zgartirilgan turlari tarqalishini tahlil etishni ta'minlash va mazkur jarayonlarni nazorat qilish, ularning salbiy oqibatlari darajasini pasaytirish bo'yicha tegishli usullarni ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida to'plangan bilimlarni tizimlashtirish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar muvofiqlashtirilishini tashkil etish;

suv iste'moli bo'yicha yangi me'yorlar, suv ta'minoti va ichimlik suv manbalari sifati normativlarining ilmiy-metodik asoslantirilishini ta'minlash;

hududlarni ekologik rayonlashtirish metodologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, salomatlik uchun eng xavfli hududlarni aniqlash uchun suv havzalari va ichimlik suvining ifloslanish darajasini baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki, shuningdek, ekologik ta'limning uzluksiz tizimini yaratish sohasida:

atrof-muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida milliy ma'ruzalarni muntazam tayyorlash va chop etish;

ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning albatta ishtirok etishini ta'minlashning samarali mexanizmini yaratish;

davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilgunga qadar atrof-muhitga ta'siri bo'yicha I va II toifalarga mansub (yuqori va o'rtacha xavf-xatar) faoliyat turlarining atrof-muhitga ta'sirini baholash loyihalari yuzasidan jamoatchilik eshitishlarini va jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish mexanizmini yaratish;

atrof-muhitni muhofaza qilish jamoat inspektorlari institutining takomillashtirilishini ta'minlash;

barcha darajalardagi ta'lim o'quv dasturlariga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarini kiritish orqali uzluksiz ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish;

ta'lim tizimining barcha darajalari uchun ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlashni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda;

Orol dengizining qurigan tubining O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish;

qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan) 15 foizga kamaytirish;

oqova suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish;

transport vositalarining 80 foizini gaz-ballon yoqilg'isi va elektr energiyasida ishlashga o'tkazish;

o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish;

Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

aholini qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish;

hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 65 foizgacha ko'paytirish;

alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishlash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda.

ESLATMA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-
171-son qaroriga

1-ILOVA

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

Quyidagilar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va iqlim o‘zgarishi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

b) tabiatni muhofaza qilish, jumladan, atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda davlat ekologik nazoratini yuritish;

v) o‘rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko‘paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanilishini ta‘minlash;

g) gidrometeorologiya xizmatini tashkil etish, iqlim o‘zgarishi va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini yuritish;

d) tabiatni muhofaza qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish, ekologik tarbiya, targ‘ibot, ta‘lim va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli tashkil etish;

e) “yashil” o‘sish tamoyillarini joriy etish, atrof-muhitga zararli tashlanmalarni qisqartirish hamda inson faoliyatining tabiatga salbiy ta‘sirini kamaytirish;

j) tabiatni muhofaza qilishga raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring yuritishda inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

z) ekoturizm, ov va safari turizm sohasini yanada rivojlantirish, oʻrmon xoʻjaliklari va milliy tabiat bogʻlarining (qoʻriqxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno) imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tegishli infratuzilma obyektlarini yaratish, xorijiy va ichki sayyohlarga munosib shart-sharoit yaratish va ularga xizmat koʻrsatilishini taʼminlash;

i) tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qoʻyish uchun taʼsirchan choralarni qoʻllash;

k) atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sogʻligʻiga tahdid solishi mumkin boʻlgan vaziyatlarni aniqlash;

l) amalga oshirilayotgan xoʻjalik faoliyati va boshqa faoliyatning tabiatni muhofaza qilish standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish va qonuniy choralar koʻrish;

m) yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini taʼminlash;

n) oʻrmonlardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni oʻrnatish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, oʻrmonlarning yer ustida va aviatsiya yordamida qoʻriqlanishini tashkil etishni nazorat qilish

7.3.Yevropa darajasidagi ekologik siyosat

Tejash va texnologik jihatdan yangilanadigan iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishning misoli qayta tiklanadigan energiyaning koʻtarilishi. Shuningdek, u biologik xilma-xillikni himoya qilishga va atrof-muhitdan kelib chiqadigan odamlar

salomatligi uchun ekologik xavfni minimallashtirishga harakat qiladi. Shu tarzda, tabiiy resurslardan foydalanishni ajratish orqali o'sishga erishishga harakat qilinadi.

Yevropa darajasidagi barcha atrof-muhit siyosati va Yevropa Ittifoqining faoliyati to'g'risida Shartnoma. Ushbu shartnomadagi eng dolzarb moddalardan biri bu atrof-muhitni buzuvchi faoliyatning oldini olish tamoyilini umumlashtirgan 191-moddadir: **kim ifloslantiradi, to'laydi.**

Ekologik siyosatning tamoyillari

Atrof-muhit siyosati barqaror rivojlanishni amalga oshirish, toza, ekologik va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishish maqsadida o'rnatiladigan muayyan prinsiplarga ega. Bu prinsiplar:

Ekologik javobgarlik prinsipi. Ushbu tamoyilning kaliti shundaki, biz barchamiz atrof-muhit uchun foydali odatlarni joriy etish va harakatlar bilan atrof-muhitni yaxshilashimiz mumkin.

Oldini olish prinsipi: Davolashdan ko'ra oldini olish yaxshiroqdir. Bu ekologik ofatlarning oldini oladigan tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat uchun ko'rsatmalar belgilashda qo'llaniladi.

Almashtirish prinsipi: u asosan xavfli moddalarni boshqalarga kamroq ifloslantiruvchi moddalar almashinuviga asoslangan. Xuddi shu narsa yuqori energiya sarflaydigan va samaraliroq o'zgarishga intilayotgan sanoat jarayonlarida ham sodir bo'ladi.

"Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili - bu ekologik zararni oldini olish uchun eng yaxshi narsalardan biridir.

Muvofiqlik prinsipi: Bu kompaniyaning turli bo'limlarining atrof-muhit siyosatining qolgan qismini muvofiqlashtirishni talab qiladigan prinsipdir. Turli xil bo'limlarning barcha maqsadlari atrof-muhit masalalari bilan birgalikda birlashishi zarur.

Hamkorlik prinsipi: Muvofiqlik prinsipi mantiqiy bo'lishi uchun birlashtirilgan narsalarni atrof-muhit va boshqa bo'limlar nuqtai nazaridan bir butun sifatida qo'llash kerak. Shu sababli, ijtimoiy guruhlarining ekologik va iqtisodiy obodonlashtirish maqsadi bilan birgalikda ishlashi juda muhimdir.

Atrof-muhit siyosati **har doim ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan bo‘lishi kerak**. Ushbu tekshiruvlar dolzarb va dolzarb bo‘lishi kerak.

Nazorat savollari

1. Global ekologik muammolar globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasimi yoki ushbu jarayondan tashqarida vujudga keladimi?
2. Nima uchun ekologik muammolar global muammolar tarikida birinchi navbatda hal etiladigan dolzarb vazifa sanaladi?
3. Ommaviy axborot vositalari ma’lumotlaridan foydalanib ekologik muammolarni hal etishyo‘lida global miqyosda yoki muayyan mamlakatda amalga oshirilgan biron-biraniq misollar keltiring.
4. Dunyoning qaysi mintaqasi global ekologik muammolar nuqtai nazaridan nisbatan barqaror hisoblanadi?
5. Ekologik siyosatning qanday turlarini bilasiz?
6. Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi qanday dastaklarga asoslanishi zarur?
7. O‘zbekistondagi ekologik muammolar qaysi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan va ularni hal etishning qanday yo‘llari mavjud?

8 BOB. IHTT MAMLAKATLARIDA “YASHIL O‘SISH”NI TA’MINLASH MODELLARI

8.1.IHTT mamlakatlarida “yashil o‘shil”ni ta’minlash modellari

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, ularning iqtisodiy-ekologik asosi “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. 2015-yilda BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun 17 ta “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining o‘ziga xos mezonlari aniqlandi.

Jahon iqtisodiyotini barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ekologik iqtisodiyot modelini yashil o‘shil tamoyillari birlashtirilishga yo‘naltirish davr talabi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda quyidagi omillarni o‘zida mujassamlangan:

Birinchidan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiyot (jismoniy kapital), jamiyat farovonligi (inson kapitali) va ekotizimlar (tabiiy resurslar)ni birlashtirgan tizim sifatida tegishli maqsadlarni birlashtirib berishi kirish samaradorligini ifodalaydi.

Bu ish unumdorligini oshirish haqida tabiiy resurslar (o‘rmon, baliq, qishloq xo‘jaligi yerlari) tufayli yanada samarali tabiiy kapitalni boshqarish, inson salohiyatini yaxshilashdan sifatni oshirish sog‘liqni saqlash va atrof-muhit sharoitlarining yaxshilanishi tufayli aholining kasallanishini kamaytirish va nihoyat, ko‘proq tufayli jismoniy kapitalni yo‘qotishdan iqtisodiy zararni kamaytirish haqida ekologik xavflarni, shu jumladan o‘rmon yong‘inlari, suv toshqini va boshqa tabiiy hodisalarni mohirona boshqarish tabiiy hodisalar.

Ikkinchidan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish qulay tarkibiy o‘zgarishlar bilan birga amalga oshirilishi kerak. Energetika, qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi kabi bir qator muhim tarmoqlarni ishlab chiqarish apparati, energiya va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, muqobil manbalarga o‘tish kabi yangilashga qaratilgan natijalarning barchasi o‘shil aks

etadigan keng ma'nosida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari samaradorligi (samaradorlik effekti).

Uchinchidan, “yashil” iqtisodiyotga o'tishda investitsiyalar mustaqil o'sish omili sifatida ko'rib chiqish. Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirishda, muqobil yoqilg'i manbalariga yo'naltirilgan jamoat transport va boshqalar yashil ingratuzilmani rivojlantirishga olib keladi. Bu strukturaviy o'zgarishlar natijasida investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Shu bilan birga bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Bunday holda, biz rag'batlantirish samaradorligini tushunamiz.

Va nihoyat, **to'rtinchi**dan, “yashil” iqtisodiyotga o'tish innovatsion faoliyatni firmalar darajasida ilmiy-tadqiqot va patent faoliyat xarajatlari orqali o'lchanadi va rag'batlantiradi, bunga qulay raqobat muhitini yaratish bilan bir qatorda tartibga solish usullari, jumladan, standartlar va qoidalarni joriy etish orqali qo'llab-quvvatlanishida innovatsion samaradorlikka erishi haqida gapiramiz.

“Yashil” iqtisodiyotga o'tishning jahon tajribasida “yashil” iqtisodiyot rivojlanishidagi quyidagi umumiy tendensiyalarni ko'rish mumkin:

2050-yilga borib sayyoramiz aholisi 9 mlrd.ga yaqinlashadi;

global iqlim o'zgarishi yuzaga keladi;

energiya resurslari, xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari bahosi 40-50 % gacha oshadi va turli xil inqirozlar vujudga keladi;

atrof-muhit ifloslanadi, yiliga 11 mln. gektar o'rmonlar kesiladi, ekotizimlar buziladi, bioxilma-xillik kamayadi va tuproqning tabiiy unumdorligi pasayadi;

ekologik qochoqlar vujudga keladi;

ichimlik suv hajmi 60-70 %ga kamayadi;

2030-yilda sayyoramiz aholisining 47 %i ichimlik suvi yetishmasligidan azob chekadi;

yer shari zaharli chiqindilarga to'lib-toshib, “ko'milib” qoladi.

Tabiat va iqtisodiyotning o'zaro munosabati iqtisodiy-ijtimoiy tizimining muvozanatlashgan modelga aylanishi natijasida “yashil”

iqtisodiyot yaqqol namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish hamda iste’mol qilish jarayonlarini ekologik standartlarga mos ravishda o‘zgartirish “yashil” iqtisodiyotning bosh goyasi hisoblanadi.

2009-yilda IHTT 2030- va 2050-yillarga mo‘ljallangan uzoq muddatli yashil o‘shish strategiyasini qabul qildi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari Yevropa yashil bitim dasturiga asosan past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni ta’minlash, resurslar iste’moli qisqartirish bilan bir baqtda o‘iqtisodiy o‘shish, paqobatbardoshlikni oshirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish resurslardan foyqalanishda atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklash maqsadlarini belgilagan.

Buyuk Britaniyada “Sanoatni rivojlantirish” va “Sof o‘shish” strategiyasiga asosan iqtisodiyotning bapcha sektorlarida ilsiq-xona gazlari miqdorini pasaytirish va past uglerodli innovაციyalarni qo'llashni maqsad qilgan.

Fransiyada “Yashil o‘shishga energetik o‘tish to‘g‘risida”gi va “Bio xilma-xillik, tabiat va landshaftni tiklash to‘g‘risida”gi qonunlar. “2015-2020 yillarda past uglerodli” va barqaror rivojlanishga ekologik o‘tish” milliy strategiyalari (2015 y.). energiya ta'minoti, narxlar o‘zgarishi, resurslarning tugab borishi va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga neftga asoslangan energetika modelidan foydalanib rivojlanishga asoslangan.

Yaponiya “2009-2013 yillik rejasiga “yashil o‘shish milliy strategiyasi ” va “Energetika strategiyasi”da issiq-xona gazlari miqdorini 2030 yilgacha 26% ga , 2050 yilgacha 80%ga qisqartirish, tiklanadigan energiya manbalari ulushini 22-24%ga oshirishni maqsad qilgan.

Koreyada 2040 yilgacha barqaror rivojlantirishil ta'minlashga atrof-muhit uchun qulay muhit yaratish; aholi turmush sifatini oshirish; xalqaro darajada iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishga hissa qo‘shishga ko‘maklashish, vodorod iqtisodiyotini qo‘llash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan.

Germaniyada “yashil energiya” bozorini samarali rivojlantirishda qayta tiklanadigan energiya bozorini shakllantirishda mijozlar talabini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

Tadqiqotlarda davlat energiya siyosati va yashil energiya marketingining ahamiyati o‘rganilgan va kelajakda bozorni rivojlantirish ssenariylarini muhokama qilingan.

Janubiy Koreyada YaIM ning 3% ni teng bo‘lgan summani “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarflash ko‘zda tutilgan bo‘lib, asosiy e‘tiborini sanoat, energetika va investitsiyalar, transportning “yashil” shakliga (elektromobil), ichimlik suvining alternativ manbalariga, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalariga, shuningdek, atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirishga qaratmoqda. Janubiy Koreya 2011 yildan boshlab, ekologik innovatsiyalar bilan ishlab chiqarilgan tovarlar uchun “yashil to‘lov kartalari”ni joriy qilgan. Mazkur kartalar yordamida “yashil” tovar va xizmatlarni iste‘molini hisobga olish, shaxsiy transport vositasi o‘rniga jamoaviy transportdan foydalanish, shuningdek, energiya tejamkor mahsulotlarni ishlatishda foydalaniladi.

AQSh da “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2030-yilga qadar quyosh panellarini o‘rnatish orqali mamlakat aholisi tomonidan iste‘mol qilinayotgan 65 % energiya va 35 % issiqlikni ishlab chiqarishga erishiladi. AQSh uchun nafaqat “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etish balki, 5 mln dan ortiq ish joylarini yaratish ham muhimdir.

Dunyo mamlakatlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish bo‘yicha o‘z oldilariga ulkan maqsadlarni qo‘ygan. Yevropa Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida energetika, jamoat transporti va infratuzilmasini rivojlantirish, ekoqishloqlar qurish, shuningdek, qayta ishlash tizimlari sohasida “yashil” chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

IHTTning “yashil o‘sish” ko‘rsatkichlari quyidagi strategik yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlashtirilgan:

resurslarni tejovchi, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish;
tabiiy kapitalni asrab qolish;
aholining turmush sifatini yaxshilash;
"yashil o'sish" taklif etayotgan iqtisodiy imkoniyatlarni
rag'batlantirish borasida siyosat olib borish.

Qayd etib o'tilgan strategik yo'nalishlar IHTT mamlakatlarida
"yashil
iqtisodiyot"ga o'tish dasturlarining maqsadi va umumiy jihatlarini
belgilab beradi.

8.2.Elda "yashil o'sish"ni ta'minlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlari

Globalashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning
texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish
samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga
hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi
texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni
talab qilmoqda.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD)
tomonidan barcha a'zo mamlakatlarining uzoq muddatli (2030-
yilgacha) rivojlanishi uchun bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil
o'sish" iqtisodiy siyosati strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan.

"Eko-innovatsiyalar", "yashil investitsiya" va, umuman, "yashil
"iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag'batlantirish va
retsessiyadan tezroq chiqib ketishda bandlikni oshirish, ishsizlikni
kamaytirish iqirozga qarshi salohiyat imkonini beradi.

"Yashil" iqtisodiyotning umum e'tirof etilgan ta'rifi mavjud
emasligi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, atrof-muhitga
zararli ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan yanada samarali va
oqilona foydalanish orqali o'sishga qaratilgan har qanday eko-
innovatsiyalar yangilik shakli sifatida ta'riflanadi,

**Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni
muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari (UNEP)** "yashil"
iqtisodiyotni iqtisodiy faoliyat sifatida hisobga olib, bu tushunchani

keng tushunishni taklif etadi, ya'ni "yashil" iqtisodiyot insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi" degan ta'rifni beradi.

"Yashil" iqtisodiyotning bu ta'rifi deyarli yaxshi ma'lum bo'lgan barqaror rivojlanish konsepsiyasidan farq qilmaydi.

Jahon iqtisodiyotidagi "yashil" sektorning qamrab olish miqyosi hali nisbatan kichik, shuning uchun iqtisodiyotning "yashil kurtaklar" atamasi "yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan birga odatda maxsus adabiyotlarda ham qo'llaniladi. Haqiqatan ham, ushbu sohada mahsulot va xizmatlarning qiymati 2010-yilda 2 trln. AQSh dollarini yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizni, foyda esa 530 mlrd. AQSh dollarini, ish bilan bandlik - 10 mln. kishini tashkil etgan.

Biroq, "yashil" sektorning ushbu sohadagi salohiyatlari va investitsiyalarining asosiy qismini jamlovchi ayrim davlatlarning iqtisodiy kompleksini rivojlantirishga qo'shgan hissasi sezilarli darajada yuqori:

AQShda "yashil" iqtisodiyot 600 milliard dollardan ortiq mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi (YaIMning 4,2%), bandlik 3 million kishiga baholanadi; Yaponiyada - YaIMning mos ravishda 3,4 foizi va 1,5 mln.;

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jami YaIMning 2,5 foizi va 3,4 milliondan ortiq kishi; biroq ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar yuqoriroq: Germaniyada esa YaIMning 4,8%i, bundan tashqari,

Germaniya ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilishda (xususan, iqlimni tejovchi uskunalardagi jahon savdosining 12% dan ortig'i) dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri; yalpi ichki mahsulotda "yashil" sektor ulushi bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lgan Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 240 milliard dollarni (yoki YaIMning 8,8 foizini) tashkil etadi, uning eksportdagi ulushi 5 foizni va umumiy ish bilan ta'minlanish darajasi 3 foizni tashkil etgan. "Yashil" iqtisodiy siyosat rivojlanayotgan mamlakatlarga "yashil

texnologiyalar”!ini joriy etish va energiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, ishlab chiqarishda toza resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligining yanada barqaror usullaridan foydalanish orqali xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarga erishishga yordam beradi.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishdagi yutuqlar import tovarlar narxini pasaytiradi va davlatlarning energiya xavfsizligini ta‘minlaydi, shuningdek atrof - muhitga ta‘sirini cheklaydi. Har bir mamlakat o‘z moliyalashtirish manbalarini topishi va iqtisodiy o‘shish imkoniyatlarini optimallashtirish imkoniyatini ko‘rib chiqishi kerak.

Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya, Koreya mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda quyidagi asosiy choralardan foydalanmoqdalar:

energiya, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi, turizm, madaniyat, chiqindilarni qayta ishlash kabi “yashil” iqtisodiyotning sohalariga investitsiya xarajatlarini ko‘paytirish;

“yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning imkoniyatlari va afzalliklari to‘g‘risidagi bilimlar va iqtisodiy ongning davlat organlarining boshqaruv salohiyatini oshirishda yashil iqtisodiyotda xizmat qiluvchi ishchi kuchini o‘qitish;

ekologik toza oziq - ovqat mahsulotlarini kengaytirish-ekologik yorliqlardan foydalanish;

qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarga davlat xarajatlarini kamaytirish, “yashil” iqtisodiyot modeliga o‘tishni ta‘minlaydigan tashkilotlar va muassasalar tarmog‘ini rivojlantirish. Bunda tovarlar va xizmatlar uchun qoidalar va standartlarni e‘lon qilish, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun soliq imtiyozlarini oshirish, tovarlar va xizmatlar, ilmiy izlanishlarni qo‘llab - quvvatlash, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash chora - tadbirlar tizimini yaratish;

issiqxona gazlari chiqindilari atrof - muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish maqsadida soliqlar, energiyadan samarasiz foydalanish uchun yig'imglar, mavjud bo'lgan tovarlar uchun soliqlardan foydalanish ;

barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy faoliyatni boshqarishning majburiy mexanizmini o'rnatish maqsadida aholi hamkorligini mustahkamlash.

Ekologik yorliqlash - bu butun dunyoda ixtiyoriy qo'llaniladigan atrof-muhit samaradorligini sertifikatlash va etiketlash usuli.

Ekologik yorliq - bu ma'lum bir toifadagi mahsulot yoki xizmatning hayotiy tsiklga asoslangan umumiy ekologik afzalligini belgilaydigan yorliq. Ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan ishlab chiqilgan "yashil" belgilar yoki da'vo arizalaridan farqli o'laroq, eko-yorliq neytral uchinchi tomon tomonidan ayrim mahsulotlar yoki xizmatlar uchun mustaqil ravishda ekologik yetakchilik ko'rsatkichlariga muvofiqligi aniqlangan.

Atrof-muhit yorliqlari iste'molchilarga ular sotib olgan mahsulotlarning atrof-muhitga nisbatan ta'siri to'g'risida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan. Atrof-muhit yorlig'i mahsulotni boshqa shunga o'xshash, ammo yorlig'i bo'lmagan mahsulotga qaraganda ekologik jihatdan zararli deb ta'riflab, ijobiy bayonot beradi.

Atrof-muhitni yorliqlash sxemasi atrof-muhit sifatini yaxshilash va resurslarni barqaror boshqarishga ko'maklashish imkoniyatiga ega.

Iqtisodiy samaradorlikni targ'ib qilish, iste'molchilarning axborot xarajatlarini kamaytirish, "yashil yuvish" da'volarini to'ldirish, raqobatbardosh biznes muhitida mahsulotlarni tekshirish, ekologik xabardorlikni oshirish, iste'molga ta'sirini kamaytirish, asosiy ekologik strategiyalarni takomillashtirish va boshqalar. Kabi atrof-muhitni yoritish dasturlaridan kelib chiqqan holda bir qator afzalliklar mavjud.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar "yashil" iqtisodiyotni afzalliklarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yaratish vositasi sifatida

ishlatishadi. Atrof - muhitga ta'sir qilmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, qazib olish va qayta ishlash usullariga qo'yiladigan talablar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy kelishuvning ajralmas shartlaridan biri hisoblanadi.

Elda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni uch darajali boshqaruv tuzilmasiga ega: umumyevropa, milliy va mintaqaviy. Umumyevropa darajasida

"yashil" iqtisodiyot siyosati sohasidagi farqlar yo'qotiladi, "yashil texnologiyalar"ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish amalga oshiriladi. Milliy darajada ustuvorlik fundamental tadqiqotlar va kadrlar tayyorlashga qaratiladi. Mintaqa darajasida esa ekoinnovatsiyalarni ommalashtirish siyosati amaliyotga tatbiq etiladi.

Gavayida bo'lib o'tgan Osiyo-tinch okeani - kim iqtisodiy hamkorlik sammitida (APEC) iqtisodiyoti rahbarlari Honolulu Deklaratsiyasini qabul qilishdi. Xususan, APEC yashil va past uglerodli iqtisodiyotga o'tish, energiya xavfsizligini oshirish va "yangi energiya" manbalarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishning muammolarini hal qilish zarurligini aniqladi. APEC 2035-yilga kelib iqtisodiyot tarmoqlarida umumiy energiya sarfini kamaytirish kabi choralarni amalga oshiradi.

BMT Bosh kotibi janob Pan Gi Mun 2007-yil 3 dekabrda Washington Post gazetasida ta'kidlaganidek, "... o'tgan asrda biz uchta iqtisodiy o'zgarishlarning guvohi bo'ldik. Avval sanoat inqilobi, keyin texnologik inqilob, so'ngra bizning zamonaviy globallashtirish davrimiz keldi. Hozir biz yangi buyuk o'zgarishlar ostonasida – "yashil" iqtisodiyot davri bo'sag'asida turibmiz.

"Barqaror rivojlanish"ga o'tish tub o'zgarishlarni talab qiladi, ularning markazida insonning ongini o'zgartirish va yangi "barqaror jamiyat" ni yaratish yotadi. Bunday o'zgarishlar o'z-o'zidan emas, balki maqsadli, ongli ravishda sodir bo'lishi kerak. Bu jarayonni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va texnik vositalardan foydalangan holda insoniyatning axloqiy, insonparvarlik ongi birlashgan bo'lishi mumkin. Qarorlar

qabul qilishda ekologik muammolarni har tomonlama ko‘rib chiqish va uni shakllantirishda millatlararo va xalqaro hamkorlikka tegishli xalqaro institutsional shartnomalar, xalqaro-huquqiy hujjatlar va mexanizmlar ishlab chiqish kerak.

Nazorat savollari

1. IHTT mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish dasturlarining umumiy va farqli jihatlarini tavsiflab bering.
2. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning AQSH tajribasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Yevropa Ittifoqida “yashil o‘sish”ni ta’minlash strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarini sharhlang.
4. Germaniyada “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlang.
5. Koreya Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish omillarini tavsiflang va 2040-yilgacha bo‘lgan dasturning ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

9 BOB. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH MUAMMOSI

9.1. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning Xitoy tajribasi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarga nisbatan texnologiyalar rivojlanish darajasi pastligi, tabiiy resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanilishi natijasida ular atrof – muhitga ta'siri natijasida ekotizimga zarar yetkazadi.

"Yashil o'sish"ga o'tish texnologik innovatsiyalar, ekotizimlarni tiklash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va kam uglerodli chiqindilariga o'tish bilan bog'liqligi katta hajmda kapital qo'yilmalar talab etadi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ocharchilikka qarshi kurash va qashshoqlikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarmoya kiritish, ish o'rinlari va ishchi kuchini muvozanatlash uchun resurslarni jamlashga katta yordam beradi. Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish va yashil o'sish strategiyasi qashshoqlikni kamaytirish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Jahon banki (JB) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qurilish, energetika, transport kabi yashil iqtisodiyot sektorlari uchun infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha investitsiya 563 milliard dollarni tashkil etadi. 2030-yilda iqlim o'zgarishiga moslashish uchun investitsiya global yashil iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalar umumiy hajmining qariyb 50 foizini tashkil etadi.

Ichki resurslarni rivojlantirishga asoslanib, rivojlanayotgan mamlakatlar mustaqil ravishda "yashil o'sish" va barqaror rivojlanishga o'tmoqdalar va hatto ekotizimlarni tiklash uchun qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki cheklangan tabiiy resurslarni qazib olish kabi ba'zi sohalarga qadam qo'yishlari mumkin. Xitoy qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga asoslangan sof o'sish strategiyasida "yashil" iqtisodiy o'tishni maqsad qilib qo'ydi.

2005-yilda Xitoyda qabul qilingan qayta tiklanadigan energiya to'g'risidagi qonun ushbu sohaning rivojlanishi ucnun qadam hisoblanadi. Ushbu qonun bir qator moliyaviy imtiyozlarni taqdim

etadi, masalan, milliy jamg'arma tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, kreditlar, qayta tiklanadigan energiya manbalari, xususan shamol energetikasi va tuz energiyasi loyihalari uchun soliq imtiyozlari va boshqalar.

2005-yildan 2009-yilgacha shamol energetikasining yillik o'sish sur'ati 100% dan oshdi. 2009-yilga shamol energetikasining umumiy quvvati 13,8 GVt ga yetdi. Xitoy shamol generatorlarining ishlab chiqarish quvvati bo'yicha jahon yetakchisi va shamol generatorlarining o'rnatilgan quvvati bo'yicha dunyoda (AQShdan keyin) ikkinchi o'rinni egalladi.

Xitoy o'z viloyatlarida shamol turbinalarini ishlab chiqarish uchun qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish va kuchli shamol turbinalari texnologiyasini mahalliy mahsulotlardan foydalanish asosidai uzatish siyosatidan foydalanadi.

2006-yilda Xitoyning rivojlanish va islohotlar bo'yicha davlat qo'mitasi soliqlarni boshqarish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga xarajatlarni taqsimlash bo'yicha vaqtinchalik choralarni tasdiqladi. Qayta tiklanadigan energiya Qonuni bilan bir qatorda, ushbu qoidalar shamol energiyasini iste'mol qilishni kamaytirishni rag'batlantiradi va Xitoyning shamol energiyasi bozorida ishlatiladigan raqobatbardosh auksion modelini taklif qiladi.

2009-yil ma'lumotlariga asosan Xitoy butun dunyo bo'ylab eng yirik quyosh energiyasi ishlab chiqaruvchisi (PV) bo'lib, global quyosh energiyasi ishlab chiqaruvchisidagi talabning 45 foizini qondiradi.

So'nggi yillarda ichki quyosh energiyasi bozori rivojlana boshladi. Yirik loyihalarda Xitoy tezda Osiyo va butun dunyodagi yirik bozorlardan biriga aylandi.

Xitoy dunyodagi isitish va issiq suv uchun quyosh tizimidan foydalanadigan eng yirik bozor bo'lib, bu jahon bozorining umumiy hajmining deyarli uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Xitoy oilalarining 10% dan ortig'i suvni isitish uchun quyosh batareyalaridan foydalanadi. Suvni isitish uchun quyosh tizimining

jadal rivojlanishi ham ishlab chiqaruvchilar, ham oddiy oilalar uchun foydalidir.

2009-yil oxiriga kelib qayta tiklanadigan energiya sanoati 17 milliard dollar miqdorida daromad oldi. 1,5 millionga yaqin ishchi jalb qilingan, ulardan 600 ming nafari quyosh issiqliq sektorida, 266 ming nafari biomassa sektorida, 55 ming nafari shamol energiyasi sektorida ishlagan. Faqatgina 2009-yilda 300 ming yangi ish o'zni yaratildi.

Xitoy tajribasi qayta tiklanadigan energiya manbalarining o'sishini ko'rsatadi, natijada ish o'rinlari yaratiladi va "yashil sanoat"dan daromad olinadi.

Xitoy rahbariyati mamlakat sanoatining yashil o'zgarishini rag'batlantirish uchun turli vositalardan foydalanib kelmoqda. Eng muhimi, bular mahalliy klasterlash, yashil moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish, davlat xaridlari va standartlashtirishni o'z ichiga oladi. Davlat banklari ushbu jarayonda tajriba sohalarini rag'batlantirishda ham klaster tartibi asosida yondashmoqda.

Xitoyda 2011-2015-yillarda suv va qattiq maishiy chiqindilardan qayta foydalanish darajasi 90 foizdan ko'proqqa oshirishga erishilganligi ham amalda mamlakatning raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda Xitoyda 2 mingdan ortiq "yashil zavod"lar (asosan mashinasozlik, elektronika, qurilish materiallari va yengil sanoatda) va 170 ta "yashil sanoat parklari" faoliyat olib boradi va hukumat tomonidan rejalashtirilgan miqdorga nisbatan ancha ko'p hisoblanadi. Biroq, Xitoyda sanoat parklari rivojlanishida xususiy sektorning faolligi yetishmaydi va ushbu holat mamlakat miqyosida katta muammolardan biri bulib hisoblanadi. Xususiy kompaniyalarni ko'plab jalb qilish maqsadida Pekin 2020-yilda energiya tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan shugullanuvchi xususiy kompaniyalar uchun bozor sharoitlarini yaxshilash buyicha soliq imtiyozlari va tavsiyalar berdi.

Xitoyda “yashil” iqtisodiyot bilan bogliq me’yoriy-huquqiy talablar va hujjatlarni ishlab chiqarish jarayonlari davom ettirildi. Jumladan, resurslarni tasniflashdan tortib korxonaning emissiya hisoboti va eko-dizaynni baholashgacha bo’lgan barcha jihatlarni qamrab oluvchi yashil ishlab chiqarish standartlari tizimi 2025-yilgacha sanoat miqyosida foydalanish uchun shakllantirib borilmoqda. “Yashil zavod”lar faoliyatini ta’minlashga mo’ljallangan yana yuzlab standartlar ishlab chiqilmoqda. Biroq, amalda holat har doim ham ijobiy deb baholanmaydi. Xususan, yashil standart talablariga korxonalar darajasida har doim ham to’liq rioya etilmayotganligi qayd etilgan. 2017-yilda Xitoy shimolidagi deyarli 14 000 ta tekshirilgan kompaniyaning 70 foizi havo ifloslanishi standartlariga javob bera olmagan.

9.2. MDH mamlakatlarida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo’nalishlari

So’nggi o’ttiz yillikda “yashil” iqtisodiyot nafaqat global kun tartibida markaziy o’rinni egalladi, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo’shib, iqtisodiy o’sishning faol drayveri bo’ldi.

Dunyoning aksariyat davlatlari o’z ekologik siyosatini an’anaviy modeldan atrof-muhit taraqqiyotning dvigateli bo’lgan modelga, ya’ni “yashil” iqtisodiyotga yo’naltirilgan.

Belarus Respublikasida ham “yashil” iqtisodiyotga alohida e’tibor qaratilmoqda. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog’liq qoidalar bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, shu jumladan Belarus Respublikasini 2021-2025 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida, shuningdek, Belarus Respublikasining 2035 yilgacha bo’lgan davrda barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish milliy strategiyasida o’z aksini topgan.

2021-yil dekabr oyida hukumat 2021-2025-yillarda Belarus Respublikasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo’yicha Milliy harakatlar rejasini tasdiqladi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, istiqbollar, maqsadga muvofiqlik va xalqaro majburiyatlarni hisobga olgan holda,

Belarus Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

barqaror iste'mol va ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etish;
aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish (doiraviy iqtisodiyot);
organik ishlab chiqarishni rivojlantirish;
ekologik turizm va agroekoturizmni rivojlantirish;
aqlli va energiya tejamkor shaharlarni shakllantirish;
elektr transportini (infratuzilmasini) va shaharlarda harakatlanishni rivojlantirish;
iqlim o'zgarishini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish;
biologik va landshaft xilma-xilligini saqlash va barqaror foydalanish;
"yashil" moliyalashtirish sohasini rivojlantirish;
ta'lim, o'qitish va ijtimoiy inklyuziya;
"yashil" iqtisodiyotga o'tishni ilmiy qo'llab-quvvatlash.

Belarus Respublikasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda, qonunchilik takomillashtirilmoqda, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida fundamental hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Ekologiya masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Belarus Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning (konvensiyalarning) faol ishtirokchisi - bular 14 ta global va 10 ta Yevropa xalqaro ekologik konvensiyalari va protokollari.

Bundan tashqari, ular ko'p tomonlama hamkorlik platformasi hisoblanadi:

milliy loyihalar va tashabbuslarni ilgari surish;
qonunchilik bazasini takomillashtirish;
mamlakatga mutaxassislarni tayyorlash va o'qitishga jalb qilingan donor mablag'laridan samarali foydalanishni.

Belarus Respublikasini 2030-yilgacha barqaror rivojlanish milliy strategiyasida yashil iqtisodiyotning rivojlantirishining

uchta komponentini aks ettiradi va asosiy e'tibor "inson - iqtisodiyot - atrof-muhit" triadasiga qaratilgan.

Bu uchta komponent quyidagilar:

iqtisodiy vositalardan va siyosat foydalanish;
yashil iqtisodiyot uchun ta'lim;
fan va innovatsiyalar.

Belgilangan uzoq muddatli strategik maqsad uni amalga oshirishning rejalash maqsadlari ikki bosqichini nazarda tutadi:

Birinchi bosqich – (2016-2020 yillar).

Asosiy maqsad - iqtisodiyotning tarkibiy va tashkiliy jihatdan sifat jihatidan sifatli muvozanatli o'sishiga o'tish: "Yashil" iqtisodiyot tamoyillarini hisobga olgan holda, yuqori texnologiyali tarmoqlarni transformatsiyalash orqali rivojlantirish. mamlakatning raqobatbardoshligini va aholi turmush sifatini oshirish.

Ikkinchi bosqich – (2021-2030 yillar).

Asosiy maqsad- barqaror rivojlanishda qadriyatlar va inson rivojlanishining ma'naviy va axloqiy madaniyatiga asoslangan yuqori sifati o'sishga erishish aslida barqarorlikni saqlashdir.

Ko'p fan talab qiladigan sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini "yashil" iqtisodiyot asosida tabiiy kapitalni saqlab qolgan holda jadal va yanada rivojlantirish.

Uzoq muddat rejalash vazifalari

Iqtisodiyot sohasida:

Bozor institutlari va rivojlangan infratuzilmasiga ega bilimlar iqtisodiyotini yuqori samarali, ijtimoiy yo'naltirilgan va raqobatbardosh yangi tipdagi iqtisodiyotni –shakllantirish;

inson rivojlanishi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni, sanoat innovatsion klasterlarini, iqtisodiyotning infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

ishlab chiqarish va iste'mol barqarorligini oshirish, shu jumladan qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan resurslarni samarali boshqarish, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari hosil bo'lishini kamaytirish, iste'molchilarning mas'uliyatli xulq-atvorini rag'batlantirish;

asosan bozorni tartibga solish vositalariga asoslangan davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy tashabbuslarni ko'paytirish, samarali mulkchilik tuzilmasini yaratish.

Uzoq muddat rejalash maqsadlari

Ekologiya sohasida

Nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan qulay muhitni saqlash;

ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

atrof-muhitga antropogen ta'sirni kamaytirish, ekologik muvozanatni tiklash, barcha turdagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan ekologik xavfsiz foydalanish;

aholi turmushining yuqori ekologik standartlariga erishish, tabiiy muhit holatini yaxshilash

MDHda Belarus Respublikasi Qozog'istondan keyin ikkinchi davlat bo'lib, bunday hujjatni yuqori darajada qabul qildi.

Milliy reja - bu "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning global tendensiyalari bilan solishtirganda Belarus Respublikasidagi mavjud vaziyatni aniq baholash, iqtisodiy faoliyatning turlarini qamrab oluvchi aniq belgilangan ustuvorliklarning kelishilgan to'plami (40 ta chora-tadbirlar). faoliyatning turli sohalarida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, butun dunyoda e'tirof etilgan mezonlarga asoslangan baholash mexanizmlari "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish yo'nalishlarini eng mos ravishda aks ettiruvchi 10 ta baholash mezoni aniqlangan)

Milliy harakat rejasida quyidagi vazifalar yechimi ta'minlangan:

Belarus Respublikasida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash;

"yashil" iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va faoliyat yo'nalishlari ro'yxatini belgilash;

"yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha institutsional va tarmoq chora-tadbirlar majmuini shakllantirish;

“yashil” iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholash.

Belarus Respublikasida “yashil” iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari:

elektr transporti (infratuzilmasi) va shahar mobilligini rivojlantirish, “multipleks” shaharlar konsepsiyasini amalga oshirish;

energiya tejamkor turar-joy binolari qurilishini rivojlantirish va uy-joy fondining energiya samaradorligini oshirish;

yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, shu jumladan energiya tejamkor texnologiyalar va materiallarni joriy etish orqali;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salohiyatini oshirish;

organik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sharoit yaratish;

barqaror ishlab chiqarish va iste’mol ;

ekologik turizmni rivojlantirish.

Milliy “yashil” iqtisodiyot rejaning rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari:

“Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Belarus Respublikasi 2012-yil 13-iyuldagi Qonuniga davlat “yashil” xaridlari nuqtai nazaridan o‘zgartirishlar kiritish masalasini o‘rganish;

mahsulotlarni ekologik sertifikatlashtirish xususiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish;

mahsulotlarni ekologik sertifikatlashtirish sifatini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish;

kam uglerodli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

ekologik turizmni rivojlantirish masalalarini kiritish qismi;

Milliy yashil iqtisodiyot rejasining rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari:

avtomobillarni ishlab chiqarish va qayta ishlashni rag'batlantirish takliflar tayyorlash ;

asosiy sanoatlashgan shaharlarda resurslardan samarali va toza ishlab chiqarish uchun klublar yaratishni rag'batlantirish (tumanlar)

iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi tashkilotlarning iqlimiy neytralligi uchun sertifikatlashtirish tizimini ishlab chiqish;

yuridik, jismoniy shaxslarni, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga turistik sayohatlar tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash.

9.3. Qozog'iston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari

Qozog'istonning "yashil" iqtisodiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri qayta tiklanadigan energiya manbalarini foydalanish hisoblanadi. Mamlakat quyosh, shamol va gidroelektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ulkan salohiyatga ega va hukumat bu sohalarga faol sarmoya kiritmoqda.

Qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqligini kamaytirish va energiya tarkibidagi qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish orqali Qozog'iston issiqxona gazlari chiqindilari emissiyasini kamaytirish va atmosferani yaxshilashni maqsad qilgan.

Qayta tiklanadigan energiyadan tashqari Qozog'iston energiya samaradorligi va barqaror transportni rivojlantirishga ham e'tibor qaratmoqda. Hukumat sanoat, binolar va transportda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha turli dasturlarni amalga oshirdi, bu nafaqat energiya sarfini, balki korxonalar va uy xo'jaliklarining operatsion xarajatlarini ham kamaytiradi. Bundan tashqari, jamoat transporti va elektr transport vositalari kabi barqaror transport imkoniyatlarini ilgari surish shaharlarda havo ifloslanishi va tirbandlikni kamaytirishga qaratilgan.

Qozog'istonning "yashil" iqtisodiyot strategiyasining yana bir muhim jihatini tabiiy resurslarni samarali foydalanish hisoblanadi. Mamlakatda o'rmonlar, botqoq yerlar va o'tloqlar kabi turli xil ekotizimlar mavjud bo'lib, ular muhim ekotizim xizmatlarini taqdim

etadi. Tabiatni muhofaza qilish choralari va yererni barqaror boshqarish amaliyotini amalga oshirish orqali Qozog‘iston o‘zining tabiiy merosini saqlab qolish va ekoturizm va qishloq xo‘jaligi kabi barqaror iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, Qozog‘istonning “yashil” iqtisodiyot strategiyasi yashil innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Hukumat yashil texnologiyalar sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlarining ekologik toza ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni faol qo‘llab-quvvatlab kelmoqda va rag‘batlantirmoqda. Toza energiya, chiqindilarni boshqarish va barqaror qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali Qozog‘iston ekologik muammolarni hal qilishda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan.

Qozog‘istonning “yashil” iqtisodiyot strategiyasi barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish, energiya samaradorligi va barqaror transportni rag‘batlantirish, tabiiy resurslarni tejash va yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali Qozog‘iston kelajak avlodlar uchun tabiiy muhitni saqlab qolish bilan birga uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishga erishmoqchi. Mamlakat “yashil” iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirishda davom etar ekan, mintaqada barqaror rivojlanish bo‘yicha yetakchiga aylanishga tayyor.

Tabiiy resurslarga boy va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Qozog‘iston uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muhimligini tan oldi. Qozog‘istonning yashil iqtisodiyot strategiyasi iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish, shu bilan birga atrof-muhitga ta‘sirni minimallashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan.

Qozog‘istonning “yashil” iqtisodiyot strategiyasining yana bir muhim jihatı tabiiy resurslarni saqlash va barqaror boshqarishdir. Mamlakatda turli xil ekotizimlar, jumladan, o‘rmonlar, botqoq yerlar va o‘tloqlar mavjud bo‘lib, ular muhim ekotizim xizmatlarini taqdim etadi va biologik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlaydi. Tabiatni

muhofaza qilish choralari va barqaror yerni boshqarish amaliyotini amalga oshirish orqali Qozog‘iston o‘zining tabiiy merosini saqlab qolish va ekoturizm va barqaror qishloq xo‘jaligi kabi barqaror iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, Qozog‘istonning yashil iqtisodiyot strategiyasi yashil innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Hukumat yashil texnologiyalar sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni faol qo‘llab-quvvatlab kelmoqda, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining ekologik toza amaliyotlarni qo‘llashini rag‘batlantirmoqda. Toza energiya, chiqindilarni boshqarish va barqaror qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali Qozog‘iston ekologik muammolarni hal qilishda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Qozog‘istonning “yashil” iqtisodiyot strategiyasi barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish, energiya samaradorligi va barqaror transportni rag‘batlantirish, tabiiy resurslarni tejash va yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali Qozog‘iston kelajak avlodlar uchun tabiiy muhitni saqlab qolish bilan birga uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishmoqchi. Mamlakat yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirishda davom etar ekan, mintaqada barqaror rivojlanish bo‘yicha yetakchiga aylanishga

Nazorat savollari

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyatini asoslang va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda qanday muammolar mavjudligini sharhlang.

2. Xitoyda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

3. MDH mamlakatlarida amalga oshirilayotgan “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish milliy strategiyalarining umumiy va farqli jihatlarini qiyosiy taqqoslang.

4. Rossiyada “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlang.

10-BOB. O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI VA BOSQICHLARI

10.1. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari

Mamlakatda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarini bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqlimning o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda o‘zaro bog‘liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo‘yicha o‘rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo‘yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror

rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi.

Bunda uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak:

barqaror rivojlanish sohasida Milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;

resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish;

iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun "yashil" vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi;

eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;

resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash.

Shu munosabat bilan iqlim o'zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish,

shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlari bajarilishini va O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishini ta’minlash maqsadida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishining asosiy vazifalari etib belgilansin:

texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

10.2.Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori texnik salohiyatga ega bo‘lib, uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Respublikadagi quyosh nuridan energiya ishlab chiqarish salohiyati yiliga 525-760 mlrd. kVt.s. ni tashkil etadi. Buning sababi, mamlakatimizda quyoshli kunlar yiliga o‘rtacha 320 kunni va faol quyosh nurlari 3000 soatni tashkil etadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistondagi shamol energetikasining hisobiy salohiyati 500 GVtni yoki amaldagi energotizimdan 30 barobar ko‘p bo‘lgan quvvatli qurilmalarni joylashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston energiya uchun qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanish va sanoat sektorining yuqori darajada energiyatalabligi tufayli havoga issiqxona gazlarini chiqarish jadalligi bo‘yicha dunyoda beshinchi o‘rinni va Yevropa va Markaziy Osiyoda eng yuqori o‘rinni egallaydi.

Qayta tiklanadigan energiyaga jadal ravishda va yaxshi boshqariladigan tarzda o‘tish barcha uchun ochiq energiya xavfsizligi va dunyoga zarur bo‘lgan yashil ish o‘rinlarini yaratish uchun yagona yo‘ldir.

O‘zbekistonning uglerod izini kamaytirish va o‘zining iqlim bilan bog‘liq bo‘lgan maqsadlariga erishish yo‘lidagi intilishlarini inobatga olgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarga aylandi.

O‘zbekiston tog‘-kon, qayta ishlash va resurslarni qazib olish sanoati tufayli so‘nggi o‘n yilda iqtisodiy o‘sishga erishdi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat energiya uchun qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanish va sanoat sektorining yuqori darajada energiyatalabligi tufayli havoga issiqxona gazlarini chiqarish

jadalligi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni va Yevropa va Markaziy Osiyoda eng yuqori o'rinni egallaydi.

Yana bir xavotirlantiradigan soha — bu tijorat va turar joy qurilishi sohasidir. Butun dunyoda umumiy issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 40 foizi qurilish sektoriga (yoritish, isitish, issiq va sovuq suv ta'minoti uchun elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish) to'g'ri keladi.

Iqlim o'zgarishi muammosi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan eng muhim global muammolardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu muammoning globalligi shundaki, iqlim o'zgarishi oqibatlari dunyoning barcha mamlakatlari va mintaqalarida sezilmoqda, ayni paytda sayyoramizda yuz berayotgan bunday o'zgarishlar uchun har bir inson u yoki bu darajadamas'uldir. Biz barcha tovarlar va xizmatlarning oxirgi iste'molchilari hisoblanamiz. Ularni ishlab chiqarilishi uchun ma'lum resurslar va energiya, ya'ni uglevodorod xom ashyolari (neft, ko'mir va tabiiy gaz) talab etiladi. Ularni qazib olish va foydalanishda atmosferaga issiqxona gazlari chiqariladi. Buning natijasida issiqxona effekti kuchayadi va havo harorati ko'tariladi.

Bu–bizning Yer sayyorasida qoldiradigan uglerod izimizdir. Mazkur muammo shu qadar katta miqyosdagi, uning oqibatlari ham shunga mos darajada global bo'lib, ular mamlakatlarning barqaror rivojlanish jarayonlarini sezilarli darajada to'xtatib qo'yishi mumkin.

Shuning uchun iqlim o'zgarishi muammosi xalqaro hamjamiyat tomonidan barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlari (BRM) qatoriga kiritilgan. Ularning orasida maqsad “Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlari bilan kurashishda shoshilinch choralar qabul qilish” deb nomlanadi.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari bilan kurashish quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: ularning **birinchisi** iqlim o'zgarishining oldini olish bo'yicha harakatlar (issiqxona gazlarini tashlashni pasaytirish va “uglerod izini kamaytirish” orqali) bo'lsa,

ikkinchisi iqlim o'zgarishining muqarrar oqibatlariga moslashish (adaptatsiya)dir.

Mamlakatlarning hamkorlikdagi harakatlari xalqaro kelishuv – BMTning Iqlim O'zgarishi bo'yicha Doiraviy Konvensiyasi (BMT IO'DK) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ushbu hujjat 1992-yilda Rio-de Janeyro shahrida qabul qilingan. Konvensiyani 194 mamlakat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham imzolagan.

Mazkur o'rtacha ko'rsatkich O'zbekistonga ham taalluqli bo'lib, O'zbekistonning birinchi BMT IO'DK bo'yicha ikki yillik yangilangan hisobotiga ko'ra, bu yerda mamlakatdagi umumiy energiya iste'molining 22 foizi sanoat va qurilishga, 21 foizi esa uy-joy qurilishiga to'g'ri keladi.

Yildan yilga O'zbekiston aholisining soni ko'payishi bilan energiyaga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Pirovardida mamlakatning energiya zaxiralariga bo'lgan ehtiyoj ortib borgan sari energiyaga o'sib borayotgan talabni mamlakatning barqaror rivojlanishini va u iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi doirasidagi majburiyatlarini bajarishini ta'minlagan holda, qayta tiklanadigan manbalar hisobidan qondirish zarur.

O'zbekiston hukumati energiya zaxiralarini diversifikatsiya qilish maqsadida energetika sohasida islohotlarni amalga oshirmoqda. Birinchi qadamlardan biri sifatida investorlar uchun, xalqaro xususiy kompaniyalarga elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash uchun quyosh elektr stansiyalariga investitsiya kiritish imkonini beruvchi qulay muhit yaratildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi uch yilda ushbu sohaga 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kiritilib, Navoiy va Samarqand viloyatlarida bir qancha quyosh elektr stansiyalari o'rnatildi.

2023-yilning 16-fevral oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da 57-sonli Qarori chiqardi. Prezidentning 57-sonli Qarori

yil oxirigacha umumiy quvvati 4300 megavattni tashkil etadigan quyosh va shamol elektr stansiyalarini o'rnatish nazarda tutmoqda. Shuningdek, u 37000ta uyning tom qismiga quyosh panellarini o'rnatish va ularning har biri ortiqcha energiyani elektr tarmog'iga qaytargan holda sotishi mumkinligi to'g'risidagi nizomlarni o'z ichiga oladi. Qaror shartlariga ko'ra, davlat iste'molchidan foydalanilmagan energiyani sotib oladi va shunda har bir foydalanilmagan kilovatt/soat uchun 1000 so'mdan haq to'laydi.

Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yoqilg'i-energetika tarmog'ining mavjud quvvatlari energiya resurslariga ortib borayotgan talab-ehtiyojni to'liq darajada ta'minlamayapti, mamlakatimiz iqtisodiyotining energiya sarfi hajmi rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqoridir.

Hozirgi vaqtda asosan gidroelektr stansiyalari ishlab chiqarayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi umumiy hajmining atigi o'n foizi to'g'ri kelmoqda. Nihoyatda katta salohiyat mavjud bo'lishiga qaramasdan, quyosh va shamol singari qayta tiklanuvchi energiya manbalarining imkoniyatlaridan to'liq darajada foydalanilmayapti.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlat siyosatining hozirgi bosqichdagi dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ilg'or xorijiy tajribani inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jalb etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi

energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida **O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi imtiyoz va preferensiyalar belgilab berildi:**

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga mol-mulk solig'ini hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan;

ishlab turgan energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi 2019 — 2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanada oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Unga muvofiq qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlarini tasdiqlash, ularning ulushini 2030-yilga borib elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish; iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning

energiya samaradorligini yanada oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash bazifalari belgilab berildi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab ilgari foydalanishda bo'lgan generator uskunalari, kuchlanishni pasaytiruvchi transformatorlar, elektr dvigatellar, shuningdek, energiya samaradorligi "B" va undan quyi toifadagi energiya sarflovchi maishiy elektr priborlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish taqiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirishni ta'minlash, mulkchilik shaklidan va idoraviy mansubligidan qat'i nazar barcha toifadagi iste'molchilarda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi loyihalarni muvofiqlashtirish va boshqarish, shuningdek, ularni amalga oshirish davrida monitoring va hisobotlarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan ijro etuvchi organ sifatida ishtirok etadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha xalqaro agentlikda (IRENA) O'zbekiston Respublikasining milliy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanadi.

10.3.Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari

Qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlaydigan adolatli iqtisodiyot g'oyasi jozibali bo'lsa-da, "yashil" iqtisodiyot tanqidchilarning ulushiga ega. Iqtisodiy o'sishning aksariyati qayta tiklanmaydigan texnologiyalar va energiya manbalari natijasida yuzaga keldi. Yashil energiya uchun xom ashyo bir nechta hollarda arzon ish haqi olgan ishchilar tomonidan noqulay sharoitlarda qazib olinadigan noyob minerallardan olinadi.

Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo'yicha o'rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo'yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son qaroriga 1-ilovasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish maqsadli parametrlari keltirilgan

10 1 –jadval
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada
rivojlantirish maqsadli parametrlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish proгноzlari, MVt					Elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushi, foiz	
		2019-y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023 — 2030-yy.	2018- y.	2030- y.
	Jami	1074,1	886,8	1 961,5	2 061,6	14 017,8	100	100
1.	An'anaviy energetika	1 050	1 807	1 777	2 259,4	10 910,2	90	75
	<i>Shu jumladan, quvvatlarni foydalanishdan chiqarish</i>	-	1 060	320	740	4 280	-	-
2.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	24,1	119,8	504,5	542,2	7 387,6	10	25
	shundan:							
2.1.	Gidroenergetika	24,1	119,8	204,5	42,2	1 487,6	10	11,2
2.2.	Quyosh energetikasi	-	-	300	400	4 300	-	8,8
2.3.	Shamol energetikasi	-	-	-	100	1 600	-	5

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirish talab etiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanada oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish “yo‘l xaritasi” da:

1.Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar quyidagilar:

Iqtisodiyot tarmoqlarida energetika resurslaridan samarali foydalanish va normalashni tashkillashtirishga yo‘naltirilgan yagona yondashuvni yaratish maqsadida normativ bazani takomillashtirish;

yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining kelgusi yilga mo‘ljallangan kompleks balansini shakllantirish;

majburiy energetika tekshiruvini o‘tkazish tartibini takomillashtirish;

energioservis kontraktini qo‘llashni amaliyotga joriy etish;

elektr energiyasi, tabiiy gaz va issiq suvga tabaqalashtirilgan tariflar (blokli tarif) tizimini joriy etish;

ishlab chiqarish korxonalarida yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molini kamaytirish.;

xalqaro standart (ISO 50001) talablariga muvofiq energetik menejment tizimini joriy etish:

qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida davlat standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ko‘cha va magistrallarni yoritishning amaldagi tizimlariga yoritish darajasini boshqarishning intellektual tizimlarini tatbiq etish.

I. Uglevodorod va elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish va taqsimlashdagi yo‘qotishlarni qisqartirish:

Neft va gaz konlarida, magistral gaz quvurlarida, neft va gazni qayta ishlash korxonalarida uglevodorodlarni qazib chiqarish, tashish va qayta ishlashdagi yo‘qotishlarni qisqartirish;

neft va gaz konlarida bekor ketadigan issiqlikdan, mash’ala bo‘lib yonadigan va yo‘l-yo‘lakay qazib chiqariladigan gazdan elektr energiyasi ishlab chiqarishni tashkillashtirish;

elektr energiyasi va tabiiy gaz ishlab chiqarish, tashish va taqsimlashda ularni hisobga olish tizimini takomillashtirish;

elektr energiyasini ishlab chiqarish, tashish va taqsimlashda uning tarmoq ichidagi sarfini qisqartirish.

II. Qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishda:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining solishtirma ulushini ko‘paytirish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari bozorida qulay raqobat muhitini yaratish maqsadida tarif siyosatini takomillashtirish;

DXSh shartlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalarini amalga oshirish doirasida salohiyatli investorlarni raqobatchilik asosida saralab olishning zamonaviy va shaffof usullarini joriy etish;

quyosh fotoelektrik stansiyalari o‘rnatiladigan potensial joylarning taqsimlangan generatsiya afzalliklarini inobatga olgan holda aniqlash tartibini joriy etish;

qishloq joylarda va respublikaning olis hududlarida elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun quyosh tizimlarini joriy etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

shamol elektrstansiyalarini qurish uchun potensial maydonchalarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;

namunaviy uylarda, ijtimoiy va sanoat obyektlarida, issiqxonalar va uy-ro‘zg‘or xo‘jaliklarida uglevodorodlar va elektr energiyasi iste’molini kamaytirish maqsadida issiq suv ta’minoti, yoritish va bivalent isitish tizimi uchun fotoelektrik tizimlar, geliokollektorlar va

issiqlik nasoslari keng joriy etilishini rag'batlantirish choralarini ko'rish;

erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini qayta tiklanuvchi energiya manbalari obyektlari hisobiga mahalliy issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlash choralarini amalga oshirish;

respublikaning bioenergetika resurslari texnik salohiyatini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni rivojlantirishga oid amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

tartibga soluvchi quvvatlarni joriy etish va tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun eng maqbul texnologiyalarni tanlash bo'yicha o'rganish o'tkazish;

energiya ta'minotining intellektual tarmoqlaridan foydalangan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya hosil qilish bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va uzatish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini va ishlab chiqariladigan mahsulotni sinovdan o'tkazish hamda sertifikatlashtirish bo'yicha zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va ulardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan energiyani davlat tomonidan hisobga olish va sertifikatlashtirish mexanizmini ishlab chiqish va tasdiqlash;

milliy qonunchilik negizida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqariladigan energiyani xarid qilish to'g'risidagi bitimning namunaviy shaklini ishlab chiqish va tasdiqlash;

fotoelektrik stansiyalar, ko'chalarni yoritadigan fotoelektrik tizimlar hamda EIZ va KSZlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari uchun quyosh modullari, investorlar, kichik shamol qurilmalari, geliokollektorlar, issiqlik nasoslari, rekuperatorlar, metantenklar, trekerlar ishlab chiqarish uchun salohiyatli investorlarni jalb etish.

ESLATMA

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatli kompleks chora-tadbirlar tizimi BMT tashabbusi bilan 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan 17 ta maqsadlar va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanish sohalari bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi:

arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta’minlash borasida 2030-yilgacha

jahon energetika muvozanatida tiklanuvchan manbalardan olinadigan energiya ulushini jiddiy ravishda ko‘paytirish;

energiya samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatkichni ikki baravar oshirish; zamonaviy va barqaror energiya bilan ta’minlash uchun infratuzilmani kengaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish vazifalari belgilangan (7-maqсад);

iqlim o‘zgarishiga aks ta’sir choralari milliy darajada siyosatga, strategiyaga va rejalashtirishga kiritish hamda iqlim o‘zgarishi oqibatlarining oldini olish, ularga moslashish va xavfli iqlim hodisalarining tavakkalchiligidan erta ogohlantirish bo‘yicha xabardorligini hamda imkoniyatlarini yaxshilash (13-maqсад);

quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona qarshi kurashish, yerlarning ishlab chiqarish aylanmasidan chiqib ketishini

to‘xtatish va ortga qaytarish.

Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish

Elektr energetika sohasida:

bug‘-gazli va gaz turbinali qurilmalar negizida yuqori samarali texnologiyalarni joriy qilish orqali ishlab turgan elektr stansiyalarining energiya ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash;

energiya tizimi barqarorligini oshirish uchun magistral elektr tarmoqlari konfiguratsiyasini takomillashtirish va modernizatsiyalash;

tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan elektr tarmoqlari rejimlarini maqbullashtirish, reaktiv quvvat va tarmoq sxemalarini kompensatsiya qilish;

texnologik jarayonlarning avtomatlashganlik darajasini oshirish, tashish va taqsimlashga sarflanadigan elektr energiyasi hajmini qisqartirish;

elektr energiyasi iste‘moli tizimlarini avtomatik nazorat va hisobga olish asboblari bilan to‘liq jihozlash.

Issiqlik energetikasi sohasida:

issiqlik energiyasini ishlab chiqishning yangi texnologiyalari, shu jumladan markaziy qozonxonalarda kogeneratsiya texnologiyalari, bug‘ning o‘ta superkritik ko‘rsatkichlariga ega ko‘mir bug‘-turbinali energiya bloklari texnologiyalarini joriy etish;

qozonxonalarning eskirgan asbob-uskunalarini modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish;

turbokompressor qurilmalari chiqindi gazlari issiqligini utilizatsiya qilish;

issiqlik tarmoqlari joylashuvini maqbullashtirish va modernizatsiyalash;

issiqlik tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalashda zamonaviy, issiqlikni o‘tkazmaydigan materiallardan foydalanish;

issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va tashish tizimini iste‘molchilar sonini hisobga olgan holda avtomatlashtirish, dispetcherlash va maqbullashtirish;

iste‘molchilarni zamonaviy hisoblagichlar bilan ta‘minlash;

qozonxonalarda suvni isitish uchun geliokollektorlardan foydalanish.

Neft va gaz sanoati sohasida:

uglevodorod resurslari yo‘qotilishi nazoratining samarali texnologiyalari (SCADA)ni joriy qilgan holda kompressor stansiyalari, past va o‘rta bosimli gaz taqsimlovchi tarmoqlar, shuningdek, gaz-transport tizimini modernizatsiyalash hisobiga tabiiy gaz qazib olish, uni qayta ishlash, tashish va taqsimlashdagi yo‘qotishlarni kamaytirish;

gaz bilan ta‘minlashni hisobga olish va uni taqsimlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish;

neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashda issiqxona gazlarining ajratmalarini qisqartirish;

neftga qo‘shilib chiqadigan gazlarni utilizatsiya qilish va chuqur qayta ishlash jarayonlarini joriy etish natijasida ularni yondirishdan hosil bo‘ladigan issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish;

neft va gaz qazib chiqarish obyektlarida muqobil energiya manbalarini joriy etish;

elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun chiquvchi gazlar issiqligini utilizatsiya qilish.

Kimyo sanoati sohasida:

ammiak, azot kislotasi va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va energiya samaradorligi yuqori yangi quvvatlarni yaratish;

elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun energiya sarfi hajmi katta bo‘lgan kimyoviy jarayonlarning issiqligini utilizatsiya qilish texnologiyalaridan foydalanish;

yirik tonnajli texnogen chiqindilardan sanoatda foydalanishni joriy etish.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarni belgilash va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash, yoqilgʻi-energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalarni, ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy etishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirishni, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirishni va mahalliyashtirishni ragʻbatlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning sinab koʻrilgan texnologiyalari asosida energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga tadbirkorlik subyektlarini jalb etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Oʻtkazilgan tahlillar iqlimning oʻzgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni taʼminlashda oʻzaro bogʻliq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini koʻrsatdi. Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga boʻlgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen taʼsirni kuchaytirmoqda hamda issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

"Yashil" iqtisodiyot atamasi 1990-yillar boshidan iste'molga kirib kelgan bo'lib, bu insoniyat va tabiat o'rtasidagi uyg'un o'zaro ta'sirni qo'llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni anglatadi.

Xalqaro hamjamiyatda "yashil" iqtisodiyot Strategiyasiga insoniyat rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi ekologik, energetik, oziq-ovqat va iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan asosiy yechim sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimiga qo'shilishi munosabati bilan issiqxona gazlarini qisqartirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni zimmasiga oldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida 2019-yil uchun qabul qilingan davlat dasturining 250-bandida mazkur Strategiya ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqishlar belgilangan. Strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish;

ikki karra energiya samaradorligi ko'rsatkichini oshirish va yalpi ichki mahsulot uglerod sarfi hajmini kamaytirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish;

100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash;

sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta'minlash;

energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yoqilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportini rivojlantirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40 foizgacha oshirish;

yerlarning tanazzulga uchrashi bo'yicha neytral balansga erishish;

asosiy turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishishdir.

Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi iqtisodiyotning energiya samaradorligini orttirish borasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, "yashil" energiyadan foydalanishni ta'minlashga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqlash, shuningdek, har yili qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi yangi quvvat ishlab chiqarish obyektlarini O'zbekistonning Yagona elektr energetika tizimiga xavfsiz integratsiya qilish texnik jihatlarini e'tiborga olgan holda ularning joylashuvini belgilash;

tarif siyosatini takomillashtirish va mazkur sohada qulay raqobat muhitini ragʻbatlantirish maqsadida yangidan ishga tushiriladigan qayta tiklanuvchi energiya manbalari obyektlari, xususan quyosh, shamol va biogaz stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasini xarid qilishning chegaralangan (maksimal darajada yoʻl qoʻyiladigan) tariflarini tasdiqlash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalarini amalga oshirish doirasida elektr energetikasi bozoriga toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalar va mustaqil elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar kirishini ragʻbatlantiruvchi aukcion savdolarini joriy etish orqali salohiyatli investorlarni raqobat asosida tanlashning zamonaviy va shaffof uslublarini shakllantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida amaldagi standartlarni tahlil qilish va milliy standartlarni ushbu sohadagi xalqaro meʼyorlar bilan uygʻunlashtirish;

energetika balansi tuzilmasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish uchun yirik, oʻrta, kichik va mikroGESlar, shamol generatorlari va geliostansiyalarni loyihalashtirish va qurishda zamonaviy asoslangan ilmiy-texnik yechimlarni joriy etish;

elektr tarmoqlarining energiya samaradorligi va ishonchliligini oshirish, avariya holatlarining oldini olish va elektr quvvatiga talab kuchayganda zaxira quvvatlarni oʻz vaqtida ishga tushirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiya ishlab chiqarishning nomarkazlashtirilgan tizimlarini joriy etish orqali elektr taʼminoti tizimlarini modernizatsiyalash va qayta qurish;

elektr energiyasini ishlab chiqish va taqsimlash balansini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini alohida ajratgan holda monitoring qilish;

energiya tizimlariga ulanish orqali ishlab chiqarilgan energiyani toʻplash texnologiyalarini rivojlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya olish uchun uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;

mavjud GESlarning energiya ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash;

kichik derivatsion GESlar va ularning infratuzilmalarini qurish; respublikaning qishloq joylari va uzoq hududlarida elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun quyosh batareyalarini joriy etish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha namoyish markazlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi masalalari bo'yicha aholini keng xabardor qilish.

Iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash

Suv xo'jaligi sohasida:

suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yerlar sho'rlanishi va sifat jihatidan yomonlashuvi davom etishining oldini olish;

gidrotexnik inshootlar, nasos stansiyalari va suv omborlari qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

suv xo'jaligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalardan keng foydalanish;

suv xo'jaligi inshootlarini yangilash, modernizatsiyalash va avtomatlashtirish;

qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning energiya samarador va suvni tejaydigan texnologiyalarini keng qo'llash, suvni tejashni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

suv resurslarini barqaror boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish.

“Yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish:

texnologik ehtiyojlarni baholash, ustuvor vazifalarni belgilash va eng muhim texnologiyalarni tanlash, ularni ishlab chiqish/transferga ko'mak berish;

“yashil” texnologiyalarni tijoratlash tirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar — texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish.

10.4.”Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish

“Yashil” iqtisodiyot sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:

Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi normativ-huquqiy bazani inventarizatsiya qilish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

iqtisodiy choralar va vositalar ishlab chiqish, xususan, issiqxona gazlarining ajratmalarini qisqartirganlik uchun haq to‘lashni joriy etish;

energiya samaradorligiga qo‘yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqish va joriy etish.

Energiya samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish:

energiya tejash va energiya samaradorligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini monitoring qilish, verifikatsiyalash va hisobotini yuritish tizimini joriy etish;

energiya sarfi hajmi yuqori bo‘lgan korxonalarning energomenejmenti va auditini o‘tkazish;

barcha toifadagi iste’molchilar, shu jumladan sanoat va energetika obyektlari uchun elektr energiyasi iste’molini hisobga olishning avtomatlashtirilgan davlat tizimini rivojlantirish.

“Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash:

“yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish;

“yashil” fondlar, energiya tejamkorligi maxsus fondlari va boshqa xuddi shunday mexanizmlar yaratish;

“yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, shuningdek, “yashil” investitsiyalarga nisbatan bank tizimini rag‘batlantirish;

fiskal (xazinaga oid) siyosat orqali davlat tomonidan “yashil” iqtisodiyotning barqaror o‘shirishini qo‘llab-quvvatlash.

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi:

issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, “yashil” energiyadan foydalanishni ta‘minlashga, “yashil” ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Prezidentning 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori qabul qilindi. Hujjat bilan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan:

issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35%ga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30%idan ko‘prog‘iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20%ga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 mln ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30%dan ortiqroqqa kengaytirish;

qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% dan oshirish va boshqalar.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi «yashil» iqtisodiyotni ilgari surish va “yashil” o‘sish tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlanmalarini qisqartirishga doir faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilandi.

Energetika vazirligi – “yashil” energetikani rivojlantirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va vodorod energetikasini keng joriy qilish, shuningdek, energiya samaradorligini

oshirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning energiya sigʻimini kamaytirish boʻyicha vakolatli organ.

2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga taʼsirni cheklash boʻyicha qoʻyilayotgan talablar asosida “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etildi.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022–2026 yillarda issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan tartibga solish infratuzilmasi bosqichma-bosqich yaratiladi:

issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;

iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli koʻrsatkichlarini belgilash;
issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish boʻyicha faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash.

2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi Iqlim oʻzgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yoʻlga qoʻyiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirishdan oldingi bosqichlarda ularning issiqxona gazi hajmini qisqartirish imkoniyati baholanadi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab yangi quriladigan, quvvati 1 MVt dan yuqori boʻlgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish boʻyicha investitsiya loyihalari doirasida ushbu stansiyalarning oʻrnatilgan quvvatiga nisbatan 25%dan kam boʻlmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi majburiy tartibda joriy etiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi Parij bitimining (Parij, 2015-yil 12-dekabr) 6-moddasiga muvofiq, Barqaror rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash mexanizmi boʻyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish boʻyicha vakolatli organ ham hisoblanadi.

Qaror bilan quyidagilar ham tasdiqlandi:

Sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish va energiya tejamkorligini taʼminlash boʻyicha konsepsiya;

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shni ta‘minlash bo‘yicha harakatlar rejasi;

25 ta korxona va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20%ga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari.

10.5. Iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo‘llari

Bugun iqlim o‘zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammo ekani jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan. Iqlim o‘zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta‘sir ko‘rsatmoqda va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo‘yicha kechiktirilmaydigan choralar ko‘rishni talab etmoqda.

Zamonaviy ilm-fan insonning avvalambor qazib olinadigan yoqilg‘ini yondirish natijasida issiqxona gazlarining chiqarilishi bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyati iqlimga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini tasdiqlovchi jiddiy asoslar taqdim qilmoqda.

O‘zbekistonda 1980-yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrda o‘rtacha yillik harorat 1,6 daraja (13, 2 dan 14,8 °C gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan o‘rtacha sur‘atlardan yuqoridir. Mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°Cga ko‘tarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolbo‘yida ko‘tarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim o‘zgarishlari bilan yanada og‘irlashadi.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oqibatlari ta‘siriga ko‘proq moyil bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ekspertlarning baholariga ko‘ra atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining bundan keyin ham ortishi, qurg‘oqchilik natijasida suv va oziq-ovqat tanqisligi xavfini ko‘payishiga, issiq mavsum davomiyligi va qizg‘inligining oshishi tufayli aholi sonining ortishiga, shuningdek sellar, toshqinlar va

boshqa xavfli hodisalarning takrorlanishiga olib keladi. Undan tashqari, bunday ilish ekotizimlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari kabi mintaqalarda ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

Global iqlim o'zgarishi va mamlakat tabiiy-resurs kompleksining ana shu o'zgarishlarga ta'sirchanligi izchil iqlimiy siyosatni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi.

BMTning "Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Dairaviy konvensiyasi" (BMT IO'DK) iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro harakatlarning asosi bo'lib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiy tizimga xavfli antropogen ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston BMT IO'DKga 1993-yilda qo'shildi. O'zbekistonda BMT IO'DKni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston 1999-yilda rivojlangan mamlakatlarga issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatlarini yuklovchi xalqaro bitim – Kioto protokolini ratifikatsiya qildi.

Kuchayib borayotgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq global tahdidlarga kompleks javobni mustahkamlash maqsadida, BMT IO'DKning Kioto protokoli o'rniga 2015-yil dekabrda Parij bitimi qabul qilindi, u 2020 yilda kuchga kirdi.

2017-yil 19-aprelda O'zbekiston Parij bitimini imzoladi, 2018-yil 2-noyabrda ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2018-yil 2-oktyabrda qabul qilindi. Bitim O'zbekiston uchun 2018-yil 9-dekabrda kuchga kirdi.

Parij bitimining maqsadi - IO'DK amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratning industrialashtirishgacha (1750y.) bo'lgan darajaga nisbatan 2°C ga saqlab turish hamda

haroratning 1,5°C gacha o'sishini cheklashga harakat qilishdan iborat, bu 2050-yilga kelib iqlim o'zgarishi global ajratmalarini 40-70%ga kamaytirishni va 2100-yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi.

Parij bitimini imzolashning zaruriy sharti – mamlakatning 2030-yilga qadar erishmoqchi bo'lgan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga oid Mo'ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni tayyorlash va BMT IO'DK kotibiyatiga taqdim etish. Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MBH) Parij bitimining global maqsadlariga hissa qo'shish uchun milliy harakatlarni amalga oshirishni asosiy mexanizmidir.

Parij bitimi bo'yicha O'zbekistonning asosiy majburiyati - 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10%ga qisqartirish.

O'zbekiston MMBH 2030-yilgacha bo'lgan davrda iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish choralari va harakatlarini o'z ichiga oladi. Mo'ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni amalga oshirish faol olib borilyapti va O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Bundan tashqari, BMT IO'DKning 4.1 va 12.1-moddalariga muvofiq, Konvensiyaning ishtirokchi-mamlakatlari o'zlarining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Milliy axborotlarini doimiy ravishda taqdim etishlari shart, bu esa o'z vaqtida BMT IO'DK va Parij bitimining bajarilish jarayoni to'g'risidagi hisobot hisoblanadi. Milliy axborot iqlim o'zgarishini yumshatish, unga moslashish, salohiyatni oshirish, texnologiyalarni rivolantirish va uzatish, turli aholining ijtimoiy guruhlarining ta'lim va xabardorligini oshirishga qaratilgan milliy chora-tadbirlarning batafsil sharhidir.

BMT IO'DK bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida O'zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda BMT IO'DK talablari va ko'rsatmalariga muvofiq, Birinchi milliy axborot (1999 y.) va uning 2-bosqichi bo'yicha hisobot (2001 y.),

Ikkinchi milliy axborot (2008 y.), Uchinchi milliy axborot (2016 y.) tayyorlangan va taqdim etilgan. Bundan tashqari, O'zgidromet vazirlik va idoralar bilan birgalikda issiqxona gazlari tashlamalari inventarizatsiyasini tayyorlaydi. 1990-2012 yillar uchun inventarizatsiya bo'yicha hisobotlar tayyorlangan.

Hozir To'rtinchi milliy axborotni tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Yangilangan ma'lumotlar bo'yicha Birinchi ikki yillik hisoboti tayyorlandi va BMT IO'DK Kotibiyatiga taqdim etildi. Ikki yillik hisobotga ikkita asosiy yo'nalish kiritilgan: 1990-2017 yil uchun issiqxona gazlari tashlamalari inventarizatsiyasi va iqlim o'zgarishini yumshatish choralari samaradorligini baholash.

O'zgidromet BMT Taraqqiyot dasturi va manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda iqtisodiyot tarmoqlari va iqlim o'zgarishiga eng zaif bo'lgan mintaqalarga qaratilgan Iqlim o'zgarishiga Milliy moslashish rejasini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Bu ham mamlakatning Parij bitimi bo'yicha majburiyatidir.

O'zbekiston Konvensiya va Parij bitimi Tomoni sifatida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlamalarini qisqartirishga yo'naltirilgan izchil siyosatni amalga oshirmoqda. Hukumat tomonidan iqlim o'zgarishi sohasida harakatlarni tartibga solish va choralarni amalga oshirish yuzasidan qator hujjatlar qabul qilindi.

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida” va “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish (quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish) uchun huquqiy va me'yoriy asos yaratdi.

BMT IO'DK va Parij bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida issiqxona gazlar tashlamalarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashishning ustuvor yo'nalishlari mamlakatning tegishli strategik va tarmoq rejalari va dasturlarida aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining BMT IO‘DK va Parij bitimidagi ishtiroki rivojlanayotgan mamlakat sifatida iqlimni moliyalashtirish jamg‘armalaridan mablag‘ jalb qilishga imkon beradi, shu jumladan, Yashil iqlim fondi (YaIF), Adaptatsiya jamg‘armasi (AJ), Global ekologik jamg‘armasi (GEJ) va boshqalar.

Global ekologik jamg‘arma (GEJ), BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), BMT Atrof-muhit dasturi (YuNEP) va boshqa halqaro tashkilotlarning moliyaviy ko‘magi yordamida mamlakatning iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun ko‘plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va hozirgi paytda amalga oshirilmoqda.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Iqlim bo‘yicha Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish bo‘yicha milliy miqyosda belgilangan ulush - 2030-yilgacha YalM birligiga to‘g‘ri keladigan parnik gazlar chiqarilishini 2010-yil darajasidan 10 foizga kamaytirish bo‘yicha miqdoriy majburiyatni o‘z zimmasiga oldi.

Barqaror rivojlanish 13-maqsvadi Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish (SDG 13) deyiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda belgilangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biridir. SDG 13 2030-yilgacha erishilishi kerak bo‘lgan beshta maqsadni o‘z ichiga oladi. Ular iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi. Dastlabki 3 ta maqsad “maqsadli natijalar” deyiladi va ular quyidagilar:

1. iqlim bilan bog‘liq tabiiy ofatlarga chidamlilik va moslashish qobiliyatini kuchaytirish;
2. iqlim o‘zgarishi bo‘yicha chora-tadbirlarni siyosat va rejalashtirishga integratsiya qilish;
3. iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun bilim va salohiyatni shakllantirish.

Qolgan ikkita maqsadda BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasini amalga oshirish, rejalashtirish va boshqarish

salohiyatini oshirish mexanizmlarini ilgari surilgan. Hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishi dunyoning barcha mamlakatlarida global hamjamiyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining ta'siri nafaqat milliy iqtisodiyotlarga, balki hayot va yashash vositalariga, ayniqsa zaif sharoitlarda bo'lganlarga ham ta'sir qiladi.

2018-yilda iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlar, masalan, katta o'rmon yong'inlari, qurg'oqchilik, bo'ronlar va toshqinlar chastotasini kuchaytirdi.

Toza energiya bo'yicha SDG 13 va SDG 7 bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Parij kelishuvi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun mamlakatlar e'tibor qaratishi kerak bo'lgan issiqxona gazlarini tejashning yetakchi manbalari yoqilg'ini qayta tiklanadigan energiyaga o'tkazish va yakuniy energiya samaradorligini oshirishni kelishib olganlar.

Mamlakatda Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida parnik gazlar chiqarilishini kamaytirishning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlari iqtisodiyotda energiya va resurs ko'p ishlatilishini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejoychi texnologiyalari keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo'yida ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutuvchi qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, dunyo bo'yicha atrof-muhitning holati va ifloslanishi bo'yicha tadqiqotga ko'ra, deyarli barcha tabiiy resurslar jiddiy antropogen bosimga duchor bo'lgan. Bu kabi ekologik iqtisodiy muommalar iqtisodiyotni yashillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni "Yashillashtirish"ning asosiy usullaridan biri innovatsiyalar va faoliyatning turli sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. 2020-yilda ko'plab kompaniyalar raqamlashtirish tizimiga tez o'tgandan so'ng, iqtisodiyotni tubdan qayta qurish bosqichi boshlandi. Demak, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron

biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan yangi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ijobiy tomonlari:

ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishi hisobiga mehnat unumdorligining o'sishi;

yangi yashil ish o'rinlari yaratilishi, shuningdek frilansning rivojlanishi;

kompaniyalar raqobatbardoshligining ortishi uchun imkoniyatlar yaratilishi va shuningdek ekologik mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi;

qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlikning bartaraf qilinishi.

Demak, yashil iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni qo'llash mohiyat, barqaror rivojlanish texnologiyalarni yaratilishiga olib keladi.

XXI asr boshida Birlashgan Millatlar Tashkiloti insoniyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lgan 17 ta global maqsadlarni ilgari surdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan qo'llab-quvvatlangan Oksford universitetining Global tiklanish observatoriyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotiga ko'ra, qayta tiklash uchun umumiy xarajatlarning 20% dan kamrog'i atrof-muhit muammolariga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 2-dekabrdagi “2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan:

issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35%ga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30%idan ko‘prog‘iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20%ga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 mln ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30%dan ortiqroqqa kengaytirish;

qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65%dan oshirish va boshqalar.

Hozirda global biznes iqlim o‘zgarishining oldini olishga va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni rivojlantirishga katta miqdordagi resurslarni yo‘naltirmoqda. Muqobil energiya manbalari-bu gidroenergetika, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, geotermal energiya, biomassa va suv toshqini energiyasidan foydalanish orqali olinadigan qayta tiklanadigan energiya manbalari. Bu energiya manbalari neft, tabiiy gaz, ko‘mir va uran rudasi kabi qazib olinadigan yoqilg‘ilardan farqli o‘laroq, tugamaydi, shuning uchun ular qayta tiklanadigan manbalar deb ataladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda energiya ishlab chiqarish obyektlarining umumiy quvvati o‘sib bormoqda, ammo rivojlanish sur‘ati Yaqin xorijiy mamlakatlar xususan Rossiyaga qaraganda ancha past. O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi oldida eng zaif davlatlardan biri hisoblanadi, chunki mamlakat hududining 80 foizini o‘tloqlar va cho‘l hududlari egallaydi, shu sababli iqlim o‘zgarishi O‘zbekiston iqtisodiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. 50-yillarning boshidan

buyon mamlakatda oʻrtacha harorat global isish tezligidan ikki baravar koʻtarildi.

Hozirgi prognozlar koʻrsatishicha, zarur yumshatish choralari koʻrilmasa, 2050-yilga kelib mamlakatda oʻrtacha harorat 1,8°-3,3°C gacha koʻtariladi. Qoʻshimcha moslashish choralarisiz, shu asrning oʻrtalariga kelib, mamlakat suv tanqisligi kuchayishi, choʻllanish kuchayishi, qurgʻoqchilik va yerlar degradatsiyasiga duch kelishi mumkin. Bunday ekstremal ob-havo qishloq xoʻjaligi, turizm, sogʻliqni saqlash va infratuzilmaga salbiy taʼsir koʻrsatib, Oʻzbekiston rivojlanishini cheklaydi. Iqlim oʻzgarishining oqibatlari Orol dengizining ekologik halokatida allaqachon namoyon boʻldi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston oʻzining hozirgi rivojlanish modeli boʻyicha oʻsish chegaralarini engib oʻtish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor boʻlib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yoʻlidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, oʻz iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish oʻrinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" oʻsish modeli sari yoʻlni belgilash boʻyicha qadamlar tashlamoqda. Lekin, yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy oʻsishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak.

“Barqaror rivojlanish” - jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli boʻlib, unga bosqichma bosqich oʻtish jarayonida yashil iqtisodiyotga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin.

Tabiiy resurslarga boy va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Qozogʻiston uzoq muddatli barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun yashil iqtisodiyotga oʻtish muhimligini tan oldi. Qozogʻistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, shu

bilan birga atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini asoslang.

2. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining maqsadi, tamoyillari va vazifalarini sharhlang.

3. Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qanday tamoyillarga asoslanadi?

4. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining amalga oshirish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlarini sharhlang.

5. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari nimalardan iborat?

6. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llanilmoqda?

7. Mamlakatimizda energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

8. O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishning maqsadli ko'rsatkichlarini tavsiflab bering.

9. "Yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmi va amalga oshirish dastaklariga nimalar kiradi?

11-BOB. MILLIY “YASHIL” TAKSONOMIYA

11.1. O‘zbekistonda milliy “yashil” taksonomiya ishlab chiqish maqsadi va asosiy vazifalari

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda koronavirus pandemiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish hamda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta’minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o‘tish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o‘tish xalqaro darajada ham, O‘zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof-muhit imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Dunyodagi yetakchi iqtisodchi olimlarning ta’kidlashicha, “yashil” iqtisodiyotni “uzoq muddatda kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavflar va inqirozga olib kelmasdan, inson farovonligini yaxshilashga yo‘naltirilgan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat tizimi” deb ta’riflanganining o‘zi buning qanchalik ustuvor ekanligini anglatadi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning maqsadi- tabiiy resurslarni asrash, zaharlanuvchi moddalar emissiyalarini kamaytirish va kelgusi avlodlarning xayotini ta’minlashga yordam beradigan barqaror va ekologik to‘g‘ri rivojlanish modelini yaratishda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son qarori bilan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar

(02.12.2022-yildagi PQ-436-son qaror bilan tasdiqlangan) rejasiga muvofiq “yashil” turdagi faoliyatni tasniflash uchun Milliy “yashil” taksonomiya tasdiqlandi.

“Yashil” loyihalar taksonomiyasi – barqaror rivojlanishga ko‘maklashadigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga, atrof-muhitga salbiy ta’sir darajasini pasaytirishga va energiya tejamkorligini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar va aktivlarni tasniflash tizimi.

"Yashil taksonomiya" tushunchasi nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda turlicha talqin qilinadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida birinchi marta “Yashil taksonomiya”ni barqaror rivojlanishning va sof ekologiyani ta’minlashni keng qamrovli dasturi sifatida ta’riflangan. "Yashil taksonomiya" ekologik muhitga ta'siri bo'yicha iqtisodiy faoliyatlar turlarini tasniflovchi tizim sifatida qaralgani.

“Yashil taksonomiya” yoki “yashil tasnif” zamonaviy dunyoda muhim rol o‘ynaydi. U ekologik barqaror va ekologik toza investitsiyalar, loyihalar va amaliyotlarni aniqlashga qaratilgan. “Yashil taksonomiya” issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish loyihalariga investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi. Shuningdek, “yashil taksonomiya” yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishini rag‘batlantirib, ekologik toza yechimlarga talabni yaratadi. Moliyaviy va korporativ qarorlarni tartibga solib, kompaniyalar faoliyatiga ekologik jihatlarni integratsiya qilishga undaydi.

“Yashil taksonomiya”ni ishlab chiqarish bir necha sabablarga ko‘ra dolzarbdir:

1. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish zarurati: Global iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytiruvchi ekologik

toza texnologiyalarga o'tishga ko'maklashuvchi investitsiyalar va loyihalarni aniqlash va ilgari surish imkonini beradi.

2. Barqaror sarmoyaga qiziqishni ortishi: Investorlar va iste'molchilar moliyaviy va korporativ qarorlar qabul qilishda barqarorlik va mas'uliyat muhimligini, yashil taksonomiya shaffof mezonlarni asosida investorlarga investitsiya bozorini barqaror rivojlantirish imkonini beruvchi ekologik jihatdan barqaror loyihalar va kompaniyalarni aniqlash imkonini beradi.

3. Tartibga solish va standartlashtirish. Yashil taksonomiya biznes va investitsiyalarning ekologik jihatlarini tartibga solishga yordam beradigan qoidalar va standartlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu, shuningdek, moliya sektorida shaffoflik va mas'uliyatni oshirish imkonini beradi.

4. Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Yashil taksonomiya yangi ekologik toza texnologik, innovatsion va amaliy yechimlarni ishlab chiqishni rag'batlantirishi mumkin, bu esa o'z navbatida ekologik barqaror tarmoqlarni rivojlantirishga va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

11.2. "Yashil taksonomiya" mezonlari

"Yashil taksonomiya" ekspert guruhlar tomonidan belgilangan maxsus mezonlar va standartlar yordamida o'lchanadi.

Bular quyidagi asosiy elementlarni o'lchaydi:

1. Barqarorlik mezonlari: Yashil taksonomiya loyihalar va mahsulotlarning barqarorligini, jumladan, ularning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy jihatlar va iqtisodiy barqarorligini baholash mezonlarini belgilaydi. Ushbu mezonlar energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi mezonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Standartlashtirish: Yashil taksonomiya loyihalar va mahsulotlarning barqarorlik darajasini baholash va o'lchash uchun standartlashtirilgan metodologiya va vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunga ekologik sertifikatlar, barqarorlik standartlari,

mahsulotning hayot aylanishini baholash usullari va boshqa vositalardan foydalanish kiradi.

3. Hisobot: Yashil taksonomiyaga rioya qilishga da'vogar kompaniyalar va tashkilotlar barqarorlik nuqtai nazaridan ekologik faoliyati, ijtimoiy mas'uliyati faoliyati to'g'risida hisobotlarni taqdim etishlari kerak.

4. Monitoring tizimi: Yashil taksonomiyani o'lchash uchun barqarorlik mezonlarini amalga oshirishni nazorat qilish, natijalarni baholash va kerakli tuzatishlarni kiritish imkonini beruvchi monitoring tizimi qo'llaniladi.

Yashil taksonomiyada belgilangan maxsus mezonlar va standartlar orqali o'lchash loyihalari barqarorligini baholashga kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi, bu investorlar, moliya institutlari va iste'molchilarga o'z investitsiyalari va iste'molchilarning afzalliklari to'g'risidai qaror qabul qilish imkonini beradi.

ESLATMA

Dunyoda taksonomiyalarning rivojlanish xarakterini bir-biriga bog'liq uchta tendensiya belgilaydi.

Birinchidan, ijtimoiy va o'tish davri taksonomiyalarining rivojlanishi. Ikkinchidan, EI taksonomiyasidan qo'llanma sifatida foydalangan holda taksonomiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga yondashuvlarda o'ziga xoslik mavjud. Uchinchidan, o'z taksonomiyasini ustun va ta'sirli qilish istagi.

Taksonomiyalarning tashabbuskorlari ham xususiy kompaniyalar, ham davlatlardir. Kanadada o'tish davri taksonomiyasini ishlab chiqish federal hukumat tomonidan homiylik qilinmaydi va tashabbus xususiy sektor (oltita yirik bank, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari) va ayrim korporatsiyalardan keladi. Yaponiyada birinchi bo'lib o'tish davri taksonomiyasini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalarni taklif qilgan tadqiqotchilar guruhi edi.

O'zbekistonda milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi quyidagi 7 ta toifaga bo'lingan:

suv va xomashyolardan foydalanish samaradorligi;

havo va tuproq sifatini yaxshilash;
barqaror qishloq va oʻrmon xoʻjaligi, ekoturizm;
yashil transport;
energiya samaradorligini oshirish;
qayta tiklanuvchi energiya;
yashil binolar.

Ular ham oʻz navbatida turli sektorlarga boʻlingan.

“Yashil taksonomiya”ni qabul qilish uning samaradorligi bir necha jihatlarida namoyon boʻladi:

Shaffoflik va standartlashtirish: Yashil taksonomiya ekologik barqaror loyihalar va mahsulotlarni aniqlashning aniq mezonlarini belgilaydi, bu esa yashil investitsiyalarni baholash va taqqoslashda shaffoflik va standartlashtirishni ragʻbatlantiradi.

Yashil sarmoyani ragʻbatlantirish: Yashil taksonomiya sarmoyadorlar va moliya institutlariga sarmoyani yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qoʻshadigan ekologik barqaror loyihalar va biznesga yoʻnaltirish orqali koʻproq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Barqaror rivojlanishni ragʻbatlantirish: Yashil taksonomiya korxonalar va tashkilotlarni barqaror rivojlanishga intilishga undash orqali ekologik va ijtimoiy taʼsirlarni kamaytirishga yordam beradi.

Iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashga hissa qoʻshish: Issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytiradigan va energiya samaradorligini oshiradigan loyihalarga investitsiyalarni maqsadli yoʻnaltirish orqali iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda muhim rol oʻynaydi.

Yangi bozorlar va texnologiyalarni rivojlantirish: Yashil taksonomiya yangi yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishni ragʻbatlantiradi, tadbirkorlar va kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shubhasiz, iqlim oʻzgarishi tahdidi va yanada barqaror amaliyotga oʻtish zarurligini hisobga olgan holda, yashil taksonomiya zamonaviy dunyoda muhim rol oʻynaydi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi, balki yangi texnologiyalar va

innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi, moliyaviy va korporativ qarorlarni tartibga soladi. Yashil taksonomiyani qabul qilish yanada barqaror va mas'uliyatli iqtisodiyotga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida hozirgi va kelajak avlodlarga foyda keltiradi.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda milliy "yashil" taksonomiya ishlab chiqish zaruriyatini asoslang.
2. O'zbekistonda milliy "yashil" taksonomiya ishlab chiqish vazifalarini sharhlang.
3. "Yashil" taksonomiya tushunchasi qachon qabul qilingan?
4. Milliy "yashil" taksonomiya mezonlarni qanday tamoyillarga asoslanadi?
5. Milliy "yashil" taksonomiya samaradorligi nimalardan iborat?

GLOSSARIY

Agroo‘rmon xo‘jaligi - tuproq sifatini yaxshilash uchun o‘rmon xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligining mutanosib rivojlanishi.

Agroparklar- yirik sanoatlashgan shaharlar atrofidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng assortimentini agrosanoat markazlariga birlashtirish shaklidir.

An'anaviy qishloq xo‘jaligi - bu kichik fermerlar tomonidan mahalliy va an'anaviy qishloq xo‘jaligi texnikasini avloddan-avlodga o‘rganish orqali amalga oshiriladigan qishloq xo‘jaligi.

Aqlli shahar – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet imkoniyatlariga asoslangan qarorlar qabul qilishni shahar infratuzilmasini boshqarishga integratsiyalash konsepsiyasi.

Aquaponika - bu baliq yetishtirish (“akvakultura”) va pomidor yetishtirish (“gidroponika”)ning sinergik ta’siriga asoslangan ilmiy usul.

Atrof-muhit iqtisodiyoti- iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini tashqi ta’sir sifatida talqin qilishga asoslangan iqtisodiy fandır.

Barqaror rivojlanish maqsadlari- barqaror Taraqqiyot Maqsadlari (BRM) kelajakda xalqaro hamkorlik orqali erishilishi kutilayotgan maqsadlar majmuasidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) - BMT dastur tizimiga kiritilgan dastur bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Dastur 1972 yil 15 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 2997-sonli rezolyutsiyasi bilan yaratilgan.

Chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish — chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida hisobga olish va nazorat qilish, chiqindilarni ko‘mib tashlash va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish, chiqindilarning hosil bo‘lishi, ularni to‘plash, joylashtirish, tashish, zararsizlantirish, saqlash, qayta ishlash, utilizatsiya va realizatsiya qilish bilan bog‘liq faoliyat;

Chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish obyektlari — chiqindilarni to‘plash, joylashtirish, tashish, zararsizlantirish, saqlash, qayta ishlash, utilizatsiya va realizatsiya qilish uchun foydalaniladigan obyektlar;

Chiqindi pasporti — chiqindi kelib chiqqan joyni hamda chiqindining individual xususiyatlarini tasdiqlovchi hujjat;

Chiqindilar — ishlab chiqarish yoki iste‘mol qilish jarayonida xomashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek o‘zining iste‘mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar (mahsulotlar);

Chiqindilarni joylashtirish limiti — muayyan muddatga joylashtirish ruxsat etilgan chiqindilarning eng yuqori miqdori;

Chiqindilarni joylashtirish obyekti — chiqindilarni saqlash hamda zararsizlantirish uchun maxsus ajratilgan va jihozlangan joy;

Chiqindilarni ko‘mib tashlash — chiqindilarni, ifloslantiruvchi moddalar atrof-muhitni bulg‘atishining oldini olishga qaratilgan hamda bu chiqindilardan kelgusida foydalanish imkoniyatini istisno etadigan tarzda, ajratib qo‘yish;

Chiqindilarni qayta ishlash — chiqindilarni ekologik jihatdan bexatar saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish maqsadida ularning fizik, kimyoviy yoki biologik xususiyatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq texnologik operatsiyalarni amalga oshirish;

Chiqindilarni saqlash — chiqindilar zararsizlantirish, qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish maqsadida olib ketilguniga qadar ularni maxsus jihozlangan to‘plagichlarda saqlash;

Chiqindilarni utilizatsiya qilish — chiqindilar tarkibidan qimmatli moddalarni ajratib olish yoki chiqindilarni ikkilamchi xomashyo, yoqilg‘i, o‘g‘it sifatida va boshqa maqsadlarda ishlatish;

Chiqindilarni zararsizlantirish — chiqindilarni neytral holga keltirish, dezaktivatsiyalash, dezinfeksiyalash, demerkurizatsiyalash, chiritish, yoqib yuborish, termik jihatdan qayta ishlash va ko‘mib tashlash bilan bog‘liq faoliyat;

Chiqindilarning hosil bo'lish normativi — mahsulot birligi ishlab chiqarilayotganda yoki boshlang'ich xomashyo birligidan hosil bo'ladigan muayyan turdagi chiqindilarning belgilangan miqdori;

Davlat ekologik siyosati - bu mamlakat hududining ekologik holati bilan bog'liq afzallik va kamchiliklarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir.

Decoupling - tabiiy kapitalning kamayishini kamaytirish orqali o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish.

Ekologik siyosat – mamlakatdagi ekologik vaziyatni boshqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional chora-tadbirlar tizimi.

Ekologik soliq va yig'imlar - ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilar tomonidan atrof-muhitga yetkazilgan zarar, atrof-muhitning chiqindilardan ifloslanish darajasiga qarab undiriladigan soliqlar yoki yig'imlar.

Ekologik subsidiyalar yoki to'lovlar- hukumat tomonidan iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilarga ekologik toza texnologiyalarni (jumladan, shamol turbinalari yoki quyosh panellari) ishlab chiqish, qabul qilish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish uchun to'lanadigan to'lovlardir.

Ekologik yondashuv - har qanday ekologik tizimlarning normal ishlashini ta'minlashga xizmat qiluvchi yondashuv.

Elektr energiyasini sotib olish va sotish shartnomasi (EPK) - elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida elektr energiyasini sotib olish uchun tuzilgan shartnoma. Soliqdan ozod qilingan obligatsiyalar - bu obligatsiyalar bo'lib, unda investorlar foiz to'lovlari o'rniga soliqqa tortiladigan kreditlarni oladilar va emitentlar obligatsiyalar bo'yicha foizlarni to'lamaydilar.

Gidroponika - bu o'simliklarni tuproqsiz o'stirishning ilmiy usuli bo'lib, unda o'simliklar tuproqda ildiz olmagan va ozuqa moddalarining manbai noorganik substratdir.

Global ekologik siyosat - bu xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni

mamlakatlar o'rtasida taqsimlashda ekologik cheklovlar bilan bog'liq xalqaro tadbirlarni amalga oshirishdir.

Global yashil o'sish instituti (GGGI)- iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanat bo'lgan yashil o'sishni rag'batlantirishga bag'ishlangan xalqaro tashkilotdir.

Ijtimoiy yondashuv - bu global miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta'minlashga qaratilgan yondashuv.

Iqtisodiy vositalar - ekologik muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan bozor vositalari (narx mexanizmi, soliqlar, subsidiyalar va boshqalar).

Iqtisodiy yondashuv - cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni anglatadi.

Issiqxonalar - bu joydan qat'i nazar, meva va sabzavotlarni yetishtirishning an'anaviy usuli.

Jahon banki- rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilotdir.

Kioto protokoli -1997-yil dekabr oyida Yaponiyaning Kioto shahrida qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasiga (1992) qo'shimcha hujjatdir.

Lokal tarmoq — elektr, issiqlik energiyasini yoxud biogazni tashish (uzatish) va (yoki) taqsimlash uchun mustaqil ravishda ishlovchi elektr, issiqlik va (yoki) gaz tarmog'i;

Mahalliy ekologik siyosat - mahalliy darajada atrof-muhit monitoringi, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, mahalliy ekologik dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish bilan bog'liq chora-tadbirlar.

Ma'muriy cheklovlar - bu korxonalar atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun nimalarga rioya qilishlari kerakligini ko'rsatadigan qonuniy cheklovlar.

Mas'uliyat qoidalari va kompensatsiya dasturlari ishlab chiqaruvchilarni o'z faoliyati (neft yoki foydali qazilmalarni qazib

olish) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan atrof-muhitga yetkazilgan zararni bartaraf etishga yoki oldini olishga undaydigan dasturlardir.

Melioratsiya obyektlari — kollektor-drenaj va yer usti tashlama suvlarini to'plash hamda ularni sug'oriladigan yerlardan tashqariga chiqarib tashlashga ko'maklashadigan, kollektorlarni va kollektor-drenaj tarmog'ini, vertikal drenaj quduqlarini, melioratsiya nasos stansiyalarini (agregatlarini) va kuzatuv tarmog'ini o'z ichiga oladigan suv xo'jaligi obyektlari;

Mikro va kichik gidroelektr stansiyalari- elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun suv oqimlarining tabiiy harakati energiyasidan foydalangan holda o'rnatilgan quvvati mos ravishda 0,2 MVt va 30 MVt gacha bo'lgan to'g'onsiz GESlardir.

Mikro va kichik gidroelektr stansiyalari — elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun suv oqimlarining tabiiy harakati energiyasidan foydalanuvchi, o'rnatilgan quvvati tegishincha 0,2 MVt va 30 MVtgacha bo'lgan to'g'onsiz gidroelektr stansiyalari;

Milliy boylik fondi - bu davlat investitsiya fondi bo'lib, uning moliyaviy aktivlari, aksiyalar, obligatsiyalar, mulk, qimmatbaho metallar va boshqa moliyaviy vositalardan iborat.

Mintaqaviy ekologik siyosat - bu davlat tomonidan mamlakatning alohida hududlarida, shuningdek, mintaqa doirasidagi mahalliy darajada ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan siyosat.

Organik qishloq xo'jaligi - bu tabiiy kapitalni saqlash, rivojlantirish va to'plashga yordam beradigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni boshqarishning keng qamrovli tizimi.

Organik sertifikat - bu korxona mahsulot yetishtirish, ishlab chiqarish, qadoqlash va tashishda organik talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Qayta ishlash (yo'q qilish) dasturlari iste'molchilardan atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni sotib olayotganda ma'lum miqdorni to'lashni va mahsulotlarni qayta ishlash

yoki yoʻq qilish uchun tegishli markazlarga oʻtkazishda toʻlangan summani qaytarishni talab qiladigan dasturlardir.

Qayta tiklanadigan energiya - bu tabiiy manbalardan olinadigan energiya. Muqobil energiya - anʼanaviy fotoalbom yoqilgʻilarni qayta ishlash natijasida olingan energiyaga muqobil energiya. "Yashil energiya" - bu anʼanaviy energiyaga qaraganda atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadigan energiya.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

Qayta tiklanadigan energiya qurilmalari - qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, energiyani qabul qilish, konversiyalash, saqlash va uzatish hamda uni hisobga olish uchun texnologik asbob-uskunalar, texnologik va butlovchi uskunalar majmuasi.

Qayta tiklanadigan energiya qurilmalari ishlab chiqaruvchilari qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadigan qurilmalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslardir. Qayta tiklanadigan energiya manbalari haqida.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari — atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar — qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish - ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, tadqiqot, joriy etish, loyihalash, qurilish-montaj ishlari va ulardan foydalanish, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, tashish, yigʻish, sotish va isteʼmol qilish bilan bogʻliq faoliyat.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish — ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, qidiruv, joriy etish, loyihalash, qurilish-montaj ishlari va foydalanishga doir ishlar, shuningdek qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, uni tashish, to'plash, realizatsiya va iste'mol qilish bilan bog'liq faoliyat;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari — qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqarish, energiyani qabul qilib olish, o'zgartirish, to'plash va (yoki) uzatish, shuningdek hisobga olish bo'yicha texnologik asbob-uskunalar majmuasi, texnologik va (yoki) butlovchi asbob-uskunalar;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar — qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar.

Sanoat qishloq xo'jaligi - bu tashqi resurslardan foydalanishni o'z ichiga olgan qayta ishlash usullariga ega qishloq xo'jaligi.

Sekyuritizatsiya qilingan yashil obligatsiyalar- yashil loyihalar portfelini qayta moliyalashtirish uchun chiqarilgan obligatsiyalardir.

Standart yashil obligatsiyalar- o'zlarining yashil loyihalarini moliyalashtirish uchun chiqarilgan obligatsiyalardir.

Suv iste'molchilari uyushmasi — yuridik shaxs bo'lgan suv iste'molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti;

Suv iste'molchisi — o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv obyektidan yoki suv xo'jaligi obyektidan suv resurslarini belgilangan tartibda oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Suv iste'moli (suvni iste'mol qilish) — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish;

Suv obyekti — suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to'planadigan va suv rejimining o'ziga xos shakllari va belgilari bo'lgan tabiiy (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun'iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko'llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sun'iy

(suv omborlari, sel suvlari to‘planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlar;

Suv obyektlarini muhofaza qilish — suv obyektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi;

Suv rejimi — suv obyektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi;

Suv resurslari — foydalaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo‘lgan suv obyektlari suvlari;

Suv xo‘jaligi — iqtisodiyotning suv resurslarini va suv obyektlarini o‘rganish, hisobga olish, boshqarish, ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, shuningdek suvlarning zararli ta‘siriga qarshi kurashishni qamrab oluvchi tarmog‘i;

Suv xo‘jaligi obyekti — suv resurslarini to‘plash, boshqarish, yetkazib berish, ulardan foydalanish, ularni iste‘mol qilish, ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xo‘jaligi faoliyati amalga oshiriladigan suv obyekti;

Suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari — suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanuvchi suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari (tumanlarning irrigatsiya bo‘limlari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari, nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, meliorativ ekspeditsiyalar, suv omborlaridan va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari);

Suvdan foydalanish — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

Suvdan foydalanuvchi — suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Suvlar — suv obyektlarida to‘plangan barcha suvlar majmui;

Suvlarning zararli ta'siri — suv toshishi, suv bosishi, zax bosishi va suvlarning o'zga ta'sirlari natijasida ayrim tabiiy-xo'jalik obyektlari va hududlarning yuvilishi, buzilishi, loyqa cho'kishi, botqoqlanishi, sho'rlanishi va boshqa salbiy hodisalar;

Transchegaraviy suv obyektlari — ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv obyektlari;

Transchegaraviy suv obyektlarining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari, Orol dengizi va boshqa transchegaraviy suv obyektlarining) suvlaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

Transchegaraviy suvlar — ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlari»;

Uy-joyda qayta tiklanadigan energiya - bu energiya ishlab chiqarish, saqlash va uy-joy ehtiyojlari uchun energiya ta'minotini boshqarishning muqobil tizimini rivojlantirish konsepsiyasi.

Xavfli chiqindilar — tarkibida xavfli (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchanlik, tez alangalanib yong'in chiqaruvchanlik, reaksiyaga tez kirishuvchanlik, radioaktivlik) xususiyatlardan loaqal bittasiga ega moddalar mavjud bo'lgan, bunday moddalar fuqarolar sog'lig'i va hayotiga, atrof-muhitga o'zi mustaqil tarzda ham, shuningdek boshqa moddalarga qo'shilganda ham bevosita yoki potensial xavf tug'diradigan miqdorda va shaklda mavjud bo'lgan chiqindilar.

Xavfsiz yashil obligatsiyalar- maqsadli yoki qayta moliyalashtirilgan yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqarilgan obligatsiyalardir.

Yagona davlat suv fondi: jilg'alar, soylar, daryolar, suv omborlari, ko'llar, dengizlardan, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yer usti suvlari.

Yashil investitsiyalar - bu foyda keltiradigan va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarga investitsiyalar.

Yashil moliya - bu ekologik toza, energiya tejamkor va kam uglerodli loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan investitsiyalar va boshqa moliyaviy yordamlar yig'indisidir.

Yashil moliya (yashil moliya) - atrof-muhitga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga oladigan va ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan investitsiya va kreditlash shakli.

Yashil o'sish - bu ijtimoiy va ekologik aktivlarni o'z ichiga olgan, yaratadigan va saqlaydigan inklyuziv iqtisodiy rivojlanish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro tashkilotdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) -BMT tizimidagi dastur bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilishni xalqaro darajada muvofiqlashtirishga yordam beradi. Dastur 1972-yil 15-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 2997-sonli rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy tashkiloti bo'lib, vakillik demokratiyasi va erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tan oladi.

Yashil o'sish indeksi (GGI)- yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini baholovchi va barqaror yashil o'sish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidir.

Yashil energiya - bu yoqilg'ilarni iste'mol qilmasdan, issiqxona gazlari chiqindilarisiz va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan energiya ta'minotini amalga oshirishni ta'minlaydigan konsepsiya. Elektr energiyasining tenglashtirilgan narxi (LCOE) - ishlab chiqarilgan elektr energiyasining narxini o'lchash usuli.

Yashil iqtisodiyot - atrof-muhitga zarar (iqlim o'zgarishi, cho'llanish, biologik xilma-xillikning yo'qolishi), cheklangan va tugaydigan tabiiy kapital, qashshoqlikning kuchayishi, suv, oziq-ovqat, energiya taqchilligi, odamlar o'rtasidagi tengsizlik va mamlakatlarning noyob iqtisodiy tizimi.

Yer osti suvlari — yer sathidan pastda yer qobig‘ining tog‘ jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar;

Yer usti suvlari — yer qobig‘ining ustida joylashgan suvlar;

Yetkazib berganlik va boshqa suv xo‘jaligi xizmatlari uchun haq to‘lash — suv ta‘minoti tashkilotlari (suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste‘molchilari uyushmalari va boshqalar) tomonidan ko‘rsatiladigan suv yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar va boshqa suv xo‘jaligi xizmatlari (suv xo‘jaligi obyektlarini ta‘mirlash, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, suvni boshqarish va hisobga olish vositalaridan foydalanishda ko‘maklashish) uchun shartnoma asosida to‘lovlarni amalga oshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar

I. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA QONUNLARI

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/6445145>.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ-539-son Qonuni.
- 1.3 O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi “Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-491-son Qonuni.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-iyuldagi “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-628-son Qonuni.

I. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORLARI VA FARMONLARI

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3012 sonli Qarori.
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.
- 2.3. 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o‘tish

strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son Qarori.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni.

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori

3.2. Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yildagi 561-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>

IV. DARSLIKLAR, O'QUV QO'LLANMALAR

4.1. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикаев ва бошқалар. –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б.

4.2. Липина С.А., Агапова Е.В., Липина А.В. Л61 Зеленая экономика. Глобальное развитие. – М.: Изд-во Проспект, 2016. – с. 234, тираж 500 экз.

4.3. Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В. Кудрявцевой. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. — 284 с.

4.4. Бобылев С. Н. Устойчивое развитие: методология и методики измерения : учеб. пособие / С. Н. Бобылев, Н. В. Зубаревич, С. В. Соловьева, Ю. С. Власов. - М. : Экономика, 2011. - 358 с. 5.9.

Вайцеккер, Э. Фактор пять, Формула устойчивого роста: Доклад Римскому клубу / Э. Вайцеккер [и др.]. – М., 2013.

- 4.5. Вацалова Т.В. Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие: учебное пособие. –М.: Юрайт, 2020. – 186 с.
- 4.6. Захаров В.М. Приоритеты национальной экологической политики.
- 4.7. "O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda "Yashil" O‘sish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. Jahon banki: Washington D.C."
- 4.8. Корнева А.А. “Зеленая” экономика и цифровизация в экономической основе концепции устойчивого развития // Научный сетевой журнал “Интеграл” №4/2022.

V.INTERNET SAYTLARI

- 5.1. <https://www.un.org>
- 5.2. <http://www.unep.org>
- 5.3. <http://unfccc.int/resource>
- 5.4. <http://unesdoc.unesco.org>
- 5.5. <https://www.unece.org>
- 5.6. <https://www.unenvironment.org>
- 5.7. <https://sustainabledevelopment.un.org>
- 5.8. <https://www.ilo.org>
- 5.9. <http://worldbank.org>
- 5.10. <https://www.ifc.org>
- 5.11. <http://www.oecd.org>
- 5.12. <https://www.wipo.int>
- 5.13. <https://yearbook.enerdata.net>

MUNDARIJA

	KIRISH	3
1 BOB	“YASHIL” IQTISODIYOT” KURSINING REDMETI VA METODI	5
1.1.	1.1.”Yashil” iqtisodiyot kursining predmeti va vazifalari	5
1.2.	Barqaror rivojlanishni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotning o’rni	7
1.3.	“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari	15
2-BOB	“YASHIL” IQTISODIYOTGA O’TISHNING ZARURIYATI, TAMOYILLARI VA DASTAKLARI	24
2.1.	Resurslarning cheklanganligi va “yashil iqtisodiyotga o’tish	24
2.2.	”Yashil” iqtisodiyotga o’tish tamoyillari	28
2.3.	”Yashil” iqtisodiyotga o’tish siyosatining dastaklari	32
3-BOB	“YASHIL” IQTISODIYOTNI BAHOLASH AMALIYOTI VA INDIKATORLARI	39
3.1.	UNEP da “yashil” iqtisodiyotga o’tishni baholash	39
3.2.	“Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayonini baholashning IHTT yondashuvi	41
4 BOB	“YASHIL” IQTISODIYOTGA O’TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH”	53
4.1.	“Yashil moliyalashtirish” tushunchasi	53
4.2.	”Yashil moliyalashtirish” tizimining tarkibi va amal qilish xususiyatlari	57
4.3.	“Yashil” iqtisodiyot. GEFF loyihasi	64
5 BOB	“YASHIL ENERGETIKA” BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	70
5.1.	”Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda tiklanadigan energiya manbalarining o’rni	70
5.2.	Tiklanadigan energiya iste’molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari	78
5.3.	Kioto protokoli mohiyati va ahamiyati	83
5.4.	“Yashil energetika”ni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning xorij tajribasi	87
5.5.	O‘zbekistonda “yashil energetika”ni rivojlantirish istiqbollari	90
6 BOB	QISHLOQ XO‘JALIGINI “YASHIL” IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH	94
6.1.	Qishloq xo‘jaligini “yashil” iqtisodiyot asosida rivojlantirish muammolari	94
6.2.	Organik qishloq xo‘jaligi tushunchasi, rivojlanish	97

	ko'rsatkichlari va usullari	
6.3.	Organik qishloq xo'jaligining afzalliklari	101
7 BOB	EKOLOGIK SIYOSAT VA UNI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMI	108
7.1.	Ekologik muammolarning mohiyati, oqibatlari va hal etish yo'llari	108
7.2.	O'zbekistonda ekologik vaziyat va ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari	115
7.3.	Yevropa darajasidagi ekologik siyosat	135
8 BOB	IHTT MAMLAKATLARIDA "YASHIL O'SISH"NI TA'MINLASH MODELLARI	137
8.1.	IHTT mamlakatlarida "yashil o'sishni ta'minlash modellari	137
8.2.	Elda "yashil o'sish"ni ta'minlash strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	141
9 BOB	RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH MUAMMOSI	147
9.1.	"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning Xitoy tajribasi	147
9.2.	MDH mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	150
9.3.	Qozog'iston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	155
10 BOB	O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI VA BOSQICHLARI	159
10.1.	O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: zaruriyati, maqsadi, tamoyillari va vazifalari	159
10.2.	Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari	161
10.3.	Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari	167
10.4	"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish	179
10.5.	Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari	183
11 BOB.	MILLIY "YASHIL TAKSONOMIYA"	193
11.1	O'zbekistonda milliy "yashil taksonomiya" ishlab chiqish maqsadi va asosiy vazifalari	193
11.2	"Yashil taksonomiya" mezonlari	195
	GLOSSARIY	199
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	210

ОГЛАВЛЕНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	3
ГЛАВА 1	ПРЕДМЕТ И МЕТОДИКА ДИСЦИПЛИНЫ “ЗЕЛЁНАЯ” ЭКОНОМИКА	5
1.1.	Предмет и задачи дисциплины “Зелёная” экономика	5
1.2.	Роль “зелёной” экономики в обеспечении устойчивого развития	7
1.3.	Сущность концепции “зелёной” экономики и этапы развития его развития	15
ГЛАВА 2	НЕОБХОДИМОСТЬ, ПРИНЦИПЫ И РЫЧАГИ ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ	24
2.1.	Ограниченность ресурсов и необходимость перехода к “зеленой” экономике	24
2.2.	Принципы перехода к “зелёной” экономики	28
2.3.	Рычаги политики перехода к "зеленой” экономике	32
ГЛАВА 3	ПРАКТИКА ОЦЕНКИ “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКИ И ИНДИКАТОРЫ	39
3.1.	ЮНЕП и оценка перехода к”зеленой “экономике	39
3.2.	ОЭСР подход к оценке процесса перехода к "зеленой” экономике	41
ГЛАВА 4	ФИНАНСИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЕРЕХОДА К "ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ	53
4.1.	Понятие”зеленое финансирование"	53
4.2.	Состав и особенности применения системы "зеленое финансирование".	57
4.3.	“Зелёная” экономика.Проект GEFF	64
ГЛАВА 5	"ЗЕЛЕНАЯ ЭНЕРГЕТИКА" КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	70
5.1.	Роль возобновляемых источников энергии в развитии” зеленой” экономики.	70
5.2.	Состояние, состав и перспективы развития потребления возобновляемых источников энергии.	78
5.3.	Сущность и значение протокола Киото	83

5.4.	Зарубежный опыт государственной поддержки "зеленой энергетики".	87
5.5.	Перспективы развития "зеленой энергетики" в Узбекистане	90
ГЛАВА 6	УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА НА ОСНОВЕ "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКИ	94
6.1.	Проблемы развития сельского хозяйства на базе "зелёной" экономики	94
6.2.	Понятие органического сельского хозяйства, показатели и методы развития	97
6.3.	Преимущества органического сельского хозяйства	101
ГЛАВА 7	ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	108
7.1.	Сущность, последствия и пути решения экологических проблем	108
7.2.	Экологическая ситуация в Узбекистане и приоритеты экологической политики	115
7.3.	Экологическая политика на уровне Европы	135
ГЛАВА 8	МОДЕЛИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ "ЗЕЛЕНОГО РОСТА" В СТРАНАХ ОЭСР	137
8.1.	Модели обеспечения "зеленого роста" в странах ОЭСР	137
8.2.	Приоритетные направления стратегии обеспечения "зелёного роста" ЕС	141
ГЛАВА 9	ПРОБЛЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ И ПЕРЕХОДА К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ"	147
9.1.	Опыт Китая перехода к "зелёной" экономики	147
9.2.	Приоритетные направления стратегии развития "зеленой" экономики в странах СНГ.	150
9.3.	Приоритетные направления стратегии развития "зеленой" экономики Казахстана	155
ГЛАВА 10	ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЗАДАЧИ ФОРМИРОВАНИЯ "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	179

10.1.	Стратегия перехода к "зеленой" экономике в Узбекистане: необходимость, цель, принципы, и задачи.	159
10.2.	Направления повышения энергоэффективности экономики страны.	159
10.3.	Перспективы развития возобновляемых источников энергии.	167
10.4.	Разработка финансовых и нефинансовых механизмов развития "зеленой" экономики	179
10.5	Способы адаптации к последствиям изменения климата и рационального использования природных ресурсов.	183
ГЛАВА 11	НАЦИОНАЛЬНАЯ "ЗЕЛЕНАЯ ТАКСОНОМИЯ"	193
11.1	Цель и основные задачи разработки национальной "зеленой таксономии" в Узбекистане	193
11.2	Критерии "зеленой таксономии"	195
	ГЛОССАРИЙ	199
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	210

CONTENT

	INTRODUCTION	3
CHAPTER 1	SUBJECT OF THE "GREEN "ECONOMY COURSE AND METHODS	5
1.1.	Subject and tasks of the course "Green "Economy	5
1.2.	The role of the "Green" Economy in ensuring sustainable development	7
1.3.	The essence of the concept of "Green" Economy' and stages of development.	15
CHAPTER 2	THE SUPPORT OF THE NEED, PRINCIPLES AND NECESSITY OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY	24
2.1.	Resource limitations and transition to " green economy"	24
2.2.	Principles of transition to a " Green" Economy'	28
2.3.	The levers of the transition to a" green" economy	32
CHAPTER 3	PRACTICE AND INDICATORS OF THE ASSESSMENT OF THE"GREEN" ECONOMY	39
3.1	Evaluation of the transition to UNEP and "green" economy	39
3.2.	Green color measurement methodology and IHPT bearings growth	41
CHAPTER 4	FINANCING THE TRANSITION PROCESS TO"GREEN ECONOMY	53
4.1.	The concept of "green financing	53
4.2.	The composition and validity features of the" green financing " system.	57
4.3.	Green economy. GEFF project	64
CHAPTER 5	"GREEN ENERGY" MAIN FACTOR OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	70
5.1.	The role of renewable energy sources in the development of the" green economy"	70
5.2.	Status, composition and prospects for the development of consumption of renewable energy sources	78
5.3.	The essence and significance of the Kyoto Protocol	83
5.4.	Foreign experience of state support for green energy	87
5.5.	Prospects for the development of "Green Energy" in Uzbekistan	90
CHAPTER 6	SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ON THE BASIS OF THE " GREEN ECONOMY "	94
6.1	Environmental problems in agriculture of Uzbekistan	94
6.2.	Organic agriculture concept, development guides and methods	97

6.3.	Benefits of "Organic Farming"	101
CHAPTER 7	ENVIRONMENTAL POLICY AND THE ECONOMIC MECHANISM OF ITS IMPLEMENTATION	108
7.1	The essence, consequences and ways of solving environmental problems	108
7.2.	The essence, types and tasks of environmental policy	115
7.3.	Priorities of the environmental situation and environmental policy in uzbekistan	135
CHAPTER 8	MODELS OF ENSURING "GREEN GROWTH" IN THE COUNTRIES OF THE IHT	137
8.1.	Models of ensuring green growth in the countries of the IHT	137
8.2.	Priorities of the strategy for ensuring "green growth" in nation	141
CHAPTER9	PROBLEM OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES AND TRANSITION TO A "GREEN ECONOMY"	147
9.1.	China's experience of transition to "GREEN ECONOMY"	147
9.2.	Priority directions of the "GREEN ECONOMY" development strategy in the CIS countries	150
9.3.	Priority directions of Kazakhstan " GREEN ECONOMY" development strategy	155
CHAPTER10	STAGES OF DEVELOPMENT AND TASKS OF THE FORMATION OF A "GREEN ECONOMY" IN UZBEKISTAN	159
10.1	Strategy for the transition to a green economy in Uzbekistan: necessity, goal, principles and objectives	159
10.2	Directions for improving the energy efficiency of the country's economy	161
10.3	Prospects for the development of renewable energy sources	167
10.4.	Development of financial and non-financial mechanisms for the development of the "green economy"	179
10.5	Ways to adapt to the consequences of climate changes and make rational use of natural resources	183
CHAPTER11	NATIONAL "GREEN" TAXONOMY	193
11.1	The purpose and main tasks of developing a national "green" taxonomy in Uzbekistan	193
11.2	Green Taxonomy Criteria	195
	Glossary	199
	Used literatures	210